

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

NAFISA YUSUPOVA

MUSIQA SAVODI, METODIKASI VA RITMIKA

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
tomonidan pedagogika oliy o‘quv yurtlari hamda
kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida
tavsiya etilgan*

Ikkinchi nashr

«Musiq» nashriyoti
Toshkent
2017

85.31
Y 88

Yusupova, Nafisa Yusupovna.

Musiqa savodi, metodikasi va ritmika: o'quv qo'llanma /N.Y.Yusupova; muharrir B.Ashurov; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. Ikkinchi nashr. – Toshkent: Musiqa, 2017. 180 b.

BBK 85.31я73

T a q r i z c h i l a r :

H.NURMATOV – Nizomiy nomidagi TDPU Musiqa kafedrası professori.

X.BOBOYEVA – Toshkent pedagogika kolleji «Musiqa – fan» kafedrası o'qituvchisi.

Mazkur o'quv qo'llanmada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning musiqa savodi, metodikasi va ritmikaning asosiy masalalari yoritilgan. Bolalarning musiqaviy-iqtisodiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyati turli usul va uslublar orqali ochib berilgan. Ushbu qo'llanmada ommaviy mashg'ulotlarning rejasi, ularning o'tkazilish tartibi, nazariy bilimlar bayoni, iqtisodiy topshiriqlar, notalari hamda foydalanish uchun qo'shimcha materiallar ham berilgan.

Namunaviy dastur asosida tuzilgan ushbu qo'llanmadan pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda kollejlarning o'qituvchilari va talabalari keng foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-307-56-8

© Nafisa Yusupova, 2010, 2017.

© «Musiqa» nashriyoti, 2010, 2017.

KIRISH

Istiqlol sharofati bilan yurtimizda «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish» yo‘lidan borar ekanmiz, jamiyati-mizning barcha sohalarida tup o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib turgan bir paytda, xususan, talantlarga pedagogik mahorat sirlarini o‘rgatib borish o‘ta zarurligini hayot taqozo etadi.

Bo‘lajak musiqa mutaxassisleri yosh avlod ongiga yuksak tuyg‘ularni singdirish, ularda Ona Vatanga muhabbat, go‘zallikga intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo‘lgan ishtiyoq uyg‘otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

Respublikamiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov bu noyob kasb egalarining imkoniyatlarini chuqur his qilgan holda, yosh avlodga musiqiy ta‘lim berish zarurligiga alohida e‘tibor qaratib, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berish haqida maxsus farmon chiqardi. Unda ta‘kidlangani-dek, «Bolalar musiqa va san‘at maktablarini zamonaviy o‘quv va musiqa anjomlari bilan ta‘minlash» bugungi kun talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Umumta‘lim hamda M.T.M da musiqa fani bo‘yicha davlat o‘quv standartlari va dasturlarini, darslik va metodik,

o'quv qo'llanmalarini zamonaviy mezonlar asosida takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir. Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi.

Xalq pedagogikasi o'sib, rivojlanib borayotgan bir davrda xalq musiqiy namunalarini o'rganish atoqli san'atkorlar ijodidan dars jarayonida keng foydalanish musiqa o'qituvchisi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligi ta'kidlanadi.

Mazkur tavsiyada mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda, O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqani bolalarning idrok etish qobiliyati darajasiga bosqichma-bosqich tadbiiq etish nazarda tutiladi.

Tavsiya etilayotgan qo'llanmadagi musiqa repertuari jonajon vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, tabiatni e'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm-shavqat kabi hislar musiqiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan va dars jarayonida quyidagi ijrochilik malakalarini shakllantirish zarur. Tovushni to'g'ri ohangda ijro etish, musiqa ostida ritmik harakatlarni ifodali bajara olish, cholg'u asboblarining tovushiga ko'ra ajrata olish va ularni aniq uslublarda, bolalar cholg'u asboblarida chalishga o'rgatishdan iborat.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASIDA VA OILADA MUSIQA SAVODINI TARBIYALASHNING AHAMIYATI VA VAZIFALARI

Musiqa savodining ahamiyati va vazifalari maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar, bu oliyjanob fazilatlarni yosh avlodda bog'cha yoshidan boshlab shakllantirishga bog'liq.

Darhaqiqat, musiqa savodini o'rganish bog'cha yoshidan boshlanadi. Ko'pgina bolalar maktabgacha tarbiya davrida bog'chaga qatnab, bog'chadagi musiqa mashg'ulotlarida dastlabki musiqaviy malakalarni hosil qiladilar. Ko'pgina qo'shiqlar va o'yinlarni o'rganib olgan hamda ritm va raqs harakatlari bilan tanishgan bo'ladilar. Uyda tarbiyalangan bolalar ham muayyan musiqaviy tasavvurga ega bo'ladilar: radio va televideniya orqali eshittiriladigan bir qancha musiqa asarlari ularga tanish bo'ladi. Garchi ana shu bilimlar sistemaga solinmagan bo'lsa-da, musiqa o'qituvchisi bolalarda musiqadan nazariy tushunchalar hosil qilishda o'sha bilimlarga ma'lum darajada suyanib ish ko'rishi mumkin.

Bolalar muassasalarida musiqa ta'limiga asos solinadi, shuning uchun musiqa rahbari ayniqsa o'qitish metodikasini yaxshi bilishi, bog'cha yoshidagi kichik bolalarning yosh va individual xususi-yatlarini, ularning musiqa va qo'shiqchilik imkoniyatlarini chuqur bilishi zarur.

Musiqa ta'limini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Birinchisi, tayyorlov bosqichi. Bundan ko'zlanadigan asosiy maqsad – bolalarning musiqa uquvini o'stirishdir. Shu vaqt mobaynida bolalar musiqa tovushlarining baland-pastligi va cho'zimi kabi o'ziga xos xususiyatlarni ajrata bilishga o'rganishlari va nota yozuvini o'rganishga tayyorlanishlari kerak. Ikkinchi bosqichda nota savodi, ya'ni bevosita musiqa tovushlarining grafik usulda ifodalanishi – nota yozuvini o'rganishga kirishiladi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish usuli, janrdagi musiqa asarlari, xususan, syujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan belgilanadi. Bola badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Turli metodlardan foydalanib o'tkaziladigan har bir musiqa mashg'ulotlari kichkintoylarda badiiy estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. Musiqa uquv qobiliyati asosan quyidagi musiqa

uquv turlaridan iborat bo‘ladi: musiqaviy uquvi, musiqaviy tovushlarning baland-pastligini his etish qobiliyati, tembr uquvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan, o‘ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati), ritm tuyg‘usi va musiqa xotirasi.

Bolalar bog‘chasida olib boriladigan musiqa tarbiyasining asosiy maqsad va vazifalarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishga o‘rgatish.

2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg‘ularini hosil etish yo‘li bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitib borish.

3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko‘nikmalarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatini o‘stirib borish.

4. Bolalar ovozini asrab tarbiyalash, ashula aytishning dastlabki ko‘nikmalarini hosil etish, qo‘shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodali kuylashga o‘rgatish.

5. Musiqa asarlaridan ta’sirlanish, shu asosda bolalarda musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.

6. Turli musiqa mashg‘ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish musiqadagi badiiy obrazni o‘yin va xor ovozlari vositasida ifoda etish, ma’lum musiqaviy mavzuga yangi o‘yin o‘ylab topish.

7. Musiqaviy tarbiya mashg‘ulotlarini bog‘cha hayoti bilan bog‘lash, bog‘chada o‘tkaziladigan turli

mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyishtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqiy ta'lim jarayonida musiqa savodini o'rgatishdan asosiy maqsad nimalardan iborat ?

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaviy tarbiyasi mashg'ulotlarda, kundalik hayotda qanday takomillashadi?

3. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaviy tarbiyasi haqida nimalarni bilasiz?

Musiqiy tovushlar va ularning xususiyatlari. Tovushqator registr va ularning vazifalari

Tabiatda uchraydigan hamma tovushlar musiqali va shovqinli tovushlarga ajratiladi. Shovqinli tovushlar qasirlash, g'ijirlash, dukullash, gumburlash singarilar bo'lib, aniq balandlikka ega emas. Shuning uchun ular musiqada qo'llanilmaydi. Musiqaviy tovushlar esa ma'lum balandlikka ega bo'lib, insondagi eshitish analizatori bu tovushlarni payqab oladi. Musiqiy tovushlar turi, xususiyatiga ko'ra, bir-biridan farq qiladi. Bu xususiyatlar tovushning balandligi, qattiqligi, davomiyligi va tembrdan iboratdir. Tovushlar balandligi tebranuvchi jismning tezligiga bog'liqdir. Tebranish qancha tez bo'lsa, tovush shunchalik baland bo'ladi va aksincha, tebranish qanchalik sust bo'lsa, tovush shunchalik past bo'ladi. Tovush qattiqligi tovush

manbayi bo'lgan jismning tebranish amplitudasiga bog'liqdir. Tovush qanchalik qattiq bo'lsa, shuncha qattiq ishlatiladi va aksincha. Tovush cho'zimi manbayi tebranishining davom etishiga bog'liq bo'ladi.

Musiqqa ijrochiligi uchun belgilangan musiqaviy sistema o'zaro munosabatda bo'lgan muayyan balandlikdagi tovushlar tizilmasidan (qatoridan) iboratdir. Tovushlarning o'z balandligiga qarab joyla-shishi sistemasiga **tovushqator** deyiladi. Musiqaviy sistemaning to'liq tovushqatorlarida 88 ta xilma-xil tovushlar bor. Musiqaviy sistema tovushqatorlari yettita mustaqil nomga ega bo'lgan asosiy bosqich-lardan iboratdir.

I	II	III	IV	V	VI	VII
Do	Re	Mi	Fa	Sol	Lya	Si

Bu asosiy tovushlar fortepianoning oq klavishlari (bosqich pardalari) tovushlariga mos keladi.

Tovushqatorlarining bu yettita bosqichi ma'lum bir vaqtda takrorlanib turadi. Bunda yuqori tomon sanalgan har bir 8-tovush 1-tovushga nisbatan ikki baravar kuchliroq tebranish natijasida hosil bo'ladi va shu sababdan ikki marta baland bo'lib eshitiladi. Bir xil nomdagi tovushlar oralig'iga **oktava** deyiladi. Demak oktava tovushlarining yetti asosiy bosqichini o'z ichiga birlashtiradi. Butun tovushqator bir necha oktavaga bo'linadi. Har bir oktavaning «Do» tovushi boshlang'ich bosqichning tovushi deb qabul qilingan.

Cholg'u asboblari tovushlarning yoki inson ovozi ma'lum bir bo'lagiga **registr** deyiladi. Registrlar uch xil bo'ladi: pastki, o'rta, yuqori registrlar.

Registrlar haqidagi tushunchani mustahkamlash va o'zlashtirishni tekshirib ko'rish uchun quyidagi o'yin-

mashqni o'tkazish foydali. Tarbiyachi qo'shiqni turli registrlarda chaladi, bolalar esa ularni qo'l harakatlari bilan ko'rsatib borishlari kerak. Agar qo'shiq yuqori registrda chalinayotgan bo'lsa, ular qo'llarini yuqoriga ko'tarishadi, pastki registrda chalinayotganda – pastga tushurishadi, o'rta registrda esa qo'llarini oldinga uzatishadi. Bu o'yinni tikka turib bajarish yaxshiroq bo'ladi. Bunda ko'zlanadigan asosiy maqsaddan tashqari, bir yo'la go'yo jismoniy yengillikka ham erishish mashg'ulotda ko'tarinki ruh paydo qiladi.

Tovushlarning baland-pastligini aniqlash birinchi oktava bilan cheklangach, shu tovushlarni eshitishnigina emas, balki ularni kuylashni ham talab etish kerak. O'shanda bolalarning eshitib, tasavvur hosil qilishlari bilan bir vaqtda qo'shiqchilik sezgilari paydo bo'la boradi, chunki eng baland tovushlar qo'shiq aytishda o'rtacha va past tovushlarga qaraganda ko'proq zo'r berishni talab etadi.

Musiqa savodi musiqaning ifoda vositalari musiqqa tovushlarining yozish usullari va musiqqa nazariyasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar bilan tanishtiriladi hamda shu bir qatorda, notaga qarab ashula aytish bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni ham o'z ichiga oladi. Nota yozuvi haqidagi tushunchalarni ifodalaydigan va musiqqa savodi bilan yuritiladigan maxsus bilimni **nota savodi** deyiladi. Tovushlar joylashgan besh chiziq **nota chiziq-lari** deb ataladi. Besh chiziqni birlashtirib turgan bir chiziq **takt chizig'i** deyiladi. Nota yozuvi boshi **sol kaliti** deyiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:


1. Musiqiy tizimning to'liq tovushqatorida necha xil tovush bor?
2. Registrlar necha xil bo'ladi?

Musiqiy tovushlarning yozilishi. Kalitlar. Kalitlar haqida tushuncha

Musiqqa tovushlari **nota** deb ataladigan maxsus belgilar yordami bilan yoziladi. Nota belgilari o'rtasi bo'sh yoki bo'yalgan doiracha-lardan iborat bo'ladi. Tovushlarning xilma-xil cho'zimini ko'rsatish uchun bu doirachalarga vertikal tayoqchalar, dumchalar qo'shib yoziladi. Tovushlarning balandligini aniqlash uchun notalar beshta parallel chiziqdan iborat va nota yo'lga yoziladi.

Notalar chiziq'larga, chiziq'lar orasiga, chiziq'larning ustiga va ostiga yozilishini, asosiy chiziq'lar yetishmay qolganda esa notalar qo'shimcha, qisqa chiziq'larga yozilishi uqtiriladi. Nota chiziq boshida maxsus belgi – skripka kaliti bo'lmaguncha yozilgan notalardan birontasini ham atay olmaymiz, bu kalit notalar nomini ochib beradi. Kalitning ikkinchi nomi bo'lgan «Sol» kaliti bilan ham tanishtiriladi, o'z gajagi bilan nota yo'lining ikkinchi chizig'ini qamrab oladigan kalit **sol** notasining o'rnini ko'rsatishini, shu sababdan uning **sol kaliti** deb atalishini tushuntirib beradi. **Sol** notasining qayerda turganligini bilib olgan bola boshqa notalarni ham topishi mumkin. Bolalar notaning o'rnini qanday topish kerakligini juda tez tushunib oladilar; bu narsa maroqli o'yinga aylanib ketadi; o'yin paytida bolalar qayerda qanday nota yozilishini esda qoldiradilar.

Chiziq'lar pastdan yuqoriga qarab sanaladi. Nota yo'lining boshlang'ich qismida beshta chiziqdan birlashtiruvchi vertikal chiziq qo'yiladi.



Bolalarning nota yozuvini bemalol tushunib 1-oktava doirasidagi har bir notaning o'rnini yaxshi bilib olishlari uchun quyidagi mashqlarni tavsiya etish mumkin:

a) tarbiyachi notalarning nomlarini aytib turib yozdiradi yoki doskaga yozib beradi, bolalar esa ularni nota yo'liga yozishlari kerak;

b) tarbiyachi qo'shiq kuyini kuylaydi, bolalar esa qo'shiqning kuyuni ko'rgazmali qurollar orqali nota chiziq-lariga joylashtiradilar.

Bu mashqlarni bolalar mustaqil ravishda bajarishadi, so'ngra ulardan biri shu mashqni doskada ko'rsatib beradi.

Tovushlar puxta o'rganilgandan keyin eshitib bajariladigan har xil mashq turlari katta foyda keltiradi.

Musiqada notalar nomlanishi bilan birga, turli cho'zimlarga ham egadir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Kalitlar orasida eng ko'p qo'llaniladigan kalitning nomi nima?

2. Musiqiy tovushlarni yozishda qanday chiziq-lardan foydalaniladi?

Notaning nota chizig'ida qanday yozilishi

Notalar nota yo'liga undagi chiziqlar ustiga, chiziqlar oralig'iga yoziladi. Tovushlar qanchalik baland bo'lsa, nota belgilari nota yo'lining shunchalik yuqori yo'liga yoziladi.

Nota yozuvida asosiy chiziqlardan tashqari ayrim notalar uchun yana qisqa, qo'shimcha chiziqlar ham ishlatiladi. Nota yo'lining yuqorisida joylashgan qo'shimcha chiziqlar birinchi chiziqdan boshlab yuqoriga tomon, notaning o'zidan pastda joylashgan qo'shimcha chiziqlar, birinchi chiziqdan boshlab, pastga tomon sanaladi.

Nota doiralarida ikkinchi va uchinchi chiziqlar orasida va undan ham pastroqda joylashgan bo'lsa, tayoqchalar yuqoriga qarab, o'ng tomondan, uchinchi va undan yuqori chiziqlarda joylashgan bo'lsa, pastga qarab, chap tomondan qo'yiladi.

Musiqada notalar nomlanishi bilan birga, turli cho'zimlarga ham egadir. Ularning ko'rinishini quyidagicha tasvirlash mumkin:

w – butun nota

h – yarim nota

q – chorak nota

e – nimchorak nota ba hokazo...

«Sol» notasini misol qilib olib, 4/4 o'lchovda yozilsa, bunday ko'rinishda bo'ladi:



Notadan keyin nuqta qo'yish bilan nota cho'zimini teng yarmiga uzaytirish mumkin:



Bastakor turli nota va nota cho'zimlarini tanlab, yangi ohang, kuy yaratadi.

Kalitlar

Tovushlarning ma'lum bir balandligi, nota yo'lidagi chiziqlar ustiga va oralig'iga qo'yiladigan maxsus belgi bilan ifodalanadi. Bunga **kalit** belgisi deyiladi. Kalit belgisi nota yo'lining boshida, asosiy chiziqlardan biriga qo'yiladi va u nota yo'lidagi biron-bir chiziq markazini kesib o'tgan bo'ladi. Bundan tashqari, kalit belgisi bironta chiziqda turgan notaning ma'lum balandlikdagi tovush nomini belgilaydi. Nota yo'lidagi qolgan tovushlar balandligi mana shu notaga moslanadi.

Kalitlar xilma-xil bo'ladi. Ular orasida eng ko'p qo'llaniladigani skripka hamda bas kalitidir. Skripka kaliti ikkinchi chiziq ustida joylashgan bo'lib, birinchi oktavaning sol tovushi balandligini ifodalaydi.



Bas (fa) kaliti to'rtinchi chiziq ustida joylashgan bo'lib, kichik oktavaning *fa* tovushi balandligini ifodalaydi.

Tovushqatorning qolgan barcha bosqichlari mana shu tovushdan boshlab sanaladi.

Musiqaning ifoda vositalari

Tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan ayni vaqtda qo'shilib eshitaladigan uch va undan ortiq tovushlar qo'shilmasi **akkord** deyiladi. Uchta tovushdan iborat tersiya bo'yicha joylashgan akkord uchtovushlik bo'ladi. Uchtovushlikning qaysi holatda bo'lishi shu uchtovushlik tarkibiga kiradigan tersiyalarning joylashuv tartibiga va holatiga bog'liqdir. Akkord tovushlar tersiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga akkordning asosiy ko'rinishi deyiladi. Akkordning har bir ko'rinishi mustaqil nomga ega. Tovushlarning nomlari asosiy ko'rinishdagi akkordning pastdan yuqoriga tomon joylashgan tovushlari hosil qilgan intervallar nomidan kelib chiqadi.


Uchtovushlikda eng pastki, eng asosiy tovush **prima**, ikkinchi yoki o'rta tovush **tersiya**, uchinchi yoki yuqori tovushi **kvinta** deb ataladi.

Uchtovushlikda tovushlar joylashuvi tartibi o'zgarsa, ya'ni eng pastki tovush tersiya yoki kvinta bo'lsa, bu xildagi tuzilma uchtovushlik aylanmasi deyiladi. Major va minorning barcha bosqichlarida uchtovushlik tuzish mumkin. Har bir uchtovushlik mustaqil nomga ega. Shu singari agar tonliklar «re» tovushi bo'lsa, tonlik «re» major bo'ladi va hokazo. Xalq musiqasi uchun xilma-xil xarakterlidir, lekin hozirgi vaqtda asosiy o'rinni major bilan minor ladi egallab turibdi.

«Oymomo» qo'shig'idan

A - yam dey - di: ko'k - ka boq;

Buning grafik shakli:



Musiqada dinamik iboralarning qo'llanilishi

Kuy – ohang qo'shiqlar ijrosi yoqimli bo'lishi yoki biror musiqiy obrazni yanada boyitib tinglovchilarga eshittirish uchun musiqada dinamik belgilar qo'llaniladi. Tovush qanday kengaytirilishini ko'rsatuvchi, italyanchadan olingan bu belgilar nomlanishini va ma'nosini butun dunyo xalqlari bir xil tushunadilar. Dinamik belgilar quyidagicha yoziladi va talaffuz qilinadi.

- A) Muttasil balandlik darajasi:
 - Fortissimo – *ff* – juda baland.
 - Forte – *f* – baland.
 - Metssoforte – *mf* – o'rtacha baland.
 - Pianissimo – *pp* – juda past.
 - Piano – *p* – past.
 - Metsso piano – *mp* – o'rtacha past.

B) Muttasil o'zgaruvchi balandlik:

≡ Kreshchendo yoki kuchaytirish belgisi.

Poko a poko kreshchendo – sekin-asta pasayish.

≡ Diminuendo yoki pasaya borish belgisi.

Poko a poko diminuendo – sekin-asta pasayish.

Morendo – so'na boshlash.

V) Balandlik darajasini o'zgartirish uchun:

Piu forte – yana baland.

Meno forte – sal baland.

Sforsando – *sp* – ayrim tovushlarning keskin zarbi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqadagi dinamik belgilar qanday belgilanadi ?

2. Musiqadagi dinamik iboralar qayerga joylashtiriladi?

Intervallar va intervallarning aylanmasi

«Interval» – bu lotinchadan olingan so'z bo'lib, oraliq yoki masofa ma'nosini anglatadi. Musiqada esa ikki tovush oraliq'ini bildiradi.

Birin-ketin yoki bir vaqtda eshitilgan ikki tovush qo'shilmasi **interval** deyiladi. Intervallar melodik hamda garmonik shaklda bo'ladi.

Melodik intervalda tovushlar birin-ketin eshitiladi.
Masalan:



Garmonik intervalda tovushlar baravariga eshitiladi.
Masalan:



Har bir interval ikki miqdor son va sifat miqdori bilan aniqlanadi. Miqdori bosqichlar soni bilan ifodalanadigan intervallar **son miqdorli intervallar** deyiladi.

Miqdori ton va yarim tonlar bilan ifodalangan intervallar **sifat intervallar** deyiladi. Barcha garmonik intervallar va melodik intervallar asosan eng pastki tovushidan yuqoriga qarab o'qiladi. Intervalning pastki tovushi **interval asosi**, yuqori tovushi esa **intervalning cho'qqisi** deyiladi.

Bir oktava oralig'ida hosil bo'lgan intervallar **oddiy intervallar** deyiladi. Hammasi bo'lib, sakkizta oddiy intervallar bor. Ularning nomi shu intervallar hisobiga kiradigan bosqichlar soniga bog'liqdir. Intervallar lotin tilida tartibli sonlar bilan nomlanadi. Tartibli sonlar interval yuqori tovushining pastki tovushiga nisbatan nechanchi bosqichda turganligini bildiradi.

Interval tovushlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi natijasida pastki tovush yuqoriga va yuqoridagi tovush pastga joylashadi. Bunga interval aylanishi deyiladi.

Interval tovushlarning aylanishi 2 yo'l bilan amalga oshiriladi:


1. Interval asosini (pastki tovushini) bir oktava yuqoriga ko'tarish.

2. Interval cho'qqisini (yuqori tovushini) bir oktava pastga ko'chirish.

Mazkur intervalning aylanishi natijasida yangi interval hosil bo'ladi. Qoida bo'yicha barcha sof intervallar sofga, kichik intervallar kattaga, katta intervallar kichikka,

ortilgan intervallar kuchaytirilganga, kuchaytirilgan intervallar ortilganga aylanadi va aksincha.

Agar biror interval va uning aylanmasini birlashtirsak, oktava hosil bo'ladi. Shu sababdan, bir biriga aylanadigan intervallar sifat miqdorining yig'indisi hamma vaqt olti tonga ega bo'ladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:



1. Interval aylanishi deb nimaga aytiladi?
2. Interval deb nimaga aytiladi?

Intervallarning bosqichlari va ularning turlari

Intervallarni o'rganish davomida o'qituvchi o'quvchilardan naza-riy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, shu bilimlarni amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini egallash ham talab etadi. Ular berilgan notadan boshlab har bir yangi intervalni tuza bilishlari bilangina kifoyalanib qolmasdan, uni pastdan yuqoriga yoki yuqoridan pastga qarata kuylashni ham, dastlab eshitib olib, melodik bayon qilishni, so'ngra garmonik bayon qilishni, ham topa bilishlari kerak.

Intervallar solfedjo qilish malakalarini egallashga yordam beradi. Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga turli topshiriq va mashqlarni berib borishi lozim. Intervallarni aniqlashga mo'ljallanadigan yozma va og'zaki diktantlar ham shular jumlasiga kiradi yoki og'zaki topshiriqlar berish mumkin.

Musiqada 8 ta asosiy interval bor. Bular – **prima, sekunda, tersiya, kvarta, kvinta, seksta, septema** va **oktavalardir**.



Har bir asosiy intervalning aniq ton o'lchovi bor. Prima – 0, sekunda-1ton, tersiya-2ton, kvarta-2.5ton, kvinta-3.5 ton, seksta-4.5 ton, septema-5.5 ton, oktava-6 ton.

Bunday intervallarni har qanday tovushdan yuqoriga yoki pastga qurish mumkin.

a) birinchi oktavaning Iya, re, fa, mi tovushlaridan intervallar tuzish;

b) musiqa misolida uchraydigan intervallarni aniqlash;

c) tanish qo'shiqlardagi, shuningdek, notaga qarab o'rganib olinayotgan yangi qo'shiq yoki mashqlardagi kuyning interval tuzilishini aniqlash.

Ana shularning hammasi qo'shiqni ongli ravishda o'rgana borishga, talaffuzning aniq ravshan bo'lishiga yordam beradi.

Notaga qarab, nota bilan kuylash

Qo'shiq har bir o'quvchidagi musiqa qobiliyatini rivojlantirishga hamda bolaning barkamol avlod kishisi bo'lib o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida

o'rganiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli ravishda tushinishga o'rganish kerak bo'ladi. Avvalambor, tarbiyachi biror bir she'rni bolalar yod olishida dasturdan foydalangan holda o'rgatadi. Har bir she'r bolaning yoshi, guruhi hamda fasllarga, bayramlarning turlariga qarab tanlanadi.

Qo'shiq bolalar hayotida muhim rol o'ynaydi. Qo'shiq inson tafakkuri va ongini rivojlantiradi. Biz qo'shiq orqali jumbushga kelamiz, armon qilamiz, xayol suramiz (bu hol ko'proq kattalarda bo'ladi).

Biz qo'shiqni bolalarga o'rgatayotganda avval qo'shiqning kuyini, keyingina she'rini misrama-misra o'rgatamiz. Qo'shiqning kuyini o'rgatayotganda to'rt xil musiqa asboblari orqali chalib yoki bo'lmasa, biror-bir jonivorlarning ovozlarni berib o'tishimiz mumkin. She'rni esa bo'g'inlarga bo'lib yoki chapaklar orqali yod oldiriladi.

Bolalar she'rni tezroq yod olishlari uchun she'r matnlarini takror va takror aytishimiz kerak bo'ladi. Agar bolaning xayoli joyida bo'lmasa, musiqa tovushlarini va she'rni tez yod olishlari murakkab bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning ongi hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular kuyini sekin, uzoq muddatda yod olishadi. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o'rgatish zarur.


O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan buyon, barcha sohalarda, shu jumladan, Xalq ta'limida ham ko'p yangiliklar ro'y bermoqda.

Gullar raqsi

(o'zbek xalq raqsi)


O'rtacha guruh uchun

O'rtacha



Do majorni kuylaymiz

Shoshmasdan xursandlik bilan




Lad va tonliklar

Musiqa savodining ushbu muhim bo'limlaridan birida asosiy lad (parda) bog'lanishlarini o'rganish hamda parda

turlari va ularning tuzulishi (major va minor) bilan, tonlik (ohangdoshliklar) va intervallar haqidagi tushuncha bilan tanishtiramiz. Aniq – sof talaffuzga erishish uchun bolalarda ladni bilish tuyg‘usini o‘stirib borish zarur. Bu ish bolalarning qo‘shiq aytishlariga o‘rgata boshlagan paytdan boshlanmog‘i kerak.

Lad va tonlikni o‘rganishda altiratsiya (o‘zgartma) belgilari bilan ham tanishtiriladi. Fortepiano klavishlari oktavada yettita oq va beshta qora klavishi borligini bilamiz.



Biroq bir klavishdan ikkinchisigacha bo‘lgan oraliq har xil. Agar shu klavishlar o‘rtasida qora klavish bo‘lmasa – bu oraliq oq klavishdan qora klavishgacha bo‘lgan oraliq kabi, yarim ton deb ataladi. Agarda oq

klavishlar o'rtasida qora klavishlar bo'lsa, bu oraliq butun tonga teng bo'ladi.

O'qituvchi oq klavishlarning o'z nomlari borligini qora klavishlarning nomi yo'qligini, bularning oq klavishlar nomlariga bog'liq ekanligini tushuntirib beradi. Agar tovushni yarim ton ko'tarish yoki pasaytirish kerak bo'lsa, qora klavishlar ishlatiladi va qora klavish qaysi tovushning ko'tarilayotganiga yoki pasaytirila-yotganiga qarab nomlanadi.

\flat – «bemol» tovushni 0,5 ton pasaytiradi.

\sharp – «diyoz» tovushni 0,5 tonga ko'taradi.

\natural – «bekar» pasaygan hamda ko'tarilgan tovushlarni asl holiga qaytaradi.

Bu belgilar ko'tarish yoki pasaytirish kerak bo'lgan tovush (nota) oldiga qo'yiladi.

Alteratsiya belgilarini tushuntirishda agar biror belgi nota oldida tursa, uning ta'siri shu taktgagina yoyilishini, belgi kalit oldida bo'lsa, uning ta'siri butun asarga yoyilishini ko'rsatib o'tish zarur.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Lad deb nimaga aytiladi va ularning qanday turlari bor?

2. Alteratsiya belgilarining nomlarini ayting?


Dirijorlik qoidalari

Dirijor fransuzcha «diriger» – *boshqarish, yo'lga solish* degan ma'noni anglatadi. Dirijor musiqa asarini ijro etuvchi jamoa, solistlar, xor, orkestrga rahbarlik qiluvchi san'atkor. Dirijor musiqa asarining ommaviy



ijrosiga qadar ijrochi jamoa bilan bo'lgan hamma tayyorgarlikni olib boradi. Asosiy ijro vaqtida esa konsert yoki spektaklda asarning o'ynalish tezligi, dinamik ayrim to'da yoki yakka ijrochilarni to'xtash yoki ijro qilish vaqtlarini ko'rsatib turadi, jamoani birlashtiradi, ruhlantiradi va asarning badiiy ijrosi uchun harakat qiladi. Dirijor o'ng qo'lida kichik tayoqcha ushlab, musiqa asaridagi taktlarning birinchi kuchli sanog'ini pastga tushirish bilan ko'rsatib turadi. Yuz, qo'l, bosh va gavda harakatlari va mimikalar bilan asar mohiyatini anglatib, qanday ijro etishini ko'rsatadi.


Ikki chorak ($2/4$) o'lchovida dirijyorlik qilish uchun chiroyli qomat bilan tik turib, ikkala qo'l, yelka balandligida oldinga ko'tariladi, barmoqlar bo'sh qo'yiladi. Nafas olib, ikkala qo'l bir tekisda quyidagi ko'rsatilgan chiziq qo'yilgan yo'nalish bo'yicha harakatlantiriladi. «Bir» deganda qo'llar pastga tushib, yonga ketadi; «ikki» deganda esa yuqoriga ko'tariladi va bu harakat bir maromda musiqa tugaguncha takrorlanaveradi.



«Uch chorak» ($3/4$) o'lchovida dirijyorlik faoliyati chiroyli qomat bilan dirijyorlik holatini egallab, ikkala qo'l bir-biriga teskari uch yo'nalishda quyida chizib qo'yilganidek, harakatlana boshlaydi.

«Bir» deganda, qo'l pastga tushiriladi, «ikki» deganda, yon tomonga ketadi, «uch» deganda, esa yuqoriga ko'tariladi va bu harakat bir maromda musiqa tugaguncha takrorlanaveradi.

«To'rt chorak» ($4/4$) o'lchovida dirijyorlik qilganda qo'l 4 yo'nalishda harakatlanadi:



«bir» deganda, qo'llar pastga tushuriladi;

«ikki» deganda, ular bir-biri tomon yo'naltiriladi;

«uch» deganda, o'ng qo'l yonga, chap qo'l chapga

yo'naltiriladi;

«to'rt» deganda, esa qo'llar yuqoriga ko'tariladi.

Dirijorlik harakatlari bir tomonda musiqa tugaguncha davom ettiriladi.

Qaysi o'lchovda dirijorlik qilinishdan qat'iy nazar, kuy tugagunchaxuddi osilib turgan ipni uzgandek, bir past qotib turiladi.

Tegishli o'lchovni o'rganish paytida uning o'ziga xos xususiyat-larni aniqlab, shu o'lchovni asarning badiiy obrazi bilan bog'lash kerak. 2/4 o'lchovining ko'pincha raqs musiqasida uchrashini harakatlarining aniqligi, shu musiqaga xos xususiyat ekanligini, polkalarda, «Jonon» singari xalq raqslarida buni yaqqol ko'rish mumkinligini ta'kidlab o'tish mumkin. Aksincha, 3/4 o'lchovida yozilgan raqslar harakatlar-ning tekisligi bilan ajralib turadi, masalan, vals gir aylanib o'ynaladi, polonez (polyak milliy raqsi) salovatli bo'lib, tizzalarni ohista egib-egib o'ynaladi. Tantanali bayram marshlari, madhiyalar va boshqa musiqa asarlari faqat aniqlik bilangina emas, balki hajm kengligi va tovush yangrashining bir tekisligi bilan ham ajralib turadi, bunday asarlar 4/4 o'lchovida yozilgan bo'ladi. Mana shu o'lchovlar orqali dirijorlik harakati amalda bajariladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Dirijorlik necha o'lchamdan iborat?
2. Qo'l harakatlari bilan ko'rsatib bering?

Major, minor va uchtovushliklar hamda ularning yozilishi

Tonika va alteratsiya tushunchalarini bilib olgandan keyin, Yevropa musiqasida keng yoyilgan asosiy ladlar major va minor bilan bevosita tanishishga o'tish mumkin. Dastlab lad tovushini ko'rib chiqish va esda qoldirish shart emas, bolalarni eshitib olib, major va minor ladlarini ajrata bilishga o'rgatish mumkindir.

Odatda, majorni shodiyona, xushchaqchaq lad sifatida, minorni esa xazin, mungli lad sifatida bir muncha soddalashtirilib aniqlanadi.

Major va minorning barcha bosqichlaridan uchtovushlik tuzish mumkin.

Har bir uchtovushlik tuzilgan bosqichga qarab mustaqil nomga ega bo'ladi:

I bosqich uchtovushligi tonika uchtovushligi deyiladi.

IV bosqich uchtovushligi subdominanta uchtovushligi deyiladi.

V bosqich uchtovushligi dominanta uchtovushligi deyiladi.

Ular majorda TSD harflari bilan, minorda esa tsd harflari bilan belgilanadi.

Tersiya bo'yicha joylashgan yoki joylashishi mumkin bo'lgan va ayni vaqtda qo'shilib eshitilgan uch va undan ortiq tovushlar qo'shilmisiga **akkordlar** deyiladi.

Uch tovushdan iborat tersiya bo'yicha joylashgan akkord **uchtovushlik** deyiladi.

Uchtovushlikning qaysi holatda bo'lishi shu uchtovushlik tarkibiga kiradigan tersiyalarning joylashuv tartibi va holatiga bog'liqdir.

O'qituvchi major va minor haqidagi tasavvurlarini mustahkamlash uchun o'quvchilarga xilma-xil mashqlarni berish mumkin:

a) o'qituvchining ijro etadigan kuyini eshitib olib, uning qanday ladda yozilganini aniqlash;

b) major va minorda yaratilgan kuyni tinglatadi, o'quvchilar esa qaysi kuy qanday ladda yozilganini ifodalaydi.



Major va minor laddari orqali tuzilgan uchtovushliklar kuy- qo'shiqlarning chiroyli yangrashini ta'minlab beradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Major deb nimaga aytiladi?
2. Minor deb nimaga aytiladi?
3. Uchtovushliklarni yozib ko'rsatib bering.

Akkordlar haqida tushuncha

Akkord tovushlari tersiya bo'yicha joylashgan bo'lsa, unga akkordning asosiy ko'rinishi deyiladi. Akkordning har bir ko'rinishi mustaqil nomga ega. Tovushlarning asosiy ko'rinishidagi akkordning pastdan yuqoriga

tomon joylashgan tovushlari hosil qilgan intervallar tomonidan kelib chiqadi.

Agarda akkordda tersiya bo'yicha joylashgan to'rtta tovushidan tuzilsa, **septakkord** deyiladi. Septakkordning ikki chetidagi tovushlar oralig'i septima intervalida bo'ladi. Shuning uchun ham bu akkord septakkord nomini olgan.

Musiqada septakkordning xilma-xil ko'rinishi uchraydi, ularni ham uchtovushliklar singari istalgan bosqichdan tuzish mumkin. Major va garmonik minorning beshinchi bosqichidan tuzilgan septakkord juda ko'p tarqalgandir. Bu akkordga **dominant septakkord** deyiladi.

Dominant septakkord yuqori tomonidan kichik tersiya qo'shilgan major uchtovushligidan hosil bo'ladi. Dominant septakkord tovushlari asosiy tovushdan boshlab sanalganda prima tersiya kvinta va septimadan iborat. Dominant septakkord quyidagi belgi bilan yoziladi V7 harfi yozilganda D7 bo'ladi.

Dominant septakkord quyidagi tersiyalardan iborat:

V dan VII bosqichgacha – katta tersiya;

VII dan II bosqichgacha – kichik tersiya;

II dan IV bosqichgacha – kichik tersiya.

Dominant septakkord majorda ham, minorda ham bir xil tartibda tuziladi.

Qo'shiqni yod olish

O'qituvchining qo'shiq ijro etishi va uni o'rgatishi jarayonidagi muhim bir payt hisoblanadi. O'qituvchi qo'shiqni nechog'lik aniq, ravshan, ta'sirli ijro etsa, bu qo'shiq o'quvchilarga shunchalik tushunarli bo'lib qoladi, qo'shiqni o'rganish ularga oson bo'lib ko'rinadi. Bolalar qo'shiqni kuchli taassurot bilan tinglashar ekan, ularning

shu qo‘shiqni tezroq o‘rganib olgilari keladi. Shunday qilib, bolalarni jim o‘tirib, diqqat bilan qo‘shiq tinglashga odatlantira borish kerak. O‘qituvchi qo‘shiqni boshidan oxirigacha ham, qisman ham ijro etishi mumkin. Agar qo‘shiq tabiat manzaralarini aks ettirsa, yil fasllarini ifodalasa, unda qandaydir umumiy mazmun va kayfiyat bayon qilinadigan bo‘lsa, qo‘shiqning bir bandini ijro etishning o‘zi kifoya qiladi, boshqa bandlari esa kuylamasdan, o‘qib beriladi. Ammo ayrim qahramonlarga, tarixiy voqealarga zid qo‘shiq va ashulalarda bo‘lganidek, qo‘shiq rivojining umumiy yo‘li yaqqol ma‘lum bo‘lsa, bolalarning yaxlit badiiy obraz taassurotini hosil qilish uchun qo‘shiqni to‘liq ijro etish afzalroq bo‘ladi. Masalan, N.Norxo‘-jayevning «Chamandagi gullarmiz» qo‘shig‘ining birinchi bandini ijro etishning o‘zi kifoya qiladi.

Chamandagi gullarmiz

P.Mo‘min

N.Norxo‘jayev

Sho‘x, quvnoq

mf
Biz - lar ko'p - miz dun - yo - da Suv oq -
qan - day dar - yo - da Biz yur - sak qa -
tor - la - shib Ko' - cha - lar ke - tar to - shib

2. Sol notasi qaysi chiziqda joylashgan?
 - a) Yordamchi chiziqda joylashgan.
 - b) 1-chiziq pastida.
 - c) 1- chiziqda.
 - d) 2- chiziqda.
3. Yordamchi chiziqda joylashgan nota.
 - a) Do.
 - b) Re.
 - c) Mi.
 - d) Fa.
4. Birinchi notadan keyin xuddi shu notagacha bo'lgan oraliqlar.
 - a) Tovush.
 - b) Oktava.
 - c) Diapazon.
 - d) Registr.
5. Musiqa asboblarning eng pastki nuqtasidan eng yuqori nuqtasigacha bo'lgan masofa.
 - a) Nota yozuvi.
 - b) Takt.
 - c) Diapazon.
 - d) Ritm.
6. Registr necha guruhga bo'linadi?
 - a) 2 ta, tenor ,bas.
 - b) 3 ta, pastki registr, o'rta, yuqori.
 - c) 4 ta, ritm, alt, bas, takt.
 - d) 5 ta minor, zarb, ritm, soprano, tenor.
7. Vokal, xor malakalari berilgan qatorni toping.
 - a) Darsda qo'shiq kuylash holati, ashulachilik nafasi.
 - b) Ovoz hosil qilish, sozlanish.
 - c) Ansambl, tanaffus.
 - d) Barcha javoblar to'g'ri.

8. Ritm bu –
- a) Musiqiy qobiliyat.
 - b) Tovushlarni miyoriga qo'yib chalish.
 - c) Tovushlar o'lchami.
 - d) Usul.
9. Tovushlar o'lchami –
- a) Tovush.
 - b) Minor.
 - c) Takt.
 - d) Tovush cho'zimplari.
 - e) Ritm.
10. Tovushlarni nima yordamida miyoriga qo'yib chalinadi.
- a) Sol kaliti.
 - b) Takt.
 - c) Zarb.
 - d) Tovush cho'zimplari.
11. Musiqali tovushlar.
- a) Balandlikga ega bo'lgan tovush.
 - b) Cholg'u asboblarning tovushlari.
 - c) Minor.
 - d) Barcha javoblar to'g'ri.
12. Shovqin tovushlar.
- a) Balandlikka ega bo'lgan tovush.
 - b) Transport tovushlari.
 - c) Balandligi noaniq tovush.
 - d) Balandlikka ega bo'lmagan tovush.
13. Nimchorak nota belgisi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.
- a) q
 - b) h
 - c) w
 - d) e

14. Notalar ketma-ketligi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating.

- a) Do, si, re, Iya, mi, sol, fa.
- b) Do, re, si, mi, fa, sol, Iya.
- c) Do, re, mi, fa, sol, si, Iya.
- d) Do, re, mi, fa, sol, Iya, si.

Oilada va bolalar bog‘chasida musiqa savodining ahamiyati

Musiqa bolaga har tomonlama yordam berib, tevarak-atrofnı obrazli, emotsional idrok etish va bola xarakterning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatish uchun musiqa tarbiyasining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

1. Bolada musiqiy qobiliyatni rivojlantirish.

2. Bolalarnı ashula aytish va musiqaviy ritmik malakalarga o‘rgatilib, ularda musiqani qabul qilishni his etish va tushinish qobiliyatlarini tarbiyalash.

3. Bolada badiiy ijodiy qobiliyatlarnı rivojlantirish.

Musiqiylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlarini, ularning atrofıdagi qo‘shimcha, obrazlarnı bolalar yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa, o‘z navbatida ularning tevarak-atrofnı bilishda, estetik baholanishni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolalarnı musiqa bilan shug‘ullantirishning sababi bola musiqa bilan shug‘ullanmasdan, qo‘shiq aytish va musiqa – ritmik harakatlar qilish ko‘nikmalarini yuzaga keltirib, shu soha bilan bog‘liq bilimlarnı o‘zlashtirishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga va tarbiya berishning o‘zaro uzviy bog‘langan uchta metodi bor:

1. Ko'rgazmali metod.
2. So'zlab berish metodi.
3. Amaliy faoliyat metodi.

Ko'rgazmali metod

1. Eshitishga asoslangan ko'rgazmali metod. Bunda bolaga o'rgatish bevosita musiqa bilan bo'ladi. Musiqa eshitish maxsus mashg'ulot paytida yoki bola tomonidan qo'shiq va musiqaviy ritmik harakatlarning ijro etilishi.

2. Ko'rishga asoslangan ko'rgazmalilik. Musiqa sadolari bilan qo'shiq olib boriladi. Turli o'yin, raqs, mashq harakatlaridan namunalar ko'rsatiladi.

So'zlab berish metodi

Bu metod bola ongiga mo'ljallangan bo'lib, uning faoliyatini ma'noli va mazmundor qilishga qaratiladi. Bunda pedagogning so'zi musiqa asarining dasturini tushunib olishda bolaga yordam beradi. Uning tasavvurini jonlantiradi.

So'zlab berish metodining quyidagi usullari bor:

1. **Tushuntirish** – yangi asarni tinglash, qo'shiq aytish, o'yin va raqslarni qo'shib, mashq qilish davomida foydalaniladi.

2. **Izohlash** – izohlar ijro, raqs, mashq harakatlarini, qo'shiq aytishning turli yo'llarini ko'rsatishda qisqa va aniq shaklda beriladi.

3. **Ko'rsatma berish** – bolalar o'yini raqs va mashqlarni bajarayotgan paytda beriladi. Masalan: o'ng yelka tomondan aylanish kerak, oyoq barmoqlarini pastga cho'zish kabi.

Amaliy faoliyat metodi

Bu faoliyatda bolalarga qo'shiq aytish va musiqali ritmik harakatlarni bajarishda shunday rahbarlik qilish kerakki, ular topshiriqni mumkin qadar ta'sirli va ifodali bajarishga intilsin. Bolalarni o'rgatish jarayonida yosh xususiyatlarini hisobga olib topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirish mumkin.

Bolalar bog'chasida bolalarni musiqaga o'rgatish bosqichlari

1-bosqich: Musiqa asari bilan dastlabki tanishtirish;

Yangi qo'shiqni o'rgatish jarayonida pedagog turli musiqa asboblarda chaldirib, kuyni o'zaro taqqoslaydi va shu yo'l bilan uni xotirasida qoldiradi.

2-bosqich: Qo'shiq va musiqa ritmik harakatlarini ijro eta olish ko'nikmalarini bo'lishni shakllantirish.

3-bosqich: Ko'nikmalar hosil qilish va mustahkamlash. Bunda topshiriqni avtomatik ravishda bajara oladigan qo'shiq, o'yin va raqsni mustaqil ijro etadigan darajada musiqa ta'limini berish, turli metodik usullarning barchasidan foydalanishni taqozo etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oilada musiqa savodini olib borishda tarbiyaning o'rne qanday?
2. Oilada va bolalar bog'chasida musiqa savodining o'rne va ahamiyati qanday?

Oilada va bog'chada bolalarni ashula aytishga o'rgatish

Qo'shiq har tomonlama bolani kamolga yetaklaydi. Bolalardagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirishga hamda bolaning barkamol yetuk avlod kishisi sifatida o'sishiga yordam beradi. Bolalar bog'chasida o'rgatiladigan har bir qo'shiq mazmuni va xarakterini ongli tushunishga o'rgatish kerak bo'ladi. Avvalambor tarbiyachi biror bir she'rni yod olishni dasturdan foydalangan holda o'rganadi. Har bir tanlangan she'r bolaning qiziqishlari, bolaning ishlari, guruhlari hamda fasllarga qarab bayramlarning turlariga qarab o'rgatiladi. Qo'shiq bolaning hayotida muhim rol o'ynaydi. Qo'shiq inson tafakkurini va ongini rivojlantiradi. Biz qo'shiqni bolalarga o'rgatayotganda avval qo'shiq kuyini, keyin she'rini misrama-misra o'rgatamiz. Qo'shiq kuyini o'rgatganda to'rt xil musiqa asboblari orqali chalib yoki bo'lmasa, biror-bir jonivorning ovozlari berib, o'rgatishimiz mumkin. She'rni esa bo'g'inlarga ajratib yoki chapaklar orqali yod oldiradi. Bolalar she'rlarni tezroq yod olishlari uchun she'r matnlarini takror aytishimiz kerak. Agar bolaning xayoli bir joyda bo'lmasa, musiqa tovushlarini va she'rni tez yod olishlari murakkab bo'ladi. MTM yoshidagi bolalarning ongi, hali rivojlanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular kuyini sekin va uzoq muddatda yod olishadi. Bolalarga musiqa tovushlarini tushuntirib o'rgatish zarur.

Bolalar tarbiyasida qo'shiqning roli katta. Qo'shiq lirikaning eng qadimgi turlaridan bo'lib, kuylashga mo'ljallangan bir necha modeli she'rdir. Qo'shiqlar kuy

va ohang bilan aytiladi. Ba'zan qo'shiq o'yin bilan birga ijro etiladi. Demak qo'shiq uchun she'r va kuy kerak. Qo'shiq xalq og'zaki ijodining eng ko'p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biridir. Qo'shiqlar xalq turmushi va mehnatning ijodiy mahsuli bo'lib, unda xalqning orzu-tilaklari qalb sadolari turli-tuman hayotiy tuyg'ulari ifodalangan. Qo'shiqlar o'quvchilarning nafosatini o'rgatishga, ularni hayot va mehnatga, muhabbat, vatanparvarlik, do'stlik, qahramonlik, baynalminallik, insonparvarlik kabi oliyanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Qo'shiq hayot mohiyati va mazmuniga mos shakllarda tuziladi. Masalan: bolalar bog'chalarida tarixiy qo'shiqlardan foydalansak bo'ladi. «Xon zulmi», «Ming la'nat», «Xondan dod» va shunga o'xshash musiqalardan foydalanish mumkin. Yana o'zimizning milliy musiqalarimizni aytishni ham bolalarga o'rgatishimiz mumkin ekan. Masalan: «Chitti gul», «Boychechak», «Laylak keldi» va hokazolar.

Bu musiqalar mavzu jihatdan mehnat, ishqiy, lirik qahramonlik qo'shiqlariga va shu kabi boshqa turlarga bo'lishimiz mumkin. Hayot tajribalariga asoslanmagan rang-barang qo'shiqlar orqali xalqning g'am-hasrat, dushmanga nisbatan ga'zab va nafrati kabi his-tuyg'ulari izhor etiladi.

Qo'shiq bolani erkalatadi, o'yinga boshlaydi, uni his qilish qobilyatini o'stiradi, fikrlashga o'rgatadi.

Bola tug'ilgan kunidanoq onaning mehr to'la allasini tinglaydi. Bunda onaning bolaga bo'lgan samimiy chuqur muhabbati bilan birga, farzandning jamiyatga mos, yaxshi farzandlar egasi bo'lib tarbiyalanishini ta'sirli, ohangdor qo'shiq orqali ifodalaydi:

Alla, bolam, alla,
Jonim bolam, alla.
Ikki ko‘zim, alla,
Shirin so‘zim, alla.
Alla bolam, baxti bor,
Har narsaning vaqti bor.
Jonim bolam, alla,
Shirin so‘zim, alla.
Ikki ko‘zim, alla,
Jonim bolam, alla,

Allada yaxshi tarbiya ko‘rgan bola jamoa o‘rtasida, to‘y tomoshalarda, ota-onaning obro‘si uning shuhrati sifatida ta‘riflanadi. Alla bolani chaqaloqlik davridanoq ohanglar vositasida ezgulikka chorlaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oilada va bog‘chada ashula aytishning asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Qo‘shiq uchun kuy va she‘rning ahamiyati qanday?
3. Bolalar tarbiyasida qo‘shiqning ta‘limiy o‘rni qanday?

Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiyati

Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san‘at hisoblanadi.

Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshligidan rivojlana boshlaydi. Bog‘chada amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan bola musiqa mashg‘ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham

musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo shuni eslatish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan: orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab, idrok etish mumkin, xolos. Shuning uchun olimlar musiqaviy tarbiya jarayonida musiqa tinglashga alohida e'tibor qaratishadi. Chunki kishi musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida musiqa tinglash, malaka, ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- 1) bolalarni o'z idrokiga mos xalq klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;
- 2) bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish;

Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berishni o'rgatadigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglagan asarlariga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish.

Kichik guruh bolalarning diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar. Chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi ashula aytganda uning tanish ovozi va ifodalash intonatsiya mimikasi va ishoralari bolalarni maftun etadi. Shu vaqtda bolalarda hosil bo'ladigan zavqlanish,

ajablanish, quvonish holatlarini kuzarish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg'onib, tez so'nadi.

4 – 5 yoshli bolalarda diqqat e'tiborning bir muncha emotsional turg'unligi vujudga keladi. Ular raqs tipidagi kuylarni jonli, ba'zan jo'shqin holatda idrok etadilar. Yengil, kuychan musiqalarni birmuncha xotirjam idrok etadilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqa mazmuni va xarakterini bilishga ayniqsa, unda nima haqida hikoya etilishini bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Shuning uchun ularda musiqa xotirasi ancha faol rivojlana borib, tinglagan musiqa haqida o'z taassurotlarini hikoya qilib berish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

5 – 6 yoshli bolalarda esa erkin, ixtiyoriy tarzdagi diqqat e'tibor shakllanib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobilyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarni takror-takror tinglash jarayonini yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga tarbiyachining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi katta rol o'ynaydi. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2 – 3 mashg'ulot davomida takroran tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda bola uchun asarning yangi – yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi. Bog'channing tayyorlov guruhlarida bola o'z yoshiga muvofiq musiqa asarini to'la idrok etishga qodir bo'ladi. Bog'chada olingan bilim zahirasida malaka va ko'nikmasi, musiqa turlari va uning xarakteri farqiga borishga yordam beradi. Shunday

qilib, dasturda ko'zda tutilgan va bolaning musiqa madaniyati rivojlanishida kelajakda asosiy rol o'ynaydigan uch faktor amalga oshadi.

1. Musiqaga qiziqish musiqa asarlarini ishtiyok bilan tinglash va ularni eslash, olingan taassurotlarni o'ylash.

2. Musiqa tinglashga turg'un diqqat-e'tiborni va tinglash madaniyati boshlang'ich elementlarining shakllanishi.


3. Musiqiy didining shakllanishi, musiqa asarlariga badiiy baho bera olish.

Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiy vazifalari:

1. Musiqa tinglash orqali bolalarda his-tuyg'ularini rivojlantirish.

2. Boshlang'ich musiqa tinglash tushunchalarini rivojlantirish.

Musiqa tinglash alohida metodlar orqali o'tkaziladi.



Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqa tinglashning vazifalari nimalardan iborat?
2. Musiqa tinglashning tartib va qadamlari qanday?
3. Musiqa tinglashning asosiy metodlari qaysilari?

Musiqqa asboblarida ijro etish va uning vazifalari

Musiqqa madaniyati darslarida bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir. Bolalar cholg'u asboblari jonli tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakteri va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga xos emotsional tuyg'ular hosil etish, ayniqsa bolalarning ijodiy qobilyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa madaniyati darslarida bolalar cholg'u asboblaridan foydalanishi ijobiy natijalar berish bilan birga, o'quvchilarning darsga intiluvchanligini, qiziqishi va musiqiy uquvini o'stiradi. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishda, avval o'quvchilar chapak chalib, ritmik jo'r bo'ladilar, o'qituvchi o'quvchilar kuy ritmini to'g'ri his etib, ijro etishlari uchun, bolalarga stol ustida terib qo'yilgan cholg'u asboblarida chalib, musiqaga jo'r bo'lishlarini aytib qo'yish lozim. So'ngra biror cholg'uda kuyni o'zi ijro etib, chapak bilan jo'r bo'lishini ko'rsatadi. Keyin barchani kuyga chapak chalib, jo'r bo'lishini taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholg'u asboblarini tarqatish uchun ilg'or o'quvchilarni tanlaydi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay, musiqani tog'ri his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijro turlari murakkablashtiriladi. Ayni holda sinfni ikki guruhga bo'lib I guruh chapak chalib, II guruh ovozda usul berish bilan ham jo'r bo'lishi mumkin.

Musiqa darsida qo'llaniladigan bolalar cholg'u asboblari ikki turga bo'linadi: *kuychan* va *kuychan bo'lmagan* cholg'u asboblari. *Kuychan* cholg'u asboblarga: metallafon va ksilafon; *kuychan bo'lmagan* cholg'u asboblarga : doirachalar, rumbalar, marakasalar, uchburchaklar, qo'g'irchoqchalar, shaqildoqlar, barabanchalar, yog'och qoshiqlar kiradi.

Mana shu musiqa asboblardan tuzilgan:

1. Orkestr – turli cholg'ularda chaluvchi ko'p sozandalardan tuziladi.

2. Dirijor – orkestrga rahbarlik qiladi

3. Ansambl – turli cholg'ularda chaluvchi sozandalardan tuziladi

4. Solist – yakkaxon sozanda yoki yakkaxon xonanda bo'lishi mumkin.

«Navo parisi»

Bolalarimizni qadriyatlarimizdan milliy musiqa asboblarni e'zozlash ruhida tarbiyalovchi mashg'ulot bayoni

Boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz mehmonlar va qadrli bolalar! Bugun bog'chamizda bayramona tantana tomosha ko'rsatiladi. Artistlar kim ekan, deysizmi? Mana ular. Qani, qarsaklar bilan kutib olaylik (musiqa xonasiga bolalar kiradi, mehmonlarga o'z qo'llari bilan tayyorlagan konsert dasturini tarqatadilar va joylariga borib o'tiradilar).

Boshlovchi: Qani chaling musiqani, birinchi navbat raqqosalarga.

Tarbiyachi: Kechirasiz! Jon deb chalar edim-ku, lekin musiqa chala olmayman – pianinoning musiqa ohanglari yo'qolib qolibdi.

Bolalar: Notalarmi? Kitoblaringizmi?

Tarbiyachi: Yo‘q, nota kitoblarim joyida. Musiqa sadolari yo‘q.

Boshlovchi: Bolalarimiz notalarni bilishadi, to‘g‘rimi bolalar? Qani hammamiz jo‘r bo‘lib ovozlarni sozlab olaylik-chi? (Hamma bolalar ovoz sozlovchi mashqni bajaradilar.)

Tarbiyachi: Barakalla. Mana, «do» musiqa ohangi paydo bo‘ldi. Qani, she‘r aytib, o‘yin o‘ynab turinglar-chi, balki xonaga yettita tovush ham qaytib kelar.

She‘rlar aytiladi.

O‘yin. «Besh qarsak» (o‘zbek xalq bolalar o‘yini).

Tarbiyachi: Pianinoda faqatgina bitta tovush – «do» chiqyapti. U bilan musiqa chala olmayman. Endi nima qilamiz? (Musiqa sadosi eshitaladi)

Boshlovchi: Nimaning tovushi bu?

Bolalar: Doira-ku! (To‘siqning orqasidan ikkita bola chiqib, doira chalib qo‘shiq aytadi). Lapar. «Yallola bobo» (O‘zbek xalq qo‘shig‘i).

Barakalla, rahmat bolalar, mehmonlarni xushnud qildingiz. To‘siq ortidan rubob, dutor ovozlari eshitaladi.

Boshlovchi: Voy, milliy musiqa asboblarini butunlay unutibmiz-ku.

Tarbiyachi: Rahmat, kelinglar! Qarang, pianinoga endi «re» tovushi ham qaytib keldi.

Raqs: «Qari navo».

Boshlovchi: G‘ijjak haqida rivoyat aytib beradi.

Tarbiyachi: Qanday ajoyib! Hamma musiqa tuvushlar qaytmoqda.

Ashula: «Chuchvara qaynaydi» (O‘zbek xalq musiqasi).

Bola: Bog'cha opa! Qarang, men nima topib oldim (tol novdasidan nayni ko'rsatadi).

Boshlovchi: Bolalar, bu «nay»ni qadimda cho'ponlar chalishgan. Nayning juda ko'p qarindoshlari bor bilasizlarmi?

Bolalar: Bilamiz! Karnay, suynay, qo'shnay, nog'ora, doira

Topishmoqlar:

1. Uzun terak yiqildi,
Uchi mening qo'limda.
Zag'izg'on sayraydi,
Sochi mening qo'limda. (*tanbur*)
2. Tongda turib gilam qoqdim,
Changi jahonga ketdi. (*nog'ora*)
3. O'zi mitti,
Ovozi olamga yetti. (*surmay*)

Boshlovchi: Endi biz bolalar bilan o'zbek xalq musiqa asboblari doimo tinglaymiz, chalishni ham o'rganamiz.

Bolalar: Musiqa asboblari haqida she'r aytadilar.

Lapar: «Mundi-mundi». O'zbek xalq qo'shig'i.

Boshlovchi:

1. Milliy urf-odati bilan,
Qo'shiq san'ati bilan
2. Niholimiz ulg'aysin,
Bog'larimiz ko'karsin.
3. Kelajagimiz baxtli bo'lsin,
Avaylaylik ota-bobo merosin.

Hamma:

Har doim yaxshi kunda,
Kuy-navolar yangrasin.

«**O'zbekiston – quyoshli dior**» qo'shig'i ijro etiladi.

Maqsad: Bolalarga xalq musiqa ijodiyoti haqida tushuncha berish, milliy musiqa asboblari haqida ma'lumot berish va ularni chalib, turini topish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qanday milliy musiqa asboblari bolalar bog'chasida qo'llaniladi?

2. Bolalar uchun mo'ljallangan qanday musiqa asboblarning nomini bilasiz?

Xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirish

Bugungi davrimizda, milliy qadryatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy merosimizning, shu jumladan, ko'p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimiz, an'analarimiz har tomonlama o'zgarishni taqozo etmoqda.

Xalqimizning bebaho ma'naviy mulki bo'lgan milliy kuy-qo'shiqlarimiz muhim qimmatli manbalardan biri. Ularni keng miqyosda hayotga tadbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, qo'shiqchiligimiz san'atining buyuk tarixini har tomonlama o'rganish va bu borada chuqur izlanishlar qilib xalqimizga yetkazish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

«Xalq musiqa ijodiyoti» o'quv kursi xalq musiqasi ansambllariga rahbar kadrlar tayyorlash jabhasida maxsus va yetakchi fanlardan hisoblanadi. Talabalar xalq musiqa ijodiyoti mashg'ulotlari jarayonida nafaqat qo'shiqchiligimiz tarixini, balki necha asrlardan beri yashab, ijod qilib kelgan ustoz bastakorlar ijodini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

«Xalq musiqa ijodiyoti» fani xalq an'anaviy ijrochiligi tajribalarining nazariy va ijodiy umumlashtirilgan «havaskorlik ashula va raqs ansambli rahbari» ixtisosi bo'yicha mutaxassis yoshlarni tayyorlashga taalluqli xususiy masalalarni o'rganuvchi va o'rgatuvchi fandır. Xalq musiqa ildizlari, o'zbek bastakorlik san'atining rivojlantirish tarixiga muxtasar nazar tashlashga harakat qilindi. O'zbek xalq musiqa ijodiyoti hamda qo'shiqchilikni tiklash va rivojlantirishga ulkan hissalarini qo'shgan ustoz bastakorlar ijodi, hayotiy faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

20-yillarda chinakam o'zbek professional musiqasi mavjud emasdi. Uni yaratish uchun xalqning boy musiqa merosiga va zamonaviy qo'shiq ijodkorlariga tayanish lozim edi. Shunga ko'ra loqaq uch yo'nalishda juda katta tayyorgarlik ishlarini amalga oshirishga tog'ri keldi: hammabop konsertlar va dostonlar orqali musiqa san'atining yutuqlarini targ'ib qilish; o'zbek musiqa merosini izchil o'rganish; zarur kadr va mutaxassislarni tayyorlashni ta'minlash uchun keng ko'lamda musiqa ta'limini yo'lga qo'yish.

20-yillarda, hatto 30-yillarning boshlarida respublikamiz musiqa madaniyatida bilimlar to'plash va asta-sekin yuksalish davri bo'lgan, deyish mumkin. O'sha davrda yangi qo'shiq yaratildi va hayotga tadbiiq etildi. Ularning mualliflari yuqorida aytilganidek, xalq san'atining vakillari, ya'ni bastakor va metodistlar bo'lib, o'sha davrlarda o'zbek bastakorlari yo'q edi. Lekin metodistlar orasida o'zbek xalq musiqa san'atining mashhur namoyandalari anchagina bo'lib, ularning ko'p asarlari bizgacha yetib keldi va hozirda

ham yashamoqda. Ana shunday qo‘shiqlardan birinchisi M.Xarratovning 20-yillar oxirida yozilgan «Kolxoz marshi» qo‘shig‘idir. Xuddi o‘sha paytda A.Umarovning «Qizil askar» marshi ham yaratilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xalq musiqa ijodiyotlarining hozirgi davrdagi o‘rni qanday?

Notaga qarab kuylash. «Bahor» qo‘shig‘i I.Akbarov musiqasi

Har bir qo‘shiq pedagogik maqsadlarni amalga oshirishni ko‘zda tutib tanlanadi. Qo‘shiqlarni tanlashda davomiylik, izchillik, ilmiylik va oddiylikdan murakkabga qarab borish tamoyiliga rioya qilinadi. Unda har bir yangi qo‘shiq oldingisidan hosil etilgan vokal xor malakalarini mustahkamlaydi va ularni rivojlantiradi. Qo‘shiq o‘quvchilar ruhiyatiga, badiiy-g‘oyaviy mazmuni, yil, chorak mavzulari, yil fasllari, bayramlari, o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi kerak.

Qo‘shiqlarni quyidagi talablarga ko‘ra tanlash tavsiya etiladi:

– qo‘shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, siyosiy g‘oyaviy mazmuni, musiqiy tuzilishi va harakterining o‘quvchilar yoshiga mosligi;

– qo‘shiq matnining osonligi, badiiy yuksakligi bolalarning lug‘at boyligi va ularning nutqini o‘stirish uchun xizmat qilishi;

– qo‘shiq ohangi, uning xarakteri, lad va tesiturasi, ovoz diapazoni o‘quvchilar yoshiga mos bo‘lishi;

– qo‘shiqning badiiy xususiyati va ifodaviyligi, bolalar idrokiga mosligi, garmonik tuzilishi va ohangdoshligi;
– qo‘shiqning shakli, necha qismdan iboratligi, naqoratning mavjudligi.

Bahor

K.Rahim

I.Akbarov

O‘rtacha tez



Bahor chog‘i ko‘p yaxshi,
Ariq to‘lib suv oqar.
Mayin yelgan shabada,
Badanlarga xo‘p yoqar.

Uchib o‘tar osmondan,
Gala-gala suxsur, g‘oz.
Go‘zal bahor ketidan,
Yetib kelar issiq yoz.

Bolalar bog'chasida «Navro'z» bayramini nishonlash

Bayram ertaliklari bog'cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi.

Navro'z bayramida uyg'onayotgan borliq – tabiat ulug'lanadi. Qadriyat, urf-odat, udumlarimizni aks ettiruvchi mazkur bayram tabiat uyg'onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat g'ozalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko'kalamzorlashtirish, mehnatni ulug'lash kabi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Qo'shiq-yallalar kuylanadi, o'lan aytishuvlar va turli xil qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi. Bu bayramni bog'cha sharoitidan kelib chiqqan holda, zalda yoki hovlida o'tkazish mumkin. Qadimda sharq xalqlari o'z sayllariga odamlarni karnay-surnay orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy cholg'u asboblariidan foydalanish lozim. Badiiy qisimda quvnoq qo'shiqlar yangraydi.

«Navro'z – bahor bayrami»

Zal bayramona bezatilgan. «Chamanda gul» (o'zbek xalq musiqasi) kuyi yangraydi. Zalga quvnab, o'rta guruh bolalari kirib keladilar.

Boshlovchi: Maysa boshin ko'tardi yerdan,
Gul bahordan bermoqda darak.
Qushlar qo'shiq, soz, kuy bilan,
Gul bahordan bermoqda darak.

(M.Abdusamotova)

Assalomu alaykum, shirin shakar o'g'il-qizlarim! Atrofga bir nazar tashlang. Qanday chiroyli! Tabiat yashil libosga o'rangan. Yilning eng chiroyli faslida qir-adirlarda chuchmoma, boychechak, lolaqizg'aldoqlar ochilgan. O'lkamizda bahor kezmogda. Bu faslda qanday bayramni nishonlaymiz?

Bolalar: Navro'z bayramini nishonlaymiz.

Boshlovchi: Juda to'g'ri, navro'zni har yili zo'r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo'lib qolgan. Qo'shiqlar aytib, raqsga tushganlar. Xursandchilik qilganlar.

Karnay-surnay sadosi yangraydi. Beqasam chopon kiyib, beliga qiyiqcha bog'lagan, oyog'iga etikcha kiygan bola ot (butaforiya) minib zalga kiradi.

Bola: Ho-oy , bolalar-u, bolalar!

Eshitmadim demanglar! Bugun bog'chamizda navro'z bayramiga bag'ishlangan katta sayl bo'ladi. Hammangizni saylga taklif etaman (jarchi chiqib ketadi).

Boshlovchi: Voy, qanday yaxshi bolalar. Mana, biz ham saylda qatnashadigan bo'ldik. Endi navbat, sizlarga. Marhamat bolalar!

1-bola: Biz bahorda chiqamiz,
Dalalarga, bog'larga.
Gul-lolalar ochilgan
Ko'm-ko'k maysazorlarga.

2-bola: Bir tomonda qizchalar
Gullar terib o'ynashar.
Bir tomonda qushchalar
Bizni qutlab sayrashar.

3-bola: Dalalarda ochildi
Gunafshalar, lolalar.
Bizga uchib kelishdi
Mayna, bulbul, sa'valar.

4-bola: Qo'llarida soz bilan,
Gul-g'uncha pardozi bilan.
Uchib turna g'oz bilan,
O'kamizga bahor keldi.
Bahorni kuting bog'da,
Bog' emas, dala joyda.
Qushlar sayragan chog'da
Sevimli bahor keldi.

Bolalar «Gullar» qo'shig'ini kuylaydilar (J.Najmiddinov musiqasi) qizlar gullar bilan raqsga tushadilar.

Boshlovchi: Rahmat, qizlar, juda chiroyli raqsga tushdingiz.

1-bola: Bahor keldi. Gul bahor,
Etagida gul tutib.
Bizga intiq lolazor,
Qirlar bag'rida kutib.

2-bola: Atrof to'la har xil gul,
Chuchmoma-yu, binafsha.
Bizning ko'klamlar butkul
Chiroylidir hamisha.

3-bola: Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog'imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.

Bolalar tarafma-taraf bo'lib, «Bizdan sizga kim kerak?» aytim o'yinini aytishuv tarzida qo'llaydilar. (Y.Qurbonov she'ri, M.Nasi-mov musiqasi).

Shu payt momoqaldiroq gumburlaydi.

Boshlovchi: Bolajonlar, eshityapsizmi, momoqaldiroq gumburla-yapti. Hozir yomg'ir quyadi. Tezroq panaga o'tamiz.

«Yomg'ir yog'aloq» o'zbek xalq bolalar qo'shig'ini kuylaydilar.

Boshlovchi: Mana, bolalar, yomg'ir ham yog'ib o'tdi. Qarang, quyosh charaqlab chiqdi. Voy, eshik taqillayapti. Qaray-chi, kim ekan?

(Kamalak qizchani boshlab kiradi.) Bolajonlar, kamalakoy mehmon bo'lib kelibdi. Kiraver, kamalakoy!

Kamalak: Assalomu alaykum, bolalar!

Hamma: Vaalaykum assalom, kamalakoy.

Boshlovchi: Kelganing juda yaxshi bo'ldi-da, kamalakoy. Bizning bog'chamizda navro'z sayli bo'lyapti. Bolalar, kamalakning ko'ylagiga qaranglar, juda rang-barang ekanmi?

Bolalar: Oq, qizil, sariq, yashil. Lentasi ham turli rangda ekan.

Kamalak: Sizlarni, navro'z – bahor bayrami bilan tabriklayman! Sizlarga gulchambarlar, tol bargidan sochbargaklar keltirdim, mana taqib olinglar.

Bolalar boshlariga gulchambarlar, sochbargaklarini taqadilar, kamalaklar bilan birgalikda qo'shiq kuylaydilar, o'rtada ikkta qiz raqsga tushadi.

«Qo'shig'imiz avjida» aytim-o'yinini ijro etadilar.

(F.Komilov she'ri, T.Azimov musiqasi.)

Qoshig'imiz avjida,

Laylum, lalalum.

O'rtaga tush Mavjuda,
Laylum, lalalum.
Bizlarga jo'r bo'linglar,
Laylum, lalalum.

She'r: «Chuchmoma».

Bola: Xipchabell ey, ko'kat,
Qaysi bog'ning gulisan?
Ochig'ini bizga ayt,
Qaysi fasl sunbulisan?
Men O'tloqning qiziman,
Onam bahor, chuchmoma.
Men bahor yulduziman,
Men chuchmoma, chuchmoma!

«Baxtiy erkatoiy» hazil qo'shig'ini kuylaydialar
(T.Toshmatov musiqasi).

Boshlovchi: Bolalar, endi musobaqa o'ynaymiz. Avval qizlar, so'ngra o'g'il bolalar musiqaga mos raqsga tushadilar. Marhamat, qizlar! Qizlar «Asp bo'laman» o'zbek xalq musiqasiga, o'g'il bolalar esa «Chertmak» o'zbek xalq musiqasiga raqsga tushadilar.

Boshlovchi: Qani kamalak, ayt-chi, kim raqsga yaxshi tushdi?

Qizlarmi yoki o'g'il bolalar?

Kamalak: Qizlar ham, o'g'il bolalar ham musiqaga mos raqsga tushdilar. Rahmat, do'stlarim. Endi men boray. Shu payt patnisda ko'k somsalar ko'tarib, «Cho'pon bola» kiradi.

Cho'pon bola: Assalomu alaykum!

Hamma: Assalomu alaykum!

Cho'pon bola: Meni tanidingizlar-a? Men cho'pon bola bo'laman! Dadam, oyim, akalarim bilan anavi qirda

yashaymiz, o'sha yerda qo'y boqamiz. Uzoqdan sizni saylga chiqqaningizni ko'rib qoldik. Oyimlar ko'k somsalar yopib, sumalak pishirib, sizlarga berib yubordilar.

Boshlovchi: Cho'pon bola, sen juda vaqtida kelding-da. Mana, kamalak ham shu yerda.

Cho'pon bola: Juda yaxshi. Hammamiz birgalikda ko'k somsa yeymiz. «Chamanda gul» kuyi yangraydi. Hammalari gilamchaga o'tirib, ko'k somsa va sumalakdan tanavul qiladilar.

Kamalak: Bolalar, sizlarga katta rahmat. Sayl menga juda yoqdi. Endi har yili navro'z bayramini sizlar bilan birga nishonlayman. Xayr, bolalar!

Cho'pon bola ham xayrlashib, chiqib ketadi.

Hamma: Xayr kamalak, xayr cho'pon bola.

Bolalar uchtadan, to'rttadan bo'lib, to'p-to'p bo'lib, qizlarning boshida gulchambar, sho'x-shodon quvnashib, sayl haqida gaplashib, chiqib ketadilar.

Bolalar bog'chasida musiqiy ritmik harakatlarga o'rgatish metodikasi

Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalari uchun «Tayanch dastur», «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va Davlat ta'lim standartlari joriy etildi. Ushbu qonun va dasturlarning asosiy maqsadi yosh avlodni har tomonlama rivojlanishga ularni aqlan yetuk, jismonan baquvat, ma'naviy pok qilib tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat.

Ritmikaning asoschisi Shvetsariyalik olim musiqashunos kompozitor E.Jak-Dolkros shunday

degan edi: «Ritm harakatlar asosida yashamoq kerak». Musiqiy o'yin va mashg'ulotlar bolalarning uch yoshdan yetti yoshgacha tavsiya etiladi. Ritmik harakatlar bolalar bog'chasida boshlang'ich guruhlarda va musiqa maktablarida, uy sharoitida yanada chuqurroq o'rganilishi mumkin.

O'quvchilarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda musiqa madaniyati darolarida, musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat:

– o'quvchilarning musiqiy uquvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg'usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ohanglar bola xotirasida turg'un saqlanadi;

– raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;

– musiqiy asarlar o'quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg'otib, turlicha kayfiyatlar hosil etib, ularning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bolalar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Demak musiqaga mos harakatlar o'quvchilarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birgalikda irodasini ham rivojlantiradi.

Musiqiy asarlardan marsh, raqs va o'yinlar o'quvchilarga tez ta'sir etadi, shuning uchun ham quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o'yinlar har bir bolaning e'tiborini o'ziga tortadi.

Ritmika bolalarda musiqiy harakatlarni, estetik tarbiyani oshirishda katta ro'l o'ynaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar ilk yoshdan boshlab sakraydi, o'ynaydi, lekin bu bolaning ritmik harakatlandi, degani emas. Bu davrda bolalar musiqa ostida emotsional harakatlanadi, eshitish qobiliyati o'sadi. Musiqa ostida harakatlanib, tarbiyachilar bilan birgalikda kichik-kichik qo'shiqlar ham kuylanadi.

Harakat turlari uchga bo'linadi.

1. Asosiy harakatlar: yurish, yugurish, sakrash.
2. Gimnastik harakatlar: predmetlar bilan, ya'ni lenta, obruch, bayroqchalar va koptok bilan.
3. Raqs harakatlari: musiqa ostida ritmik harakatlar haqida nazariy bilimga ega bo'lish mumkin.

Maktabda va bog'chada o'tkaziladigan har bir ertalikni, turli tadbirlarni musiqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jumladan, musiqali ritmik harakatlarning ham o'z o'rnini bor. Bunda bola ritmni his qiladi, qomatlari chiroyli bo'lib, to'g'ri yurushni, musiqa ostida harakat qilishni o'rganib boradilar. Hozirgi milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, o'zbekchiligimiz o'z o'rnini topayotgan bir vaqtda bolalarga o'zbek milliy musiqasi, qo'shiqlari, ritm harakatlarini o'rganish juda muhimdir.

Chamanda gul (O'zbek xalq kuyi)

Katta guruh uchun

Tez sur'atda





Bu raqsda to‘rtta yoki oltita qiz ishtirok etadi. Asosiy harakat sakrama, qo‘llar yuqorida «Shamol» harakati bilan ikki qator bo‘lib, ikki tomondan chiqadilar.

1–4-taktlar:

1-harakat: ikki tomondan chiqishib, doira hosil qiladilar. Qizlar navbatma-navbat o‘tirib bir-birlarining atroflarida aylanadilar.

5–8-taktlar:

2-harakat: qizlar doira bo‘lib yurib, birinchi qatorga saflanadilar. Qizlar o‘z joylarida turib, 4 tomonga, pastga qarsak chalib, so‘ng qo‘llarini yuqoriga ko‘taradilar. Bu harakatlar o‘ng va chap tomonga bajariladi.

9–12- taktlar:

3-harakat: 1,3,5-qizlar qo‘llarini «chiroqcha» qilib, oldinga chiqa-dilar va yana o‘z joylariga qaytadilar. Bu harakatlar 2,4,6- qizlarda takrorlanadi.

1–4-taktlar:

4-harakat: qizlar 3 kishidan bo‘lib, qo‘l ushlab aylanadilar. Qizlar doira bo‘ylab yurib, bir qatorga saflanib, salom berib, chiqib ketadilar.

Do'loncha
(O'zbek xalq kuyi)
Katta va tayyorlov guruhlari uchun

O'rtacha tez



1- holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar belda, bosh o'ng va chap tomonga ikki martadan aylantiriladi.

2- holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar yelkada. Avval o'ng, so'ngra chap yelka oldinga va orqaga to'rt marta aylantiriladi.

3- holat: qo'l uchun.

4 marta «koptokni yuqoriga ot» harakati bajariladi.

4- holat: bel uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar belda, 1 deganda, oldinga egiladilar, 2 deganda, dastlabki holat, 3 deganda, orqaga egilib, 4 deganda, dastlabki holatga keladilar (4 marta).

5- holat: tizza uchun.

O'ng qo'l tirsagi chap oyoq tizzasiga, chap qo'l tirsagi, o'ng oyoq tizzasiga tekiziladi.

6- holat: oyoq uchun.

Qo'llar belda, oyoqlar juft holatda ikki marta sakrab, 3-4 hisobida o'ng va chap oyoq birin-ketin oldga va orqaga harakatlanadi.

7- holat: nafas uchun.

Qo'llar orqadan yuqoriga ko'tarilib, oldga tushuriladi va yengil nafas olinadi.

Qashqarcha

(O'zbek xalq kuyi)

Tayyorlov guruhi uchun

O'rtacha tez



1-holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar belda, bosh o'ng, chap, yuqori va pastga qaratiladi.

2-holat: yelka uchun:

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar pastda, yelkalar ikki marta o'ng, ikki marta chap tomonga aylantiriladi.

3-holat: qo'l uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar oldinda, yuqoriga, o'ngga birin-ketin harakatlantiriladi, song dastlabki holat.

4-holat: bel uchun.

Qo'llar belda, oyoqlar yelka kengligida, ong va chap tomonga ikki martadan egiladilar.

5-holat: tizza uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar tizzada, yarim egilish – o'ng va chap tomonga egiladilar.

6-holat: oyoq uchun.

Qo'llar belda, oyoqlarni navbat bilan oldinga, yonga, orqaga uzatib, dastlabki holatga keladilar.

7-holat: nafas uchun.

Qo'llar yarim egilgan holda, pastdan yuqoriga ko'tariladi.

Olmani otdim

(O'zbek xalq kuyi)

Tayyorlov guruhi uchun

O'rtacha tez





1-holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar belda, o'ng tomonga bir marta, chap tomonga bir marta boshlarini egadilar.

2-holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo'llar pastda, 2 marta o'ng yelka va chap yelka birin-ketin uchuriladi.

3-holat: qo'l uchun.

Oyoqlar juft holatda, qo'llar yuqoriga ikki martadan ong va chap tomonga «shamol» harakatini bajaradilar.

4-holat: bel uchun.

Oyoqlar juft holatda, qo'llar belda «prujina» mashqi bajariladi.


5-holat: oyoqlar juft holatda, qo'llar belda, oyoq uchida 4 marta sakraydilar.

6-nafas uchun.


Oldinga bir oz egilib, qo'llarni pastdan yuqoriga ko'tarib, tushiradilar.

«Asp bo'laman»

- | | | |
|--|----------------------------------|-------------------|
| 1. Davra bo'ylab yurib boira hosil qilish. | 2. Qo'llarni ikki yonga uzatish. | 3. Shox tashlash. |
|--|----------------------------------|-------------------|




4. Bir-birlarining atroflarida aylanish.



5. Yelka uchirish, davra bo'ylab yurish.




6. Salom.




«Tanovor»


1. Yarim doira bo'lib, davra markaziga va oldinga yurib kelish.




2. O'z joyida turib, o'ng va chap tomonga aylanish.



3. Ikki qatorga bo'linish.




4. Bir-birlari bilan o'rin almashish va o'z joyida aylanish.



5. Davra bo'ylab yurish va bir qatorda saflanib «bu yoqqa kel» harakatini bajarish.




6. O'z joyida aylanish va oldinga yurib kelish.



«Chamannoring»


1. To'rt tomondan juft bo'lib chiqish va ikki qatorga saflanish.



2. O'z joyida aylanish.




3. Bir-birlari bilan o'rin almashish.




4. O'z joyida to'rt tomonga aylanish.



5. Davra bo'ylab yurish.



6. Bir-birlarining atrofida aylanish.




«Bahor vals»


1. O'z joyida aylanish.



2. Qarama-qarshi tomonga yurib, ikki qatorga saflanish.




3. Doira hosil qilib yurish.



4. Davra markaziga chiqish.

5. O'z joyida aylanish.

6. Davra bo'ylab yurib, dastlabki holatga kelish.



Raqs harakatlari sxemasidan namunalari

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ritmika deb nimaga aytiladi?
2. Bolalar bog'chasida ritmik harakatlarni o'rgatishda uning qanday metodlari bor?

Bolalar bog'chasida musiqa mashg'ulotining ish rejasi *(keyingi betga qaralsin)*

Bolalar bog'chasida musiqa mashg'ulotining ish rejasi

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish maqsadida MTM da mashg'ulotlar maxsus reja asosida o'tkaziladi.

Bolalar bog'chasida eshitishga, kattalarning ishlarini kuzatishga ularning so'zlari va harakatlariga taqlid qilishda, bergan topshiriqlarini bajarishga o'rgatib boriladi. Bolalar bog'chasida haftada 2 marotaba musiqi mashg'uloti va 1 marotaba ko'ngil ochar o'yinlar o'tkaziladi.

	Kirish	Tinglash	Ashula	Musiqas asbobida chalish	Musiqas ostida harakat	Qiziqarli oyin	Hisobot
O'rtas guruh	<p>1. Birin ketin yurush. Usulda kirish mumkin.</p> <p>a) musiqasiz kirish.</p> <p>b) musiqas jurligi ostida kirish.</p> <p>1. Yugurish. Yengil oyoq uchida yugurish. Sho'x musiqas ohangida. Musiqas ostida harakat: koptokni irg'itish oyoq uchida qo'llar harakatida doira hosil qilish. Kichik katta.</p>	<p>Bolalar ko'p harakat qilganligi sababli ularning charchog'ini mayin sokin musiqas orqali chiqaramiz. Ularni zerikib qolmasligi uchun sho'x musiqas qo'yib beriladi.</p>	<p>Ashulani mustahkamlash uchun zanjir tarzida ketma-ket aytiladi. Yangi ashulani qism-larga bo'lib o'rgatamiz</p> <p>Ashulaning so'zlarini yodlatamiz. Musiqani o'rgatib ularni tanishtiramiz va mustahkamlab boriladi.</p>	<p>Ashula musiqas asbob-larida chalish bilan birga olib boriladi. Dutor rubob doira akkordion shiqildoqlar chalib o'rgatib tanishtiramiz. Ansambli tuzishimiz mumkin. Bolalar bu asbob-larni ohangiga qarab biror bir uslubda chaldilar.</p>	<p>Biz bolalarga yakka bo'lib bilan bo'lib raqs tushishni o'rgatib borishimiz kerak bo'ladi. Turli millat raqslari bilan xam tanishtirib o'rgatib boriladi. Har bir elementga so'zlar orqali jalb qilishimiz mumkin.</p>	<p>Agar ilgari bo'lim-larda ko'p harakat qilingan bo'lsa, bolalar bilan qiziqarli o'yinlar o'ynashimiz mumkin. masalan: oq terakmi ko'k terak. Kim oladiyoshug'aniyo. Quyonim quyonim. Agar ko'p harakat bilan bolalar charchashgan bo'lsa unda tincho'yinlar o'ynatiladi. Qiziqarli xaltacha Barcha didaktik o'yinlarda bolalarni idrok etishga, sezishga, oqoh bo'lishga o'rgatiladi.</p>	<p>Guruh bolalari bilan musiqas mashg'ulotini o'tkazilishi yaxshi natijalarga erishildi. Ayrim bolalargina passiv qatnashdi. Ulardan bitta guruhcha tuzub ular bilan guruh-larda alohida shug'ullaniladi. Berilgan bilimlar mustahkamlanadi. Mashg'ulotlarda mashg'ulotlarda yaxshi va faol qatnashish maqsad qilib olinadi.</p>

– musiqani tinglay bilish, rivojlantirish, unga nisbatan qiziqishni o‘stirish;

– musiqiy tovushlarning qarama-qarshi xususiyatlarini ajrata olish baland va past registrlar;

– qo‘shiqni xirgoyi qilish va qo‘shiq kuylashga qiziqishni uyg‘otish;

– mazmunli o‘yinlar va mashqlar va raqslarda musiqa bilan harakatni bir-biriga moslab bog‘lay bilishni rivojlantirish;

– sodda harakatlarni hamkorlikda bajarishga o‘rgatish.

MTM da musiqiy tarbiya yuzasidan maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish rejalashtiriladi. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarning musiqiy qobiliyatlari rivojlanishida katta rol o‘ynaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqa mashg‘ulotlarining ish rejasini tartib bilan ko‘rsatib bering ?

2. Musiqa mashg‘ulotining ish rejasi bolalar hayotida qanday roli bor?

3. Bolalar ijodida musiqa faoliyatining vazifasi qanday?

Ashula aytganda nafas olish va nafas chiqarish usullari

Ma‘lumki, inson nafas olish a‘zosi – o‘pka orqali nafas oladi, ovoz hosil qiluvchi a‘zolar yordamida ovoz chiqaradi, artikulyatsiya apparati orqali gapiradi va kuylaydi. Demak, qo‘shiq ijrochiligining asosini nafas tashkil qiladi. Shuning uchun to‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarish usullari tovushlarni hosil qilish texnikasining eng muhim elementlaridan hisoblanadi. U ovoz shakllanishi jarayonida asosiy vazifani o‘taydi.

Kuylayotgandagi nafas olish oddiy nafas olishdan farq qiladi. Kuylayotganda nafas tez olinib, sekin chiqariladi.

Nafas olish uch turga bo'linadi:

- Yuqori ko'krak (kift) dan nafas ko'krakning yuqori qismiga olinib, kiftlar ko'tariladi. Nafasning bu turi zararlidir. Ashula aytayotganda bu nafas qo'llanilmaydi.

- Ko'krak – qorin (o'rta qovurg'a, biqin).

- Aralash (pastki qovurg'a-diafragma).

Nafas og'iz va burundan bir vaqtda olinadi. Qo'shiq kuylashda o'quvchilarga nafas olishni o'rganish vaqtida qo'llarini biqiniga qo'ygan holda nafas olishni kuzatish uchun qo'llarni qovurg'alar bo'ylab pastga, yon tomonga yuruta berish va bunda qorin bo'shliqlarining oldinroqqa chiqishni hamda qovurg'alarni yon tomonlarga kengayishini kuzatish yaxshi natija beradi. Ularga nafas olishni dirijyorlik qo'l ishorasi bilan olib, bir tekisda, shoshmasdan chiqarishni o'rgatish kerak.

Tovush hosil qilish yengil va erkin nafas olib, apparatni erkin ishlatish yo'li bilan tiniq va jarangdor ovoz hosil qilish demakdir. Bunda bog'cha yoshidagi bolalar ovozining zaifligi va tez toliqishini hisobga olish shart. Ularda xonandalik malakalari hali yetarli darajada shakllanmaganligi sababli, ko'proq nutq postanovkasida kuylaydilar. Shuning uchun bolalar kuychan ovozda kuylashni yaxshi bilmaydilar. Ohangdor, cho'zib, kuychan ovoz bilan kuylash uzoq mashq jarayonida shakllanib boradi. Kuychan ovoz bilan kuylash yuqori guruh bolalarida bir muncha yaxshi shakllanadi.

Nafas olish. Ashula aytishda tog'ri nafas olishning ahamiyati katta. Nafas qancha yengil olinib, bir tekisda ishlatilsa, ovoz ham shuncha erkin va tiniq, jarangdor chiqadi. Ammo nafas olish ustida bolalar bilan

maxsus shug'ullanish tavsiya etilmaydi. U bilan ko'proq ertalabki gimnastika paytida shug'ullanish mumkin. Bog'cha yoshidagi bolalarning nafasi yengil, yuzaki va qisqa bo'ladi. Shuning uchun ular ovozni kuychan cho'zib kuylashda qiynaladilar va ko'pincha so'zni bo'lib, uning o'rtasida nafas oladilar. Bog'cha bolalarining «ashulachilik» nafasi asosan ashula aytish jarayonida mustahkamlanadi. Buning uchun tarbiyachi bolalarning ashula aytish paytidagi nafas olishlarini quyidagicha nazorat qilib borishi kerak: nafasni ashula aytish oldidan va qo'shiq jumlarining oxirida hamda uning bo'laklari orasida olishga undash; so'zni bo'lib, uning orasida nafas olmaslikni; olingan nafasni jumlaning oxirigacha bir maromda yetkazishni; ashula aytganda me'yordan ortiq nafas olmaslikni; yelkani ko'tarmasdan yengil, shovqinsiz, tiniq nafas olishni va hokazolar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:


1. Ashula aytishda qanday nafas olinadi va nafas chiqariladi?
2. Nafas olish va nafas chiqarishning inson organizimidagi o'rni va ahamiyati qanday?

Bolalar bog'chasida musiqiy ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachining o'rni

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni ma'naviy madaniyatli etib tarbiyalashda, ta'lim maskanlarida o'tkaziladigan musiqa mashg'ulotlari va bayram ertaliklarining go'zallik qonuniyatlari asosida barkamol shaxsni shakllantirish vazifalarini amalga oshirish uchun musiqa tarbiyachining o'rni beqiyosdir. MTM da har bir

tarbiyachi musiqaviy qobiliyatga ega bo'lishi va tarbiyachilik vazifasini bajarishda o'z o'rnini topa olish kerak. Tarbiyachi o'z ishiga ijodiy yondashib, har bir mashg'ulotda, bayram ertaliklarida va yurtimizning buyuk siymolari bilan tanishtirish mashg'ulotlarini ishlab chiqishlari mumkin. Tarbiyachi bolalarga faqat bilim beribgina qolmasdan, balki ularni yangi ajoyib dunyo – musiqa olamiga olib kiradi, san'atga qiziqtiradi, uni sevishga o'rgatadi. Yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiya jarayoni bolalarni barkamol inson bo'lib ulg'ayishlariga ko'maklashadi.

Tarbiyachining o'ziga talabchanligi o'zining har bir xatti-harakatini nazorat qilib bora olishi davlatimiz MTM lari oldiga quyidagi talablarni qo'yadi.



MTM da olib boriladigan barcha tarbiyaviy ishlar oliyjanob fazilatlarni yosh avlodda bog'cha yoshidan boshlab shakllantirishga qaratilgan.

Bolalar bog'chalarida amalga oshiralayotgan tarbiyaning muhim qismi estetik tarbiyadir. Musiqaviy tarbiya esa estetik tarbiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga mos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularning ruhiy dunyosini boyitadi. Bog'cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Ashula aytish, turli janrdagi musiqa asarlari, xususan, sujetli cholg'u pyesalarini tinglash, musiqaviy o'yinlar bilan shug'illanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan bog'lanadi. Bolaning badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan ham unumli foydalaniladi. Ayniqsa, ayrim sujetli musiqa asarlarini tinglashdan yoki kuylanadigan qo'shiq mazmunidan bolalar ongida hosil bo'ladigan tasavvurlarni yanada boyitish va konkretlashtirish maqsadida asar sujetiga xos badiiy suratlardan foydalanilsa ham yaxshi natija beradi. Turli metodlardan foydalanib o'tkazilgan har bir musiqa mashg'uloti kichkintoylarda badiiy, estetik zavq uyg'otadi. Ularning his-tuyg'ularini rivojlantira-di. Ijodiy fikri va nutqini o'stiradi. Bundan tashqari, musiqaviy o'yin va postanovkalar, raqslar bolalarda ritm tuyg'usi, chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning tog'ri o'sishiga yordam beradi.

Bog'chada amalga oshiriladigan konkret mashg'ulotlar, masalan, hisob mashg'ulotlari jarayonida bolalarning ko'proq abstrakt fikrlash qobiliyati va mantiqiy xotira kuchi o'sib borsa, san'at mashg'ulotlari jarayonida esa ularning obrazli fikrlashi va obrazli xotirasi yaxshi rivojlanadi. Bu har ikkala psixologik xususiyatning parallel rivojlanishi bolaning aqliy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. MTM da ta'lim-tarbiya berishda tarbiyaning musiqiy faoliyati qanday?
2. Tarbiyaviy musiqa qo'llanganda ko'proq qaysi tarbiyaga e'tibor berish kerak?

Oilada va MTM dagi bolalarning qo'shiq aytish uslubiyati

Ashula aytish musiqa mashg'ulotlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Ashula aytish musiqa bilan shug'ullanishda o'zining yengil va oson amalga oshirilishi tufayli bolalar diqqatini tez jalb qiladi. Eng muhimi shundaki, bola o'rtoqlari bilan birga ashula aytganda, o'z shaxsiy ijrosini nazorat qilib boradi, yon-veridagi bolalar bilan o'zining ovozini solishtirib ko'radi. Bu esa, birinchidan, bolada musiqaviy qobiliyatlarning har tomonlama rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi, ikkinchidan, bolada o'z-o'zidan ijodiy intilish kuchayadi, uchinchidan, ashula aytish jarayonida bolaning fikri, nutqi, idroki o'sadi, ovoz va nafas apparatlari yaxshi rivojlanadi.

Bolalar hayotida musiqa katta ahamiyatga ega. Chunki musiqa bolalar ongida katta taassurot qoldiradi. Musiqa bolalarda estetik tarbiyani rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, shunga ko'ra, bola ongidagi ezgu fazilatlarni rivojlanishida musiqiy tarbiyaning o'рни alohida.

Oilada va MTM da bolalarni qo'shiq aytishdagi vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarni sof tovushda kuylashga o'rgatish hamda aniq, ravon kuylashni talab etish.

2. Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqaviy qobiliyatni va so'z boyligini orttirish.

3. Tarbiyachi yordamida bolalar qo'shiqni kuylashi hamda yakka holda, musiqa asboblarisiz ham kuylashga o'ragatish.

Test

1. MTM larda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar qayerdan boshlanadi?

- a) Uydan.
- b) Bog'chadan.
- c) Maktabdan.

2. Musiqaviy tovushlar va ularning xususiyati.

- a) Musiqali va shovqinli.
- b) Shovqinli, musiqali, tovushli.
- c) Tovushli, musiqali, shovqinli.

3. Registrllar necha turdan iborat?

- a) Yo'g'on, orta, ingichka.
- b) Pastki, o'rta, ingichka.
- c) Pastki, o'rta, yuqori.

4. Nota chizig'li nechta chiziqdan iborat?

- a) 7 ta.

- b) 5 ta.
- c) 6 ta.
- 5.** Qanday intervallar bor?
 - a) Garmonik va melodik.
 - b) Prima, sekunda.
 - c) Kvarta, kvinta.
- 6.** Nechta tovushlar oralig'iga akkord deyiladi.
 - a) 6 ta.
 - b) 8 ta.
 - c) 7 ta.
- 7.** Musiqa savodining ahamiyati.
 - a) Nutqi.
 - b) Qobiliyati.
 - c) Talaffuz.
- 8.** Musiqaning ulkan manbayi nima?
 - a) Tafakkur.
 - b) Iroda.
 - c) Xotira.
- 9.** O'zbekiston Respublikasi madhiyasining musiqasini va so'zini kimlar yozgan?
 - a) Sh.Yormatov va A.Oripov.
 - b) M.Burhonov va A.Oripov.
 - c) P.Mo'min va A.Oripov.
- 10.** Musiqa mashg'ulotining asosiy elementi.
 - a) Raqs.
 - b) Tinglash.
 - c) Ashula.
- 11.** 6 va 7 yoshli bolalar ovoz diapazoni oralig'i.
 - a) Re-si.
 - b) Re-do-re ikkinchi oktava.
 - c) Mi-re ikkinchi oktava.

- 12.** Diksiyaning aniqligi nimada?
- a) Nutqda.
 - b) Talaffuzda.
 - c) Tovushda.
- 13.** Musiqa madaniyatining elementi.
- a) Ashula aytib, tafakkur qilish.
 - b) Raqsga tushub, idrok etish.
 - c) Musiqa tinglab, idrok qilish.
- 14.** Musiqa ish rejasida musiqa tinglash bo'limi nechanchi o'rinda turadi?
- a) 5.
 - b) 2.
 - c) 6.
- 15.** Ilk bor musiqa tinglashda tarbiyalovchining roli.
- a) Qisqa va qiziqarli tushuntirish.
 - b) Musiqa tinglatish va qisqa tushuntirish.
 - c) Tushuntirish va musiqa tinglash.
- 16.** Musiqa tinglash M.T.M. larda qaysi guruhlardan boshlanadi.
- a) Katta, kichik, o'rta.
 - b) O'rta, tayyor, kichik, katta.
 - c) Kichik, katta, o'rta, tayyor.
- 17.** Interval oralig'i nechta tondan iborat?
- a) 7 t.
 - b) 6 t.
 - c) 8 t.
- 18.** Rubob musiqa asbobida nechta tor bor?
- a) 5.
 - b) 7.
 - c) 3.
- 19.** Musiqani kim chaladi?
- a) Xonanda.

- b) Sozanda.
 - c) Raqqosa.
- 20.** Musiqa mashg'ulotini o'tkazishda asosiy musiqa asbobi qaysi?
- a) Rubob.
 - b) Dutor.
 - c) Fortepiano.
- 21.** MTM larda o'tkaziladigan musiqa mashg'ulotini haftada necha marta o'tkazadi?
- a) 3.
 - b) 5.
 - c) 2.
- 22.** Dutor musiqa asbobi nechta tordan iborat?
- a) 7.
 - b) 3.
 - c) 2.

Musiqa mashg'ulotining shakllanish turlari

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida musiqiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etib, muntazam ravishda olib boriladigan tarbiya jarayonining bir qismini tashkil etadi. Mazkur qo'llanma maktabgacha ta'lim musassalarida musiqiy tarbiyani amalga oshirish dasturida belgilangan ertalik va bayramlarni nishonlashga qaratilgan tadbir va bayramlarni tashkil qilish jarayoniga qaratilgan.

Musiqa, ayniqsa, milliy musiqa, bola tarbiyasiga benihoya katta ta'sir ko'rsatib, ularda yuqori darajadagi badiiy, estetik zavq va didni shakllantiradi, go'zallikni musiqa orqali idrok etishda yetakchi rol o'ynaydi. Bolalar

bog'chasida musiqiy tarbiya quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

- musiqa tinglash;
- vokal ijrochilik;
- milliy musiqa asboblari bilan tanishtirish;
- bastakor hayoti va ijodi bilan tanishtirish;
- musiqa turlari bilan tanishtirish;
- ritmik harakat va raqs asoslari bilan tanishtirish;
- bolalarda ijobiy qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish;
- musiqa vositalari orqali bolalar tarbiyasini tobora shakllantirish;

Musiqa rahbarlari ushbu vazifalarni amalga oshirar ekanlar, o'z ish tajribalarida turli faoliyat shakllaridan keng foydalanadilar;

- Musiqa mashg'ulotlari (vazifa va maqsadiga qarab, turli mavzu va yo'nalishda bo'ladi);
- bayram ertaliklari;
- ko'ngil ochar musiqiy o'yinlar;
- nafosat soatlari;
- badiiy va adabiy musiqiy kompozitsiyalar;
- musiqiy teatr drammatizatsiyalari;
- yakka hol ish turlari;
- to'g'arak ishlari;

Bayram ertaliklariga tayyorgarlik ko'rilar ekan, avvalambor bu hammaning bayrami ekanligi, bolalar xotirasuda unutilmas iz qoldirilishi, ularga zavq, xursandchilik olib kelishini nazarda tutish zarur. Bu jarayonda barcha teng qatnashishi lozim. Masalan, pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli.

Maktabgacha ta'lim muassasasida tashkil qilingan bayram ertaliklari umumxalq bayramlarining bir parchasi bo'lmog'i zarur.

Bolalar bog'chasida musiqa va o'yinlar

Bolaning aqliy, estetik va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yin va musiqa bilan harakat katta ahamiyatga ega. Musiqa faoliyatining bu turlari bolaning har tomonlama o'sishiga katta yordam beradi. **Birinchidan**, uning musiqa uquvi, ayniqsa, ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi yaxshi rivojlanadi, chunki har qanday harakat turi musiqa ritmi va taktlari ostida bajariladi hamda harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqa ohanglari bola xotirasida turg'un saqlanadi. **Ikkinchidan**, yuqorida aytganimizdek, raqs va musiqali harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, badanni chiniqtiradi, qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi. **Uchinchidan**, musiqa asarlari bolada turlicha emotsional hislar uyg'otadi. Turlicha kayfiyatlar hosil qilib, uning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bular bolaga harakat sxemalarini badiiy ishoralar bilan ifodalashga yordam beradi. Demak, musiqa bilan harakat bolaning aqliy va estetik qobiliyatini hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, marsh musiqalari bolaga g'ayrat va tetiklik bag'ishlaydi. Marsh musiqalarisiz bayram ertaliklari, hatto bog'chaning oddiy bir kunlik hayotini ham tassavur qilish qiyin. Raqs kuylari esa bolada ajoyib ichki his-tuyg'ular, kechinmalar hosil etib, beixtiyor raqsga tushishga undaydi va uni behad zavqlantiradi. Musiqa mashg'ulotlarida bajariladigan harakatlarni, ya'ni asosan ikki turga bo'lish mumkin.

1) raqs va xorovodlar. **Musiqali o'yinlar:** o'yin bog'cha yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatining eng faol shaklidir. O'yinlarga mo'ljallangan musiqa asarlarining badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalari o'yinning sujetiga mos tushishi shart. O'yinning sujeti esa bog'cha hayotidan olingan bo'lishi lozim. Unda bolaning ijtimoiy hayot va tabiat bilan munosabati o'z aksini topishi kerak. Ayniqsa xalq bolalar o'yinlari katta ahamiyatga ega.

Bog'chadagi musiqali tarbiya metodikasida musiqali o'yinning asosan ikki turi tavsiya etiladi: 1) cholg'u musiqa sadolari ostida o'ynash;

2) ashula aytib o'ynash.

O'z navbatida cholg'u musiqali o'yin sujetli va sujetsiz o'yinlarga bo'linadi. Sujetli oy'inda aniq voqea tasvir etilib, sujetsiz o'yinda esa turli harakat namunalari vositasida musiqa asarining xarakteri va badiiy shakli tasvir etiladi.

Ashula aytib o'ynash ko'proq xorovodlar va inssenirovkalar bilan bog'liq. Ular o'yinning mazmuniga qarab tuziladi. Ba'zi o'yinlarda bir bola o'yin boshlab, boshqalari unga ergashsa, boshqasida esa, guruh ikkiga bo'linishi yoki juft bo'lib o'yinga tushilishi mumkin. O'yinni davra tuzib, ikki guruhga bo'linib, ijro etish kabi turli shakllarda o'tkazish tavsiya qilinadi.

Musiqa madaniyati darslarida bajariladigan o'yinlar asosan ikki turga bo'linadi:

1. Qo'shiqning mazmuniga mos musiqali ritmik o'yinlar.

2. Raqslar.

Shunday qilib, musiqiy o'yinlar o'z maqsad va vazifalariga ko'ra, didaktik o'yinlarga mansub bo'lib,

asosan ritmik harakat vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi.

Musiqqa ostida jismoniy tarbiyaning ahamiyati

Jismoniy tarbiya – sog‘lom avlod, sog‘lom oila, sog‘lom jamiyat uchun bolalikdan qilinadigan amaliy harakatdir. Jismoniy musiqiy harakat, o‘yinlar, sport bilan shug‘ullanish iroda, chidam, intizom tuyg‘ularini shakllantiradi. Bola o‘z kuch-quvati, sog‘lomligi, qaddi-qomatining ixchamligi, nafas harakatlarning tog‘riligini sezib turadi va bu bilan faxrlanadi. Bu sifatlar sezilmagan holda didni tarbiyalay boradi, bolani go‘zallik dunyosiga yetaklaydi. Sportchining har tomonlama uyg‘un rivojlangan qaddi-qomati haqiqatdan ham go‘zaldir.

Jismoniy tarbiya aslida musiqqa tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Bolalarning jismoniy rivojlanishi va takomillashuvining vositalaridan biri hisoblanadi. O‘z imkoni darajasidagi huzur bag‘ishlovchi musiqqa bolada insoniy qadriyatlar tushunchasini o‘stiradi. Masalan, ota-onasi yonida ish o‘rganib, ularga yordam berayotgan bolakay va qizaloqning o‘z harakatidan nechog‘lik mamnun bo‘layotganiga e‘tibor berganmisiz? Ha, huzurbaxsh musiqqa bolaga insoniy olamni tushuntira boradi. Bunday musiqani og‘ir, toliqtiruvchi, nafrat uyg‘otuvchi musiqadan farqlash lozim.

Jamiyatimiz bolalarining sog‘lom, baquvvat, mehnatsevar yoki nimjon, chidamsiz, og‘irroq ishga yaramaydigan bo‘lib o‘sishlariga befarq bo‘la olmaydi. Mana shuning uchun ham bolalar tarbiyasi faqat ota-onalarning shaxsiy ishi, vazifasi emas, balki avvalo, bu

ularning jamiyat oldidagi burchidir. Ota-onalar bolalarning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishlari uchun javobgardirlar. Ular bolalarga harakat – uzoq yashash, jismoniy tarbiya va sport, musiqa esa sogʻlik, chiniqish manbayi ekanligini bola ongiga singdirishlari kerak.

Ilmiy mashqlar:

Tongi badan tarbiyani oʻtkazish vaqtida bolalarda harakatlanuvchi malakalar mustahkamlanadi, yaxshilanadi va tiklanadi.

Yugurish, sakrash, gimnastik harakatlar oddiy va tezlik bilan bajariladi. Tongi badan tarbiya mashgʻulotlarida shunday mashqlar bajariladi. (Unda qoʻllarimizni tepaga koʻtargan holda, tepaga, yonga, toʻgʻriga bukiladi). Shunday mashqlar borki, bu mashqlarni oldindan oʻrganib olish kerak (toʻliq oʻtirish, sakrash, buyum bilan, bayroqchalar, choʻp bilan mashq) bunday mashgʻulotlarni kundalik rejaga kiritish shart.

Tarbiyaviy mashqlar:

Tongi badan tarbiya yordamida biz bolalarni tartibli boʻlishga chaqiramiz. Ularda ijobiy koʻnikmalar hosil boʻladi. Tongi badan tarbiya xotirani mustahkamlaydi. Diqqat bilan tinglash, tekshirish va yakka holda mashqlarni bajarish, tongi badan tarbiya estetik tarbiyani ham mustahkamlaydi.

«Oʻrmonga sayohat»

Maqsad: Bolalarni musiqa ostida yurish, yugurish, oyoqlar yonida, tovonda yurishni davom ettirish, musiqaga moslab tez, sekin yurishni mashq qildirish.

Gavda, qoʻl, oyoq va umumgavda muskullarini rivojlantirish. Muvozanat saqlab yurishni oʻrgatishda

davom etish, balandlikdan sakrashni, emaklashni, uzunlikka sakrashni mustahkamlash, baland-past to'nkachalarga chiqb-tushishni o'rgatish.

Jismoniy sifatlar chaqqonlik, tezkorlik, egiluvchanlik kabilarni shakllantirish.

O'n orqai musiqa ritmlari harakatlarni tushunish orqali bolalarda sezgirlik, hozirjavoblik va ziyraklik sifatlarni rivojlantirish.

Bolalarni tabiat haqidagi tushunchalarini mustahkamlash.

Kerakli jihozlar:

Gimnastika skameykasi, baland-past to'nkachalar, 20 sm balandlikdagi to'siq, yarim doira halqalar, gimnastik halqalar, «ayiq», «quyon», «bo'g'irsoq» atributlari, daraxt atributlari albatta magnitafon va musiqa asboblari.

Mashg'ulotning borishi:

Kirish qismi:

Tarbiyachi: Bolalar hozir qanday fasl?

Bolalar: Bahor fasli.

Tarbiyachi: Bahorda ob-havo qanday bo'ladi?

Bolalar: Bahorda ob-havo o'zgaruvchan bo'ladi, tez-tez yomg'ir yog'adi, shamol esib turadi.

Tarbiyachi: Bolalar, daraxtlarda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Bolalar: Daraxt novdalaridagi kurtaklar bo'rtib, o'rik va bodom daraxtlari birinchi bo'lib gullaydi.

Tarbiyachi: Hozir sizlar bilan bahor kelganligi munosabati bilan o'rmonga sayohat qilamiz. Qo'shiq aytib yayraymiz.

Tarbiyachi:

Yuring sayrga bolalar,
Chiqaylik-chi otlanib.
Qatorlashib hammamiz
Xo'sh, nimada boramiz?

Bolalar: Piyoda.

Tarbiyachi: Ketdik bolalar.

Bolalar zalga kirib keladilar.

Tarbiyachi: Bolalar bugun sizlar bilan birgalikda qiziqarli sayohat uyushtiramiz.

Eng yaxshisi dunyoda,
Sayr qilmoq poezdda.
Qatorlashib, shodlanib,
Xo'sh, nimada boramiz?

Bolalar: Poezdda.

Tarbiyachi: Bolalar men parovoz bo'laman, sizlar vagonchalar bo'lasizlar. Bolalar ketma-ket turib oladilar. Oldinma-ketin turgan bolalar bir-birlarining tirsaklarini ushlab oladilar. Ketdik «Puup-puup-puup». Poezdimiz sekin qo'zg'alib, so'ng tezlashadi, keyin sekinlashib to'xtaydi.

Bolalar poezd bo'lib, zalni aylanib chiqadilar.

Tarbiyachi: Bolalar, mana ko'm-ko'k maysazorga yetib keldik. Vagonchalardan tushib maysazor bo'ylab yuguramiz, oyoq uchida yuramiz, tovonda yuramiz, oyoq yonida yuramiz.

Bolalar, endi maysazorda gimnastik mashqlarni bajarib olamiz.

1-harakat.

Dastlabki holat: gavdamiz to'g'ri holatda, oyoqlar yelka kengligida ochiq, qo'llar yonda.

- 1-qo'llar oldinga uzatiladi.
 - 2-tepaga ko'tariladi.
 - 3-yonga uzatiladi.
 - 4-pastga tushiriladi.
- Harakat 4-5 marta takrorlanadi.

2-harakat.

Dastlabki holat: Gavdamiz to'g'ri holatda, oyoqlar yelka kengligida ochiq, qo'llar belda.

- 1-o'ng tomonga engashamiz.
- 2-dastlabki holat.
- 3-chap tomonga engashamiz.
- 4-dastlabki holat.

3-harakat.

Dastlabki holat: Gavda to'g'ri holatda, oyoqlar yelka kengligida ochiq, qo'llar belda.

- 1-qo'llarni oldinga cho'zib o'tiramiz.
 - 2-turamiz, dastlabki holat.
- Harakat 5 marta takrorlanadi.

4-harakat.

Dastlabki holat: Polga qorin bilan yotiladi, ikki qo'l bilan dahanimizni ushlab, boshni o'ngga, chapga buramiz. Oyoqlarimizni orqaga bukib, ketma-ket harakatga keltiramiz.

Harakat 5 marta takrorlanadi.

Tarbiyachi: Barakalla bolalar, endi hammamiz yana yo'limizda davom etamiz.

Bolalar zal bo'ylab yurib ketadilar.

Tarbiyachi: Bolalar yo'limizda tor va uzun ko'prikka duch kelib qoldik. Kelinglar, ko'prikdan muvozanat saqlab o'tib olamiz. Mana ko'prikdan ham o'tib oldik. Yana yo'limizda davom etamiz. Bolalar yana to'siqqa duch kelib qoldik. Bu to'siqdan ehtiyotkorlik bilan

oyoqlarimizni juftlab turib sakrab o'tib olamiz. Barakalla bolalar.

Tarbiyachi: Mana, bolalar, biz o'rmonga ham yetib keldik.

O'rmonda qanday hayvonlar yashaydi?

Bolalar: (javob beradilar).

Tarbiyachi: Bolalar, to'g'ri aytdingiz, o'rmonda tulki, quyon, ayiq polvon ham yashaydi.

Bolalar, kelinglar hozir biz o'rmon hayvonlariga bo'linib olamiz. Kim qaysi o'rmon hayvoni bo'lishni istaydi?

Bolalar tulki, quyon, ayiq polvon bo'lib, atributlarini kiyib oladilar.

Tarbiyachi: Hamma o'z hayvoni raqsini bajarib berish va o'rmon hayvonlari, bugun sizlar yarim doira halqa tagidan emaklab o'tishni, qator qo'yilgan halqalar o'rtasiga sakrashni bajarasizlar hamda mana bu to'nkalar ustiga chiqib tushishni o'rganasizlar.

Tarbiyachi o'zi ko'rsatib berib, tushuntiradi.

Tarbiyachi: Bolalar, endi uch qatorga bo'linib olamiz.

1-qator – «Ayiq polvon»lar, yarim doira halqa tagidan emaklab o'tasizlar.

2-qator – «Quyuncha»lar, qator qo'yilgan halqalar o'rtasiga ikki oyoqlab sakrash mashqini bajarasizlar.

3-qator – «Tulki»lar, sizlar mana bu baland-past to'nkachalarga ketma-ket chiqib, tushishni o'rganasizlar.

Bolalar harakatlarni bajarib bo'lganlaridan so'ng, o'rinlarini almashadilar.

Tarbiyachi: Bolalar, bahorda ob-havo o'zgaruvchan bo'lishini bilib olgansizlar. Quyosh chiqib turganda birdan bulut chiqib, yomg'ir yog'ib yuboradi. Hozir osmonda bulutlar paydo bo'lib qoldi. «Yomg'ir» desam, tez

daraxtlar panasiga berkinasizlar. «Quyosh» desam, daraxtlar panasidan chiqib o‘ynab yurasizlar.

Tarbiyachi: Bolalar, «yomg‘ir», bolalar daraxt orqasiga berkinadilar.

«Quyosh» bolalar yashiringan joylaridan chiqib o‘ynab yuradilar.

Tarbiyachi: Bolalar qo‘limdagi qaysi ertak qahramoni, taniyapsizlarmi?

Bolalar: (javob beradilar).

Tarbiyachi: Bolalar, hozir sizlar bilan «Bo‘g‘irsoq» o‘yinini o‘ynaymiz.

Musiqa sadosi ostida «Bo‘g‘irsoq»ni qo‘lma-qo‘l qilib bir-birimizga uzatamiz. Musiqa to‘xtaganda «bo‘g‘irsoq» kimni qo‘lida qolsa shu bola she‘r yoki qo‘shiq aytib, o‘ynab beradi.

O‘yin 4-5 marta takrorlanadi.

Tarbiyachi: Bolalar, o‘rmonga sayohat qilib, maza qilib o‘ynadik. Endi yana poezdimizga chiqib, uyimizga qaytamiz. Ketdik, bolalar, «Puup-Puup-Puup».

Bolalar ketma-ket yurib, zaldan chiqib ketadilar.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mashg‘ulotning shakllanishi turlari qanday?
2. Bolalar bog‘chasida qanday musiqaviy o‘yin turlaridan foydalaniladi?
3. Musiqa ostida o‘tiladigan jismoniy tarbiyaning qanday turlarini bilasiz?

An’anaviy qo‘shiq ijrochiligi

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, hamma sohalarida rivojlanish sari yangi va salmoqli ishlar

amalga oshirila boshlandi.

Musiqa merosimizning uzoq o'tmishini yanada chuqurroq o'rganish sohasida samarali ishlar qilinadi.

Musiqa san'atimiz tarixini, uning buyuk namoyandalari tarixini har tomonlama o'rganish va xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning «qullik va mute'lik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklash, ularga munosib voris bo'lishdan sharafliroq vazifa yo'q bu dunyoda», degan so'zlariga asoslanib, musiqiy tariximiz, uning ustazoda ijrochi hofizlari va ular qoldirib ketgan o'lmas merosni tiklab, uni rivojlantirish, davom ettirish vaqti keldi.

Musiqiy merosimizni notaga yozib olish mumkin bo'lgani kabi, uning serjilo, jonli ijrosini magnit tasmlariga yozib olish va kelgusi avlodlar uchun asrab-avaylash, saqlash biz uchun katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston radiosi fonotekasining oltin fondidan mustahkam o'rin olgan o'zbek mumtoz ashulalari, bastakorlar ijrosidagi ashulalar magnit tasmasiga abadiy muhrlangan.

Ularni ijro etgan turli avlodga mansub hofizlarning nomlarini aytib o'tishni topdik: Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Otajon Xudoyshukurov kabilar. Ana shu ustoz hofizlar ijro etgan musiqiy yozuvlardan yosh ashulachi talabalar o'quv jarayonida unumli foydalanishlari mumkin.

**O‘zbek bastakorlik san’ati.
Yunus Rajabiyning hayoti va ijodi
(1897–1976)**

O‘zbek xalq musiqiy merosini milliy qadriyatlarimizning bir bo‘lagi sifatida o‘rganish hozirgi davrda dolzarb masalardan biridir. O‘zbek musiqiy merosimizga nazar tashlar ekanmiz, o‘tmishdan xalq ichidan yetishib chiqqan va o‘zlarining ijro mahoratlari, murabbiylklari bilan xalq dilidan joy olgan san’atkorlarimiz ko‘z o‘ngimizda gavdalanadilar. Ular ichida musiqa san’atimizning birinchi akademigi Yunus Rajabiyning alohida o‘rinlari bor. U kishi yashagan davr ijodining takrorlanmas qirralari mavjudki, ularning merosini o‘rganish kelgusida yaratilajak cholg‘uchilik mahoratini rivojlantirishda ijobiy bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

Yunus Rajabiy sozandalik, xonandalik va bastakorlik san’atini bunyodkorlaridan bo‘lib, ma’rifiy va ta’limiy faoliyat bobida mashhurdir. Milliy mumtoz musiqa san’atining yirik namoyandasi, cholg‘uchi ustozlarning yo‘lboshchisi, taniqli bastakor Yunus Rajabiyning ijodiy pedagogik qarashlari va cholg‘uchilik faoliyatiga katta ahamiyat berishimiz kerak.

Yunus Rajabiy 1897-yili Toshkentda tug‘ilgan. U dastavval eski usul maktabida o‘qiydi. Eski maktabda o‘qigan paytlarda musiqaga havas uyg‘ona boshlagan. O‘zlari nay chalغانlar, yaxshigina dutor ham chertgan. 1916-yilda mashhur sozanda va xonanda Shorahim Shoumarov bilan tanishadi. Bu tanishuv uning cholg‘uchilik va bastakorlik faoliyatida muhim bosqich bo‘lib qoladi. 1919-yil Toshkentda ochilgan xalq konservatoriyasining milliy cholg‘u asboblari bo‘limiga

o'qishga kiradi va shu tariqa butun hayotini musiqaga bag'ishlaydi.

1923-yildan Samarqandda musiqa pedagogika bilim yurtida musiqa rahbari bo'lib ishlaydi va Samarqand Davlat teatrining milliy musiqa rahbari etib tayinlanadi. Yunus Rajabiy hayotidagi muhim voqea uning Samarqandda mashhur hovizlar bilan yaqindan tanishgani bo'ldi. Yunus Rajabiy cholg'uchilik repertuarini yangi asarlar bilan boyitish uchun «Shashmaqom» ni o'rganishga juda kirishadi.

Akademik Yunus Rajabiyning besh jildli o'zbek xalq musiqasi (1955-1960), olti jildli «Shashmaqom» (1966-1975), «Musiqa merosimizga bir nazar» (1978-1979), «Xorazm maqomlari»ning birinchi va ikkinchi to'ldirilgan nashrlari ananaviy ijrochilikka bag'ishlagandir. Ustoz uzoq yillar davomida O'zbekiston teleradiosi qoshidagi maqomchilar dastasiga rahbarlik qilganlar. Yunus Rajabiy ijod qilgan «Ra'nolanmasin» qo'shig'i hozirgi kunda ham hofizlarning repertuarlaridan o'rin olgan.

Yunus Rajabiyga 1939- yili O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, 1955- yilda O'zbekiston xalq artisti unvoni berildi. 1966- yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, 1971- yilda respublikamizda nufuzli bo'lgan «Hamza nomidagi Davlat mukofoti» ga sazovor bo'ldi.

Yunus Rajabiy faoliyatini o'rganish, uning musiqashunoslikdagi cholg'uchilik va pedagogik, ma'rifiy va madaniy merosini bo'lajak avlodimizga yetkazishimiz kerak. Bu meros yoshlarni tarbiyalashda, komil inson bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi.

ma do' - zi Hay - yu chit - ti gul

Salomat

M.Oqilov she'ri

II.Akbarov

Shoshilmasdan

Oq- qu - yo-nim a - lo - mat O - tin qo'y - dim

Sa - lo - mat. Tin-may cho-pib o'y - nay -

-di Char-chash -ni hech bil - may - di

Baxtiy erkatoy

H.Muhammad she'ri

T.Toshmatov musiqasi

Ildam

Voy, voy, voy, voy Bax - tiy er-ka - toy. Er-talab tu-

rib ich - mas e - kan choy. Voy, voy, voy.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. An'anaviy qo'shiq turlari kimlar tomonidan yoziladi va aytiladi?
2. Y.Rajabiyning o'zbek musiqa olamidagi o'rni va ahamiyati?
3. Nota orqali qo'shiqlarni kuylab bering.

Musiqa – san'at turlaridan biri

Musiqa san'ati insonning yoshligidan unga bevosita va kuchli ta'sir o'tkazib, uning umumiy madaniy rivojida katta o'rin tutadi. Demokratik jamiyat madaniy hayotida yanada kengroq o'rin tutayotgan musiqa kishiga butun hayot davomida uning doimiy hamrohi hisoblanadi. Musiqa yagona san'at bo'lib, inson yuragiga juda chuqur kirib borib, ana shu qalb tug'yonini yorqin ifodalash qudratiga ega.

Musiqa – estetik tarbiya, demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak.

Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o'stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma'naviy va qat'iy ahloqiy sifatlarni tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqaviy rivozida kuchi ta'sir o'tkazadi, boshqa ko'nikma va didlarning shakillanishini ta'minlaydi, yaxshi musiqali didni tarbiyalaydi. Musiqa estetik va manaviy kayfiyatning ulkan manbayidir.

Musiqaning bola hissiyoti va shakllanishiga, uning mazmunini tushunish va his etishga katta ta'sirini hisobga olganda haqqoniy va voqiylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi. Musiqali obrazlar shakllanishining asosiy manbai tabiat va kishi nutqiga mos kelishiga, atrof-olamdagi go'zallikni idrok etishiga bevosita bog'liqdir.

Musiqali idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalar bilan bog'liq, umumiy maqsadlar bilan belgilanadi. Bunday vazifalar bolalarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, bolalarda badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i kerak. Musiqaning bola hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta'sirini hisobga olganda, haqqoniy va voqeylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi.

Musiqiy san'at uchun odamning fikrlash va ifodalash hissiyoti asos bo'lib xizmat qiladi. Musiqa tovush bilan hamohanglik rivojida dastlab nutq va raqs bilan bog'liq bo'lgan edi. Musiqa mehnat harakati ritmi bilan moslashib, bir maqsadga intilayotgan kishilarni bir-birlariga birlashtirishni osonlashtiradi.

Nutq ohanglarini, mehnat jarayonlari ritmlari va musiqali ohanglarning umumlashuvi natijasida xalq musiqasi shakllanadi. Xalq san'ati manbalariga asoslangan musiqa hamisha jozibador bo'lib, qalbdagi turli his-hayajonlar uyg'otadi. Shu bilan birga, musiqada tovushlarga va tasviriy holatlarga taqlid qilish hollari bor,

ammo masalaning mohiyati bular bilan belgilanmaydi. Musiqali obraz o'zining aniq ko'inishi bilan bog'liqdir.

Ohang obrazining yetakchi vositasi bo'lib, u barcha musiqiy ifodalar (ohang, harakat, musiqiy bo'yoq va boshqalar) bilan boyib boradi. Garmoniya va ma'lum ovozlari bilan umumlashib, musiqiy asarning barcha tomonlari bilan bog'lanadi.

Musiqqa ostida harakat va o'yinlar

Musiqaning aqliy estetik va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yin va musiqqa bilan harakat katta ahamiyatga ega. Musiqqa faoliyatining bu turlari bolaning har tomonlarga o'sishiga katta yordam beradi.

1. Uning musiqqa uquvi, ayniqsa tuyg'usi va musiqqa xotirasi yaxshi rivojlanadi, chunki har qanday harakat turi musiqqa ritmi va taktilar ostida bajariladi hamda harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqqa ohanglari bola xotirasida turg'un saqlanadi.

2. Raqs va musiqali harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqon-likni rivojlantirib, badanni chiniqtiradi qomatning to'g'ri o'sishiga katta yordam beradi.

3. Musiqqa asarlari bilan turlicha emotsional hislar uyg'onadi, turlicha kayfiyatlar hosil etib, uning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bular bolaga harakat sxemalarini badiiy ishoralar bilan ifodalashga yordam beradi. Demak musiqqa bilan harakat bolaning aqliy va estetik qobiliyatini hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega. Masalan, marsh musiqalari bolaga g'ayrat va tetiklikni bag'ishlaydi. Marsh musiqalarisiz bayram ertaliklari, hatto bog'chaning oddiy bir kunlik hayotini ham tasavvur qilish qiyin. Raqs kuylari esa bolada ajoyib ichki his-tuyg'ular,

kechinmalar hosil etib, beixtiyor raqsga tushushga undaydi. Musiqa ostida harakat va o'yinlar kichik yoshli bolalarga tez ta'sir etadi. Shuning uchun quvnoq, qiziqarli musiqali o'yinlar bog'cha yoshidagi har bir bolaning e'tiborini o'ziga tortadi. Musiqa ostida harakat va o'yinlarning turlari quyidagilardan iborat.

1. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari – asosan tartibli qadam bosib yurush, chopish, sakrash kabi harakat turlari.

2. Bolalarning sahnalashtirilgan sujetli o'yinlaridan, kattalarning bajaradigan turli maishiy ishlaridan olgan taassurotlari (mashinani boshqarish, qurilish ishlari, paxta terish, ro'zg'or ishlari va hokazo) asosida bajaradigan harakatlari, turli hayvonlarning harakatlari tovushlarini ifodalash.

3. Turli raqslar ta'sirida vujudga keladigan bolalarga mos oddiy harakatlar.

Bu harakatlarning har uchala turi ham bog'chada musiqa bilan bajariladigan barcha harakatlarning asosini tashkil etadi va ularning asosiy ifodali harakat elementlari hisoblanadi. Bu harakat elementlari, musiqa ostida bajariladigan barcha o'yinlar turlicha ifodalanadi. O'yin bog'cha yoshidagi bolalar ijodiy faoliyatini eng faol shaklidir. O'yinlarga mo'ljallangan musiqa asarlarining badiiy mazmuni xarakteri va ifoda vositalari o'yinning sujetiga mos tushishi shart. O'yinning syujeti esa bog'cha hayotidan olingan bo'lishi lozim. Unda bolaning ijtimoiy hayot va tabiat bilan munosabati o'z aksini topishi kerak, ayniqsa xalq bolalar o'yinlari katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib musiqali o'yinlar o'z maqsadi, vazifalari jihatidan didaktik o'yinlarga mansub bo'lib, ular asosan harakat vositasida ijro etilishi bilan xarakterlanadi.

Bog‘bon va gullar

(harakatli o‘yin)

Gullar raqsi

(o‘zbek xalq kuyi)



O‘yinning mazmuni: o‘yinda 10-15 ta bola ishtirok etadi. O‘yinchilar orasida «bog‘bon» tanlanadi, Qolganlari «gul» bo‘ladilar. Har bir bolaning boshida biror gurning rasmi tushirilgan ro‘molcha bo‘ladi. Gullar aylana hosil qilib o‘tiradilar. «Bog‘bon» bolalar orasidan yurib, «davraga keling, bolalar, birgalashib gul teramiz va raqsga tushamiz», – deydi, keyin «bog‘bon» o‘zidagi gullardan birini olib, ko‘zini yumib, shunday gulli ro‘molcha o‘ragan bolani tanlaydi va raqsga tushadi. Agar to‘g‘ri topsa, o‘rinlarini almashtiradilar. Topa olmasa, yana «bog‘bon» bo‘lib qoladi. O‘yin shu tarzda davom etadi.

Chopon qo‘l

(o‘zbek xalq o‘yini)

Asp bo‘laman

(o‘zbek xalq kuyi)





O‘yinning mazmuni: o‘yinda cheklanmagan sondagi bolalar qatnashadilar. Ular aylana bo‘lib, chordona qurib o‘tiradilar. Boshqaruvchi aylana tashqarisidagi bolalar bir-birlariga uzatayotgan choponni yulqib olishlari kerak. Choponni berib qo‘ygan bola o‘rtaga turib raqsga tushishi yoki she‘r aytishi kerak. So‘ng bu bola boshqaruvchi bo‘ladi. O‘yin shu tariqa davom etadi.

Baqa bilan laylak

(o‘zbek xalq o‘yini)

Chamanda gul

(o‘zbek xalq kuyi)



O‘yinning mazmuni: o‘yinda 15-20 ta bola ishtirok etadi. 4 bola lenta tortib, «qamishzor» hosil qiladi. O‘ynovchilardan «Laylak» saylanadi, qolganlari «Baqa»

bo'lishadi. Laylak qamishzorga yaqin joyda, «Baqa»lar qamishzorda bo'ladilar va sakrab-sakrab o'ynaydilar. Boshqaruvchining ishorasi bilan «Laylak» qamishzorga kiradi va «Baqa»larni tuta boshlaydi. «Baqa»lar lenta ustidan sakrab, qamishzordan qochadilar. Qo'lga tushgan «Baqa»larni «Laylak» o'zi bilan olib ketadi.

Marshdagi hujum Marsh

(Xorazm xalq marsh)



O'yinning mazmuni: o'yinda cheklanmagan sondagi bolalar qatnashadilar. Ular ikkita guruhga bo'linadi. Ikkala guruh bir-biriga qarama-qarshi turadi. Boshqaruvchining ishorasi bilan bir tomondagilar marsh ostida qarshi tomonga yuradi. Orada 2-3 metr qolganda to'xtaydi. Yana

boshqaruv-chining ishorasi bilan orqaga o'z marrasiga qochadi. Qarshi tomondagilar ularni ushlaydi. So'ngra almashadilar. Qaysi tomon qarshi tomon bolasini ko'p ushlasa, shu tomon g'olib sanaladi. O'yin shu tarzda davom etadi.

Chavandoz

(harakatli o'yin)

Gullar raqsi

(o'zbek xalq kuyi)



O'yinning mazmuni: o'yinda cheklanmagan sondagi bolalar qatnashadilar. Boshqaruvchining ishorasi bilan musiqa ostida bolalar aylana bo'ylab) otlar kabi avval sekin, keyin lo'killab va yo'rg'alab yuradilar. Musiqa to'xtagach, bolalar oldindan belgilab qo'yilgan aylana ichiga kiradilar. O'yin shu tariqa davom etadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Ritmik harakatlarning musiqadagi o'rni qanday?
2. Musiqa orqali bajariladigan o'yinlar qaysilar?
3. Harakat va o'yinning bolalar hayotidagi o'rni qanday?

Musiqa nazariyasi asoslari va metodlari

Tarix bizga shuni o'rgatadiki, san'at kishilik faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, kishi shaxsi san'at yordamida va ishtirokida to'laligicha yorqin namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon kishisini tarbiyalashda fan bilan bir qatorda, san'at ham muhim o'rin tutadi. San'at insonpar-varlik va odamiylik hamkorligi ruhida o'zining hissiyatini o'stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Hozirgi zamon kishisida uning estetik idrokini tarbiyalashga g'amxo'rlik qilar ekanmiz, san'at bilan muomala qilishdan hosil bo'ladigan his-hayajondan uni o'z hayoti va faoliyatida foydalana bilishga o'rgatmog'imiz lozim. Shu sababli estetik tarbiya barcha tarbiya ishining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Odamning ulg'ayishini hisobga olmagan holda butun xalqning estetik tarbiyasi haqida fikr yuritish mumkin emas. Bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi, bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqish ortadi. Unda badiiy – ijodkorlik qobilyati rivojlanadi.

Estetik tarbiya jarayonida bolalarda tabiatga, mehnatga, ijtimoiy hayotga, turmushga bo'lgan mehr-muhabbat hissi ortib, ulardagi go'zallikni ko'ra bilish iqtidori shakllanib, shu go'zalliklarni ularning o'zi mustaqil ravishda yaratishga intiladilar. San'at vositasida amalga oshiriladigan badiiy tarbiya estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

1997-yilda erishilgan asosiy yutuqlardan biri «Ta'lim haqida qonun» va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturi» qabul qilindi.

Respublikamizda ta'lim-tarbiya katta ahamiyatga ega bo'lishi bugungi kunda berilgan erkinlik va imkoniyatlar, xalq ta'limida hozirgi ahvolni yangilash, yangi nazariy va amaliy darsliklar yaratish va ulardan samarali foydalanish yo'lida yangi metodlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.

Respublikamizda ko'p sonli pedagogika bilim yurtlarida asosiy fanlar qatorida, musiqa faniga e'tibor berilayotganini hisobga olib, kelajakda bilim yurtini bitirayotgan talabalar o'rta maktablarda ashula va musiqadan o'quvchilarga saboq berishni nazarda tutib, ushbu risola yaratildi.

Ushbu o'quv qo'llanmadan pedagogika bilim yurtlari talabalaridan tashqari, respublikamizdagi barcha o'rta maktab musiqa o'qituvchilari, bolalar bog'chasining musiqa o'qituvchilari va musiqa sohasi havaskorlari foydalanishlari mumkin.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqa ostida bajariladigan harakat va o'yinlarni ayting va ko'rsating.
2. Musiqa nazariyasi asoslari metodlari necha turdan iborat?
3. Har bir metodga alohida o'z fikringizni bildiring.

Raqs va xorovodlar hamda musiqiy ritmik harakatlarning vazifalari

1. Raqs va xorovodlar. Bolalar o'yinlarining bu turlari xalq raqslari va klassik bal raqslari elementlari asosida tuziladi. Ularni mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

Musiqa asarining tuzilishiga binoan, harakat elementlari mujassamlangan raqs. Masalan, ikki qismli

musiqaga mos ikki qismli raqslar, uch qismli musiqaga esa uch qismli raqslar qo'yish kerak bo'ladi. Misol uchun, o'zbek xalq raqsi «Andijon polkasi»ni olaylik. Tarbiyachi mazkur musiqasi asosida yuqori va tayyorlov guruh bolalariga mos chaqqon harakatli raqs shaklini tanlashi mumkin. Tarbiyachi guruh imkoniyatlarini hisobga olib, «Andijon polkasini» ni bir oz qisqartirib, katta avjini istisno etgan holda, ikki qismli, to'la shaklda chalib, uch qismli qilib ham o'rgatishi mumkin. Demak raqsni musiqaning mantiqiy qismlariga ko'ra harakat elementlarini tanlab qo'yishiga to'g'ri keladi. Bu raqsni yakka va kichik gruppada shaklida qo'yish mumkin.

2. Erkin raqslar. Bu raqslar ijodiy xarakterga ega bo'lib, xalq raqs kuylari, bastakor yaratgan raqs kuyi va polkalar ostida ijro etiladi. Unda bolalar mashg'ulotlardan olingan malaka va ko'nikmalarini ishga solib, musiqaning xarakteriga mos harakat elementlarini tanlab «yangi raqs» yaratadilar.

3. Raqs xarakteridagi xorovodlar va o'yinlar. Xorovod ko'proq rus raqs san'atiga mansubdir. Ulardan foydalanish yaxshi natija beradi. Xorovodlarda asosan ashula aytib, davra qurgan holda o'yinga tushiladi. Bo'g'chaning yuqori va tayyorlov guruhlarida rus xorovod asarlaridan «Karavay» o'yinini o'rganish mumkin. Xorovod xarakteriga xos o'zbek o'yinlari ham mavjud. Masalan, «Choriy chamber», «Oq terakmi, ko'k terak» va boshqalar. Tarbiyachi bog'chada milliy o'yinlar bilan birga boshqa xalqlar xorovodlari va o'yinlaridan foydalanish lozim. Bu o'yin turlari ko'proq o'yin-kulgi, bayramlar paytida o'ynaladi.

4. Shartli ravishda ijro etiladigan bolalar bal raqslari. Vals va polka xarakterdagi raqslar yordamida

bolalarga bal raqslari elementlari o'rgatilib boriladi. Bunda sho'x, quvnoq kuyda takrorlanuvchi harakat sxemalari asosiy ro'l o'ynaydi.

5. Xarakterli raqs. Biror personaj obrazi, masalan, quyonlar, bo'ri, xo'roz va boshqalar ma'lum inssenirovkalarda erkin raqs tarzida o'ynalib, ifoda etiladi.

Yuqorida bayon etilgan raqs va o'yinlar bog'chani asosan o'rta va yuqori guruhlarida ijro etiladi. Kichik guruhlarda esa nihoyatda sodda va oson o'yin harakatlari asosan o'yinchoqlar va turli o'yinlar bilan birga qo'shib amalga oshiriladi. Shuning uchun kichik yoshli bolalarning raqs va o'yinlari shartli ravishda planlashtiriladi.

O'yin va raqs o'rgatishda mashq katta yordam beradi, zeroki, har qanday raqs va o'yinlar konkret detallardan tashkil topadi. Shuning uchun ba'zi raqs va o'yinlarni o'rgatishdan avval ular tarkibidagi ayrim harakat elementlarini mashq sifatida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda har bir harakat elementini tarbiyachi aniq va ifodali ravishda ko'rsatib berishi lozim.

Raqs va o'yinlar qo'yishda bolalar ijodiga ham e'tibor berish shart. Ma'lumki, bolalar kattalarga taqlid qiladilar va ko'pincha tarbiyachi o'rgatadigan o'yin va raqslarni uning shaxsiy ijodi, deb ham tushunadilar. Shuning uchun bolalar tarbiyachiga taqlidan o'zlari ham «yangi» raqs yaratishga intiladilar. Guruh bolalari orasida raqs tushishga moyil talantli bolalar ko'p uchraydi. Tarbiyachi shunday bolalar raqsidan namuna sifatida foydalanishi mumkin. Raqs o'rgatishda cholg'u asboblardan unumli foydalanish muhim ro'l o'ynaydi. Umuman, musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishda fortepiano asosiy va yetakchi cholg'u asbobi hisoblanadi. Forte pianoga qo'shimcha tarzda rubob, dutor,

g'ijjak, nay, chang kabi cholg'u asboblarining biridan foydalanish ham yaxshi natija beradi.

Xususan, milliy raqslarni, masalan, «Chertmak», «Ufor», «Andijon polkasi», «Jonon» va boshqalarni o'rgatishda fortepiano bilan birga, xalq cholg'u asboblaridan foydalanish bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Xalq cholg'u asboblaridan o'z me'yorida foydalanilsa, birinchidan, bolalarda tembr uquvi yaxshi rivojlanadi, ikkinchidan, bolalar yoshlikdan musiqa asboblari bilan tanishib boradilar. Mashg'ulotning musiqa bilan harakat va musiqa tinglash qismlarida xalq cholg'u asboblaridan unumli foydalanish mumkin.

Fortepiano mavjud bo'lmagan ayrim bolalar bog'chalarida uning o'rniga bayan yoki akkordeondan foydalanish tavsiya etiladi. Musiqa mashg'ulotlarida o'rganilgan qo'shiq, raqs, o'yin va xorovodlar atoqli sanalar o'tkaziladigan ertaliklarda ijro etiladi. Bolalar bog'chalarida asosan sanalarga bag'ishlangan ertaliklarga planli ravishda tayyorgarlik ko'rib boriladi: Yangi yil, Xalqaro xotin-qizlar kuni va yetti yoshlilarni maktabga kuzatish marosimi. Mazkur bayramlarni bolalar sabrsizlik bilan kutadilar. Bayram kuni bolalar uchun eng sevinchli damlarga aylanishi ko'proq ertalik dasturidagi ashula, musiqa, raqs, o'yin va musiqali postanovkalar repertuarining puxta tayyorlanishiga bog'liq. Mazkur repertuar bog'chadagi barcha guruh bolalarining bir jamoa bo'lib birlashishlariga katta yordam beradi. Ertalikda ota-onalar ham qatnashishlari sababli bolalar ular oldida konsert nomerlarini yuksak saviyada ijro etishga intiladilar.

Umuman, ertaliklar musiqa tarbiyasining bog'cha tarbiyachilari bilan birgalikda bayramdan bayramgacha

olib borgan umumiy faoliyatining yakuni va hisoboti sifatida katta ahamiyatga egadir.

Ritmik harakatlar musiqaviy ta'limda muhim o'rin tutadi. 20–30-yillar ko'lamida ritmika chetga surilib, ikkinchi darajaga tushib qolgan edi. Endilikda hozirgi zamon talabiga aylandi.

Ritmik harakatlar bolalarga musiqiy kayfiyatni, musiqaviy harakatlar orqali o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bu mashqlar bolalarning sezgi organlarini rivojlantiradi. Ritmik mashg'ulotlarga qatnashgan bola birinchi o'rinda musiqa ostida to'g'ri harakatlana oladi, musiqa savodi kuchayadi, musiqiy olamga kirib boradi. Shu obrazda musiqiy ritmik mashg'ulotlar bolaning jismoniy va ruhiy holatiga ham ta'sir etadi.

Musiqiy ritmik harakatlarning asosini o'qituvchi, kompozitor, bastakor, jamoat arbobi E. Max Dolkroz shunday degan edi: Jism yashashi uchun «Harakatlarni tadbiq etish lozim. E.Max Dolkroz ko'pkina o'quv maskanlarini unda o'qituvchining ritmika metodikasi o'rgatiladi» («Musiqa va ritmika maktabi Xollerau, 1910-yil Max Dolkroz instituti, 1915-yil).

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolalar bog'chasidagi qanday raqs harakatlari va musiqaviy ritmik harakatlarni bilasiz?
2. Qanday mujassamlashgan raqslarni bilasiz?

Bolalar bog'chasida bayram ertaliklari

Bayram ertaliklari bog'cha hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo'lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy

didini tarbiyalaydi. Bayram ertaliklaridan maqsad, bolalarni nafosat olamiga olib kirish, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etishdan iboratdir.

O'zbekiston Mustaqillikka erishdi. Istiqlol sharofati tufayli qadryatlarimiz, unutilgan, lekin bola tarbiyasida nihoyatda zarur bo'lgan urf-odatlarimiz tiklanmoqda. Shu sababli bayram ertaliklari shaklan va mazmunan o'zgarmoqda. Bolalar bog'chalarida nishon-lanadigan asosiy bayramlar quyidagilardan iborat:

1. O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni.
2. O'qituvchi va murabbiylar kuni.
3. Mehrjon bayrami.
4. Yangi yil bayrami.
5. Vatan himoyachilari kuni.
6. Xalqaro xotin-qizlar bayrami.
7. Navro'z bayrami.
8. Xotira va qadrlash kuni.
9. Gul va qushlar bayrami.
10. Sog'lomjon va polvonjon bayram ertaligi.
11. Bolalarni maktab quchog'iga kuzatish tadbiri.

Har bir bayramning o'z ma'nosi va alohida xususiyati bor. Masalan, 1 sentabrda nishonlanadigan **Mustaqillik bayramida** vatanni sevish va e'zozlash, unga munosib farzand bo'lib yetishish, uning yutuqlaridan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bayram katta guruh bolalari bilan o'tkazilib, ular O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydilar. Kichik va o'rta guruh bolalari tomoshabin sifatida qatnashadilar. Ertalikdagi o'yinlar, inssenirovkalarda xalqimizning erishgan yutuqlari, mehnatning insonga quvonch baxsh etishi odamlarning

bir-biriga mehr-oqibati, qadriyatlarimiz ko'rsatilishi kerak. Musiqa rahbari bayram dasturini tuzishda ijodiy yondoshib, zamonaviy bolalar qo'shiqlari bilan bir qatorda, o'zbek xalq qo'shiqlarini ham dasturga kiritishimiz lozim.

Mehrjon bayramida mehnat mavsumi yakuniga yetayotganligini iodalab, «Quyosh bobo» ga minnatdorchilik bildirib, «Bobodehqon» mehnatini, «Ona yer» saxovatini, mehr muruwatini, «Kuzjon» ning to'kin sochinligini ramziy obrazlar orqali chuqurroq idrok etishlariga erishish lozim. Bu bayramni katta, o'rta va kichik guruh tarzida o'tkazish mumkin. Bayram tantanalarida iloji boricha o'zbek milliy asboblarini (karnay, sunray, nog'ora) jalb qilish tavsiya etiladi. Imkoniyat bo'lmasa, fonogrammadan foydalanish lozim. Askiyalar va kichik sahnalashtirilgan ertaklar ham bo'lishi tavsiya etiladi. Qo'shiq, lapar (aytishuv) va askiyalar mazmuni bolalarga tushunarli bo'lishi kerak.

Yangi yil bayrami butun dunyoda ramziy qabul qilingan bo'lib, jahon bolalarining eng sevimli bayramidir. Unda chiroyli bezatilgan archa, quvnoq kuy, qo'shiq va o'yinlar Qorbobo, Qorqiz va turli ertak qahramonlari, o'rmon hayvonlari ishtirok etib, bolalar bilan xursandchilik qiladilar.

Navro'z bayramida uyg'onayotgan borliq, tabiat ulug'lanadi. Qadriyat, urf-odat udumlarini aks ettiruvchi mazkur bayram, tabiat uyg'onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat go'zalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko'kalamzorlashtirish, mehnatni ulug'lash kabi g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Qo'shiq-yallalar kuylanadi, o'lan-aytishuvlar va turli xil qiziqarli o'yinlar o'tkaziladi. Bu bayramni bog'cha

sharoitidan kelib chiqqan holda, zalda yoki hovlida o'tkazish mumkin. Qadimda sharq xalqlari o'z sayllariga odamlarni karnay-surnay orqali chorlaganlar. Shuning uchun bayramning tantanali qismida milliy cholg'u asboblardan yoki fonogrammadan foydalanish lozim. Badiiy qismda quvnoq qo'shiqlar yangraydi.

8 mart bayramida bolalar onalari, buvilari, opalari, tarbiyachilariga bo'lgan mehrlari va ulkan muhabbatlarini qo'shiq, she'r, raqs, o'yinlarida ifodalaydilar. Ularning mehnatlarini e'zozlab, minnatdorchiilik bildirib, o'z qo'llari bilan yasagan sovg'alarini taqdim etadilar. Ular uchun katta, o'rta va kichik guruhlarda konsert uyushtiriladi. Bayram uchun to'g'ri tanlangan qo'shiq, musiqa, sahna ko'rinishlari bolalarda xushchaqchaq kayfiyat tug'dirishda katta ahamiyatga ega. Ular bayramning umumiy xarakteriga, mazmuniga mos bo'lishi kerak. Agar bog'chada xalq cholg'u asboblaridan tuzulgan bolalar ansambli bo'lsa, uni ham bayram dasturiga kiritish kerak.

Buyuk siymolar tavallud topgan kunlar uchun badiiy musiqiy-nafosat soatlarini tashkil etish, bolalarda milliy g'urur tuyg'ularini shakllantirib boradi. Ularning rasmlarini ko'rsatib, buyuk xizmatlari haqida ma'lumotlar berish, bolalar yoshiga mos asarlari bilan tanishtirish esa bolalar ma'naviyatini oshiradi.

Shuningdek, bayramlar bolalarni Respublikamizda yashaydigan barcha millat va xalqlarning urf-odatlarini, qo'shiq va o'yinlari bilan tanishtirish hamda ularga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalashda katta o'rin egallaydi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolalar bog'chasida ertaliklarni o'tkazishdan maqsad nima?

2. Yil davomida o‘tkaziladigan bayramlarning va shu bayramda tarbiyachining o‘rni?

Kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari

MTM da olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyanob fazilatlar yosh avlodga bog‘cha yoshidan boshlab shakllantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqiylikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularni ruhiy dunyosini boyitadi. Bog‘cha sharoitidagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san‘at bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi.

Kichik va o‘rta guruhlarda bayram ertaliklari

1. Mustaqillik bayrami. Bu bayram tadbiri 1-sentabrda o‘tkaziladi. Tadbir O‘zbekiston Davlat madhiyasining yangrashi bilan boshlanadi. Bolalar Vatanimiz haqidagi she‘rlarni yoddan o‘qib, qo‘shiqlar ijro etadilar.

2. Mehrjon bayrami – Bobodehqon va ona zaminni ulug‘lovchi bayramdir. U 25-oktabrdan 5-noyabrgacha o‘tkaziladi.

3. Archa bayrami. Bu bayramda Qorbobo, Qorqiz va sevimli ertak qahramonlari ishtirok etadilar.

4. 8-mart – Onajonlar bayrami.

5. Navro‘z bayrami 21-martdan boshlanadi.

6. Sog‘lom va polvonjon tadbiri esa 1-iyunda o‘tkaziladi.

Katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari

1. «1-sentabr – Mustaqillik bayrami». Bayram tadbirlari orqali bolalarda vatanparvarlik va baynalminallik tuygʻulari tarkib toptiriladi.

2. 1-oktabr – «Oʻqituvchilar va Murabbiylar kuni».

3. Til bayrami. Bu bayram «Til – dil kaliti», «Ona tilim – jon-u dilim» nomlari ostida nishonlanadi.

4. «Mehrjon bayrami» – hosil bayrami.

5. 8-dekabr – Konstitutsiya kuni. Shu munosabat bilan «Qomusimiz – nomusimiz» tadbiri oʻtkaziladi.

6. «Archa bayrami» ertaligi.

7. 14-yanvar. «Vatan himoyachilari kuni».

8. 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan konsert uyushtiriladi.

9. 21-mart – Navroʻz bayrami. Bu tadbirda, asosan, urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz haqidagi sahna korinishlari va kuy-qoʻshiqlar ijro etiladi.

10. Gullar va qushlar bayrami may oyida oʻtkaziladi. Bolalar Oʻzbekiston gullari va qushlari haqida sheʼr hamda qoʻshiqlar aydatilar.

11. «Sogʻlomjon va polvonjon», «Sogʻlom tanda – sogʻ aql» tadbirlari 1-iyunda oʻtkaziladi. Bayramda turli estafeta va bellashuvlar uyushtiriladi.

12. Maktabda kuzatish bayrami. «Xayr, bogʻchajon – salom, maktab!».

«Sizga taʼzim, aziz ustozlar»

Zal bayramona bezatilgan. Musiqa sadolari ostida bolalar qoʻllarida gullar, sharlar bilan kirib keladilar.

Boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar! Sizlarni umumxalq bayrami – «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» bilan chin yurakdan tabriklaymiz!
Sizdan boshlanadi asl tafakkur,
Munis muallimlar, sizga tashakkur!
(Abdulla Oripov)

Bola: Boshda fikr nuri – gavhar,
Bolalarga ustoz sarvar.
Qalbi toza gullar qadar,
Hamma: Bu ustozlar, ustozlar!
Bola: Ishimizda gar sezsa nuqson,
Yuragida turar, to‘fon.
Tunlar bedor qiynaladi jon,
Hamma: Bu ustozlar, ustozlar!
Bola: Ishi bilan dili birdir,
Do‘sti yorga shirin tildir.
To‘lqin ursa Amu-Sirdir,
Hamma: Bu ustozlar, ustozlar!
Bola: Mustaqillik xush zamona,
Xush zamonga u parvona.
Yurtim, elim, deya yona,
Hamma: Bu ustozlar, ustozlar!

«Bog‘cha opa, bo‘lmang xafa» qo‘shig‘ini kuylaydilar.
Gul va sharlar bilan «Bayramingiz muborak» raqsini ijro etadilar.

Boshlovchi: Prezidentimiz Islom Karimov farmoniga binoan, 1997-yil 1-oktabrni «O‘qituvchilar va murabbiylar kuni» – umumxalq bayrami, deb e‘lon qilindi. Bolajonlar, ustoz deganda ko‘z oldingizga qanday insonlar namoyon bo‘ladi?

Bola: Bizlarga odob va axloqni o'rgatuvchi opamiz.

Bola: Bizlarga turli xildagi aqliy va milliy o'yinlar o'rgatuvchi opamiz.

Bola: Ular bizga tinmay bilim beradilar, hisob – kitobni o'rgatadilar.

Bola: Ulug'larni eslashni,
Hikmatlarni yodlashni,
Vatanni e'zozlashni,
Ham qo'ynida yayrashni,
Bulbul bo'lib sayrashni,
O'rgatadi opamiz.

Boshlovchi: Barakalla, juda to'g'ri topdingiz. Ustoz ana shunday ulug' zotdir. Bugun qalbimizdan ona kabi joy olgan ustozlarga qancha shirin so'zlar, she'rlar aytsak, shuncha kam.

Bola: Assalom, aytamiz sizga azizlar!
Ming kalom aytamiz, sizga ustozlar.
Assalom so'ziday aziz bo'lingiz,
Eng quvnoq, eng shodon inson bo'lingiz.

Bola: Bugun bayram tantana,
Bayramingiz muborak.
Aziz ustoz, murabbiy,
Ayyomingiz muborak!

Bola: Tongda turib opajon,
Bizni deya shoshasiz,
Bizni ko'rib uzoqdan,
Qaynoq quchoq ochasiz.

Bola: Sizdan oldik ko'p bilim,
O'rgatingiz tolmasdan.
Onalarni sevishni,

Unga ko‘mak berishni.

Bola: Bu olamni asrashni,
Odam bo‘lib yashashni.
Bog‘da gulzor yaratib,
O‘rgandik bog‘bon bo‘lishni.

Bola: Bog‘larimiz oralab,
Gullar terdik saralab.
Gullarning eng sarasin,
Sizga berdik dastalab.

«Qari navo» o‘zbek xalq kuyiga raqs ijro etadilar.

Boshlovchi: Aziz bolajonlar, ustozlarning burch va vazifalari sizlarga ta‘lim-tarbiya berish bo‘lganidek, shogirdlarning ham o‘z ustozlari oldida burch va vazifalari bor. Qani, ana shu burch haqida kin aytadi?

Bola: Ustozlarga itoatli bo‘lish, nasihatlariga rioya qilish.

Bola: Ustozning dushmani bilan do‘st tutinmaslik.

Bola: Ustozning qarindosh-urug‘larini hurmat qilish.

Bola: Ustozning quvonch va qayg‘usiga sherik bo‘lish.

Bola: Ustoziga hamisha rost so‘zlash.

Bola: Ustozini xafa qilmaslik, uning sirlarini saqlay bilish.

Bola: Ustozi oldida xokisor bo‘lish.

Bola: O‘zining yomon odatlarini tark etish.

Boshlovchi: Barakalla, bolajonlar, javoblaringiz meni mamnun etdi. Men buvijonimdan eshitgan bir rivoyatni aytib beraman.

(Rivoyat aytadi.)

Boshlovchi: Aziz ustozlarni ulug‘lovchi qanday maqollarni bilasiz?

Bola: Ustoz – otangday ulug‘.

Bola: Ustoz ko‘rmagan shogird,
Olam sirini bilmaydi.

Bola: Ustozlar aqli – donolar naqli.

Bolalar «Yurtim» qo‘shig‘ini kuylaydilar (G.Qo‘chqorova musiqasi).

Boshlovchi: Mana shunday mas‘uliyatli kasb egalari bo‘lmish ustoz murabbiylar, jaji bolajonlarga bor mehrini berib, sabr-toqat bilan mehnat qilayotgan tarbiyachilar, butun xalqimizning har bir kuni bayram bo‘lsin!

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Turli yosh guruhlarida o‘tiladigan bayramlarni farqlab bering?

2. Bayramlarda ishtirok etishda tarbiyachining o‘rni qanday?

Bolalarning MTM da musiqiy faoliyatini tashkil etish

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaviy tarbiyasi va rivojlanishi mashg‘ulotlarda, kundalik hayotda takomillashadi. Bolaning o‘zidagi musiqaga bo‘lgan qiziqishini tarbiyachi yoki gubernor musiqani bolaning kundalik hayotida ertalabki badan tarbiyada, mashg‘ulotda aniq qilib beradi. Tarbiyachi yoki gubernor bolalar hayotini shunday tashkillashtirishi kerakki, ular turli xil qiziqarli bo‘lishi shart. O‘qitish jarayonida olgan

bilimlarini esa bolalar hayotida mustaqil bajara olsinlar. Shu maqsadda pedagog, musiqa bolalar hayotida o'z o'rnida ishlata olishni yo'llarini o'ylab topishi kerak.

Shunday lahzalarni ko'rib chiqamiz:

1. Sayr vaqtida musiqa.

Musiqa har xil holatda bolalarga har xil ta'sir qilishi mumkin. Masalan, O'rmon yo'laklarida shodon qadam tashlab kelayotgan bolalar o'zlariga tanish bo'lgan sho'x-shodon kayfiyatda kuylab borishmoqda. Atrofni kuzatish paytida musiqa atrof-muhitni yanada go'zal qilib ko'rsatadi, atrof-muhitga yanada qiziqish uyg'otadi.

Shunday holatlarda maydonchada bolalar chumchuqlarga non ushoqlarini berib boqqanda, ularning diqqatini sho'x bir chumchuqcha tortadi, u boshini aylantirib, oyoqlarida u yoq bu yoqqa quvnoq sakraydi. Tarbiyachi B.Giyenkonig «Chumchuq» ashulasini aytadi. «Chiriq-chiriq, chiriq-chiriq, bo'g'otda sayrar chumchuq». Bu qo'shiqni bolalar musiqa mashg'ulotidan oldin eshitganlar, endi esa tarbiyachi tomonidan ijro etilgan qo'shiq bolalarga boshqacha ta'sir etdi. Ularning kayfiyati ko'tarildi, ular kuzatayotgan narsalarga qiziqish yanada kuchaydi. Navbatdagi musiqa mashg'ulotida balalar bir-biriga navbat bermasdan musiqa rahbariga ko'rgan narsalarini aytib berishdi va ularga berilgan ashulani tanishdi va so'zlarini tezlik bilan yodlay boshlashdi.

Har qanday musiqa o'yinlari oldindan rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

2. Musiqaning boshqa mashg'ulotlar bilan bog'liqligi.

Og'zaki nutqni rivojlantirish, atrof-muhitni tanishtirish mashg'ulotida ham musiqa muhim ahamiyatga ega. M:

«Mushuk, xo‘roz va tulki», «Zumrad va Qimmat» kabi ertaklarni aytib berayotgan vaqtda personajlarni musiqaviy ifodalab beradi.

Musiqqa bolalarda obrazlarning asosiy xarakterini yetkazib berishga yordam beradi, yoshlik taassurotlarini boyitadi. Masalan, D.Kabalevskiyning «Masxarabozlar» pyessasini gramzapisda mashg‘ulot boshida tinglashadi va mashg‘ulot davomida rasmdagi masxarabozni bolalar o‘zicha quvnoq, kulgili holda talqin etadilar.

A.S.Pushkinning «Shox saltan haqida ertak» qahramonlarini yanada yaxshiroq o‘rganish maqsadida mashg‘ulotdan oldin N.Rimskiy-Korsakovning «Dengiz», «Olmaxon» operasidan ayrim musiqaviy elementlar eshittirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. Bolalar o‘yinlarida musiqqa.

Bolalarning turlicha o‘yin mashqlarida musiqalardan foydalaniladi. Bolalar o‘zlari o‘rgangan «musiqqa mashg‘ulotlari», «konsert»larda raqsga tushadilar, ashula aytadilar. Bunday o‘yinlarda tarbiyachi bolalarga ro‘llarni bo‘lib beradi, har xil musiqalarni topib beradi.

Bolalar tariyasida musiqaviy-didaktik o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Ulardan ayrimlari mashg‘ulotlar vaqtida o‘rganiladi. O‘yinlar musiqaviy qobilyatni, fikrlashni oshiradi. Tarbiyachi yoki guvernor bolalarning kundalik hayotida olgan bilimlarini mashg‘ulotlarda takrorlaydi, ularni yangi musiqaviy-didaktik o‘yinlar bilan tanishtirib boradi.

Tarbiyachi bolalarni har xil musiqaviy asboblar bilan tanishtirib boradi. Masalan, tarbiyachi bolalarni har xil musiqaviy asboblar qo‘yilgan stol atrofiga o‘tqizadi va bolalarni birma-bir chaqirib, asboblarning nomini so‘raydi, tarbiyachining o‘zi musiqqa chalib beradi va qaysi

musiqaviy asbobda chalganini bolalardan so'raydi. Musiqa maktabgacha yoshdagi bolalarda pedagogning tashkilotchi organizatorlik faoliyatiga bog'liq.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Musiqaviy faoliyat tashkil etishda va jihozlash ishlariga qnday e'tibor berishimiz kerak?

Oilada musiqaviy faoliyatni tashkil etish va jihozlash

Bolalar musiqasi ularning dunyoviy his-tuyg'usidir. Dunyo eshigini ochish uchun uning iste'dodini rivojlantirish kerak. Buning uchun:

1. Birinchi navbatda musiqaviy nutqini o'stirish.
2. Hissiyotini o'stirish lozim.

«Aks holda, musiqa tarbiyaviy vazifani bajarmaydi» N.A.Vetlugina. Musiqiy tarbiya kattalar va bolalar o'rtasidagi eng chiroyli, yoqimli, qulay muloqotdir. Har bir inson ham bolalar dunyosi bilan doimo hamnafas yashay olmaydi, bu imkoniyat faqat tarbiyachilardagina mavjuddir. Tarbiyachilar bolalar bilan birga orzu qilib, ertaklar olamiga, musiqa dunyosiga kirib boradilar, ular bilan birgalikda o'ynab, rasm chizib, ijod qiladilar. Bolalar o'z tarbiyachisiga ishonib, ularni do'st ko'rib, ularga orzulari, his-tuyg'ulari, sirlari haqida gapirib berishadi. Bolalar bog'chasida musiqaviy faoliyatni amalga oshirshda barcha tarbiya o'zaro bog'lab olib boriladi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichkintoylarga unutilmas taassurot qoldiradi.

Musiqaviy faoliyat bilan o'yinlarni qo'shib olib borilsa bolalarning obrazli fikrlashi va obrazli xotirlash harakat,

malaka ko'nikmalarini yaxshi rivojlantiradi. Bu har ikkala psixologik-parallel rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning o'yin dunyosi xilma-xildir. O'yin bobida ular ijodkoridir. Ammo musiqaviy faoliyatning o'yin bilan birga bog'lab olib borish ancha qiyinchilik tug'diradi. Bunda tarbiyachi dasturga tayangan bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ish ko'rish lozim. Bola musiqa va o'yin jarayonida o'zining ehtiyoj va qiziqishlarini aks ettiradi.

Oilada va bolalar bog'chasida olib boriladigan musiqaviy faoliyatni tashkil etish vazifalari quydagilardan iborat:

1. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish va uni sevishtirishga o'rgatish.

2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida bolalarda emotsional his-tuyg'ular hosil qilish yoli bilan ularning musiqa haqidagi tasavvurini boyitib borish.

3. Bolalarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, tinglash, ashula aytish, musiqa bilan harakat qilish, raqsga tushish va bolalarda oddiy musiqa asboblarida kuy chalish ko'nikmalarini hosil qilish va ijodiy qobiliyatlarini o'stirib borish.

Bolalarning yoshi va xususiyatlarini hisobga olgan holda, oila tarbiyachisi xonani jihozlar bilan to'g'ri ta'minlashi lozim. Albatta xonada musiqaviy asboblari, turli xildagi musiqaviy adabiyotlar bo'lishi kerak, chunki bola har bir musiqa asbobining tarixi, uning kelib chiqishi hamda adabiyotdagi tovushlarning yo'nalishlarini bilishi kerak. Oilada musiqaviy faoliyatni tashkil etishda musiqaviy repertuarlar tanlashi, xalq o'yinlaridan o'rinli foydalanish katta ahamiyatga ega. Xalq o'yinlari oila hayotida eng

muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, tantanavorlik, xursandlik va shodlik holatini vujudga keltiradi. Bolalarni badiiy didini tarbiyalaydi. Oilada tashkil etilgan bayram ertaklari umumxalq bayramlarining bir parchasi bo‘lishi kerak. Bunda bolalarning yoshi va rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda xalq o‘yinlaridan foydalanamiz.

Bolalar o‘yinlarida musiqa

Har xil bolalar o‘yin mashqlarida turli xil musiqalardan foydalaniladi. Bolalar o‘zlari mashg‘ulotlarda o‘rgangan: «Musiqa mashg‘ulotlari», «Konsert»larda raqsga tushadilar, ashula aytadilar. Bunday o‘yinlarda tarbiyachi bolalarga ro‘llarni bo‘lib beradi, har xil musiqalarni topib beradi.

Bolalar tariyasida musiqiy-didaktik o‘yinlar katta rol o‘ynaydi. Ulardan ayrimlari mashg‘ulotlar vaqtida o‘rganiladi. O‘yinlar musiqaviy qobiliyatni, fikrlashni oshiradi. Oila tarbiyachisi bolalarning kundalik hayotida olgan bilimlarini mashg‘ulotlarda takrorlaydi, ularni yangi musiqiy-didaktik o‘yinlar bilan tanishtirib boradi.

Oila tarbiyachisi bolalarni har xil musiqaviy asboblardan tanishtirib boradi va bolalarni har xil musiqaviy asboblardan qo‘yilgan stol atrofida o‘tqizadi. Bolalarni birma-bir chaqirib, asboblarning nomini so‘raydi, tarbiyachi musiqa chalib beradi va qaysi musiqaviy asbobda chalganini bolalardan so‘raydi.

Musiqaviy ta‘lim berish jarayonida musiqa tinglash, kuylash, musiqa savodini o‘rgatish, raqs tushish, cholg‘u asboblarni chalish hamda musiqa ijodkorligi kabi bilimlarni berish har tomonlama kamolga yetishida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Oila tarbiyasida musiqa orqali tarbiyalashda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Oila tarbiyachisi xonani qanday jihozlar bilan jihozlashi kerak?

FOYDALANISH UCHUN QO‘SHIMCHA MATERIALLAR

Mavzu: Istiqlol bayrami

Bolalar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy hayotidan, Prezidentimizning xorijiy mamlakatlar elchilari, mahalla ahli, yozuvchilar, ishchilar, dehqonlar, talabalar bilan uchrashuvlari aks etgan foto-rasmlar terib qo‘yiladi. Bog‘cha musiqa mehmonxonasi to‘riga O‘zbekiston bayrog‘i, gerbi o‘rnatilgan. Davlat madhiyasining matni va notaga tushirilgan musiqasi bosilgan plakat ham o‘ziga munosib o‘ringa joylashtirilgan.

Quvnoq musiqa sadosi ostida bolalar kirib keladilar va joylariga o‘tiradilar.

Bog‘cha mudirasi: – Aziz farzandlarim! Ulug‘ bayramingiz – O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuni bilan barchangizni chin qalbidan tabriklayman! Xabaringiz bormi – bog‘chamizga chet ellik mehmonlar kelar ekan. Sizlar mezbon, ularni kutib olasizlar.

Tarbiyachi: – Mehmon kutishni eplarmikanmiz? Qanday bo‘larkan? Biz bayramga atab raqs va qo‘shiqlardan chiroyli musiqali guldasta tayyorlagan edik. Shu tomoshani namoyish etsak, degandik.

Mudira: – Juda yaxshi! Konsert dasturingizni mehmonlar e'tiboriga havola etasizlar. Respublikamiz hayoti, azim shaharlari, aziz insonlari haqida bilganlaringizni aytib berasizlar. (*Mudira chiqib ketadi*).

Tarbiyachi: – Bolalar, sizlar nima deysizlar?

1-Bola: – Opajon, men yod olgan she'rimni o'qib bersam maylimi! (she'r o'qiydi).

2-Bola: – Do'stlarim bilan birga xalq laparini ijro etaman, keling o'rtaga jo'ralar! («Yallalo-yallo» *lapari ijro etiladi*).

Mudira: – (*kirib*). Qani, mezbonlar, mehmonlarni kutib oling! (*Musiqa mehmonxonasiga arab, turk, fransuz va amerikalik kichkintoylar kirib kelishadi. Bolalar chet tillardan birontasini o'rganishgan bo'lsa, o'sha tilda salomlashadilar. Mezbonlar ularga iltifot ko'rsatib o'tirg'izadilar*).

Tarbiyachi: – Hurmatli bolalar, ota-onalar, aziz mehmonlar! Bugun diyoringizning turli burchaklarida, maktab-bog'chalarda, mahalla-xonadonlarda tantanali bayram – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni nishonlanmoqda. Ishchi va dehqonlar, olim va quruvchilar, tikuvchi va shifokorlar – hammalari bayramga munosib tayyorgarlik ko'rib, sovg'alar hozirladilar. Do'stlarimiz ham bayramga tashrif buyurdilar, bu nur ustiga nur bo'ldi. Bugun biz, istiqbolimizni, erkimizni, Mustaqilligimizni sharaflaymiz!

«O'zbekiston – quyoshli diyor» *qo'shig'ini kuylaydilar. (K.Kenjayevo musiqasi)*.

Mehmonxonaga zangori bantik taqqan, oq futbolka va yashil yubka kiygan qizlar kirib kelishadi. Ular qo'llarida yorug' yulduzchalar tutib, milliy bayrog'imizdagi yulduzchalarni eslatib, qator bo'lib turadilar.

Tarbiyachi: – Rahmat, sizlarga, yulduzchalar. Raqsingizni maroq bilan tomosha qildik. Endi o‘zingiz haqingizda to‘liqroq so‘zlab bering!

«Yulduzchalar»: – Bizlar – o‘n ikkitamiz. O‘zbekiston Respublikasi milliy bayrog‘ida biz ham aks etganmiz. Bayrog‘imizdagi uch rangning har biri o‘ziga xos teran ma‘no tashiydi. («Yulduzchalar» davraga tushib, navbatma-navbat gapirib beradilar).

Tarbiyachi: – *(bayroq oldiga kelib)*. «Yulduzchalar» to‘g‘ri aytishadi. Bugungi kunda bayrog‘imizni dunyodagi aksariyat davlatlar, xalqlar taniydi va biladi. Bayramimizga ishtirok etib, shodligimizni baham ko‘rayotgan mehmonlarimizni qutlaymiz. (*«Mehmonlar» turib ta‘zim qiladilar*).

«Munojat» kuyi yangraydi.

Tarbiyachi: – *(qadimgi kitobni qo‘liga olib, varaqlay boshlaydi)*. Bunday tantanali kunda ota-bobolarimiz, o‘tgan davlat arboblari-yu ulug‘ sarkardalarning nomlarini tilga olmaslikning iloji yo‘q. Chunki ular bizning faravon hayotimizni orzu qilib, bunday istiqlolga erishishimiz uchun kurashib, bu yo‘lda ijod qilganlar. *(Tarbiyachi nomlarini eslagan buyuk siymolar – bolalar birin-ketin musiqali mehmonxonaga kirib keladilar)*. Beruniy, Al-Xorazmiy, Farg‘oniy, Forobiy, Ibn Sino, Bobur, Mashrab, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, imom Buxoriy, at-Termiziy... (bu yerda shu hududda tug‘ilgan shaxslarni yodga olish mumkin). Bolalar ularni odob bilan o‘rinlaridan turib, ta‘zim bajo keltirib kutib oladilar, hurmat ila davraga o‘tqazadilar.

1-bola: – Bugun biz barcha bayramlar ichra eng e‘zozlisi – O‘zbekiston Mustaqilligini shodon nishonlaymiz!

2-bola: – Farzand bo‘lib maqtayman,
Xursand bo‘lib maqtayman!
Shu o‘lka suvin ichdim,
Dilband bo‘lib maqtayman!
Onajon, O‘zbekiston!
Jonajon, O‘zbekiston!

(P.Mo‘min)

O‘zbekiston haqida she’rlar o‘qiladi.

Qo‘shiq va raqslar ijro etiladi.

Tarbiyachi: – Aziz mehmonlarimizni sayohat qildirsak bo‘lar edi, lekin ularni eng avvalo qayerga olib borsak ekan?

Bolalar: – Buxoroga, Xivaga, Samarqandga, Surxondaryoga, Toshkentga, Qo‘qonga, Andijonga...

Tarbiyachi: – O‘zbekistonning eng chiroyli va qadimiy shaharlarini tanladingiz-ku. ammo ularga qanday borishni aytmadingiz!

Bolalar: – Sehrli «qo‘qon arava»da!

Tarbiyachi: – Xayolimdan ko‘tarilibdi, to‘g‘ri aytasiz, sehrli aravaga chiqib, biz mehmonlar bilan bir zumda istagan joyimizga yetib borishimiz mumkin. Qani, ayting sehrli so‘zlarni!

O‘rtaga «sehrli arava» chiqadi va bolalar mehmonlar bilan birga yo‘lga otlanadilar.

Bolalar:

– Ezgulikdadir qudrat,
Dilda yo‘q gina-kudrat,
Yo‘l tanobin tortamiz,
Termizjonga boramiz!

Shu tarzda «sehrli so‘z»larning oxirgi satri o‘zgarib, istalgan viloyatga borish mumkin. U yerda mehmonlarni raqs tushib, qo‘shiqlar aytib – tantanali ravishda kutib

olishadi. «Andijon polkasi», Xorazm «Lazgi»si ijro etiladi va hokazo.

Tarbiyachi: – Bolalar, men mehmonlarimizning bir siridan ogoh bo‘ldim – ular sizlarga chiroyli sovg‘a tayyorlab kelishgan ekan. U nima ekan deb o‘ylarsiz? Mana, ko‘ring! (*Mehmonlar ijrosida arabcha, turkcha va zamonaviy raqslar*). Sovg‘alar sizlarga ma‘qul bo‘ldimi? Mehmonlarimizga chin dildan «RAHMAT» aytamiz-a?! Rahmat sizlarga, bizlarni juda xushnud etdingiz!

Bayramimiz yana davom etadi.

O‘zbek xalq kuylari sadosi ostida musiqa mehmon-xonasiga «Humo» qushi uchib kirib, jozibali raqs ijro etadi. Unga milliy libosdagi qizlar jo‘r bo‘ladilar va o‘yin so‘ngida tarbiyachi oldiga Humo qushini yetaklab keladilar.

Bolalar: – Qarang, bog‘chamizga Humo qushi uchib keldi!

Tarbiyachi: – Bu xushxabaringiz uchun rahmat! Humo qushi gerbimizdan joy olib, O‘zbekiston yurtining baxt-saodat ramzini bildiradi, posboni sanaladi. Uni sevib, ardoqlang, aziz bolajonlar! Mehr-oqibatli, mehnatsevar bo‘lib, kattalarni hurmat qilib, yurtimizning boyligiga boyluk qo‘shib, Humo qushini abadul-abadga saqlang! (*Qo‘shiq ijro etiladi*).

Barcha bolalar bayroq oldiga kelib, tantanavor holda turib O‘zbekiston Respublikasi madhiyasiga jo‘r bo‘ladilar.

Tarbiyachi: – Rahmat, dilbandlarim! Sizlar porloq diyorumizning ertangi kunisiz! O‘zbekiston istiqlolining baxtli egasisizlar! Bayram davom etadi, bizni bog‘ va tomoshagohlar kutyapti! Yuring, shahar (qishlog‘imiz) ahliga qo‘shilib, umumxalq sayliga chiqaylik!

Quvnoq musiqa sadolari ostida mehmonlar va mezbonlar chiqadilar.

Mehrjon – bayram sayli

Zal bayram ko‘rinishida bezatilgan. Bolalar musiqa sadolari ostida zalga kirib keladilar.

1-boshlovchi:

– Kuz keldi o‘lkam bo‘ylab,
Mardlik qo‘shig‘in kuylab,
Bizning go‘zal yurtimizda,
To‘kin-sochin yo‘lida.
Kuz bizga keldi.

Shirin-shakar mevalar.
Sabzavot, qovun, tarvuz,
Oppoq paxta, bug‘doy kon.
Hadya qildi bizlarga,
To‘kin-sochin dasturxon.

2-boshlovchi: — Aziz mehmonlar va qadrli bolajonlar, sizlarni Mehrjon – hosil bayrami bilan tabriklaymiz! Mehrjonning fasllar orasida alohida o‘rni bor. Yurtimiz noz-ne‘matlarga mo‘l-ko‘lligi paytida, ayni pishiqchilik pallasida bayram qilinadi. Bahorda Navro‘z bayramini keng nishonladik. Bugun esa, Navro‘zning birodar ukasi, Mehrjon bayramini nishonlayapmiz. Ular zaminning ikki ko‘zidir.

Bola: – Bugun, Navro‘zga esh to‘y,
Hosil to‘ydir, Mehrjon.
Mehrdan turilgandir,
Hosil to‘yim, Mehrjon.

Bola: – Navro‘z ila Mehrjon
Yetsin mangulik davom.

Zamin qosh-ko'zi ular,
E'tiqod shudir mudom.

Bola: – Salom, sayri kuzimiz,
Chetda qolmang odamlar.
Bugun Navro'zga esh to'y,
Hosil to'yim, Mehrjon.

Bolalar «Vatanim» qo'shig'ini kuylaydilar. (F.Nazarov musiqasi).

Chaman-chaman bog'larga,
Sayroqi bulbullarga,
Toshqin daryo ko'llarga,
Joydir go'zal Vatanim.
Ko'kni quchgan kuylarga,
Boydir go'zal Vatanim.
Yagonadir chiroying,
El bag'ridek bag'ring keng,
Sen hayot, ilxom berding,
Yor bo'l, go'zal Vatanim.
Porlar g'olib bayrog'ing,
Kundek yorug' chirog'ing,
Boylikka kon har yog'ing,
Bor bo'l, go'zal Vatanim.

Katta guruh bolalari qo'llarida barglar bilan doira bo'lib turadilar.

«Oltin barglar» qo'shig'ini kuylaydilar. Qo'shiqning so'z va musiqasiga mos harakatlar bajaradilar.

Boshlovchi: – Bolalar, men sizlarga topishmoq aytaman, sizlar esa topishmoqni qunt bilan tinglab, o‘ylab topishingiz kerak. Topishmoqning nomi, «Bu qanday fasl?» deb nomlanadi.

Kunlar borgan sari qisqaradi. Dehqonlar yerga ekkan sabzi, piyoz, kartoshka, karam va paxtalarni yig‘ib-terib oladilar. Qaldirg‘och, turna, mayna va boshqa qushlar issiq o‘lkalarga uchib ketadilar. Olmaxonlar yong‘oq yig‘adilar.

Qani, aytinglar-chi, bu o‘zgarishlar qaysi faslda ro‘y beradi?

Bolalar: – Kuz faslida.

Boshlovchi: – Juda to‘g‘ri topdingiz. Xalqimiz bu faslda sabzavot va mevalardan mo‘l-hosil yig‘ib-terib oladilar. Shuning uchun, Mehrjon bayrami kuz faslida nishonlanadi.

Shu payt eshik taqillab, «Kuz» kirib keladi. U boshiga kuzgi barglardan chamberak taqqan, egnida yashil ko‘ylak, ko‘ylakka kuz barglari qadalgan.

Kuz: – Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar. Salom, aziz kichkintoylar! (*Bolalar salomi*). Hammangizni ulug‘ ayyom – Mehrjon bayrami bilan tabriklayman!

Bola: – Salom senga oltin kuz!
Seni xushlab kutdik biz.
Sen juda yaxshi kelding,
Sovg‘alarga nima keltirding?

Bola: – Keldi kuz chog‘i,
Mevalar pishdi,
Daraxtlar shoxi
Egilib tushdi.

Bola: – Oldik ko‘p hosil,
O‘rik, olma, nok.

Shakardek asal
Uzum qildi tok.

Bola: – Bizning polizda
Qovun-tarvuz ko‘p.
Yetildi kuzda
Suyib yedik xo‘p.

Bola: — Sen olma va asalni
Ob keldingmi ham donni?
Sabzi, piyoz, karamni,
Qovun, tarvuz, uzumni?

Kuz: – Rahmat, sizga bolajonlar.
Kuz faslini juda sevar ekansizlar.
Meni derlar oltin kuz,
Xirmonda hosil to‘kin.
Tayyorlanar barcha xalq,
Katta bayramga bu kun.

*Turli sabzavotlarning atributlarini taqqan bolalar yarim
doira bo‘lib, turib oladilar.*

1-sabzi: – O‘zim sari,
Bargim yashil.
Osh bo‘lmaydi
Mensiz asl.

2-sabzi: – Uy ro‘zg‘orda tengim yo‘q,
Sabzi tansiq, beg‘ubor.
Shu palovni palov qilgan,
Vitamin ham desangiz.
Arzigudek karsillatib,
Non o‘rniga esangiz.

Tarvuz: – Yum-yumaloq tarvuzcha,
Yeb ko‘ringlar to‘yguncha.

Piyoz: – Hamma mendan qochishar,
To'g'rasang ko'z achishar.
Sen ko'p qayg'urma, ham yema,
Biz chapak chalaylik, sen o'yna.

*Quvnoq musiqa sadosi va qarsak ostida «piyoz»
raqsga tushadi.*

1-karam: – Qat-qat to'nimiz bor,
Qarich-qarich bo'yimiz bor,
Biz ham karam
To'nimiz taram,
Rangimiz barikaram.

2-karam: – Bizni hamma sevadi,
Karam sho'rva qiladi.

*Sabzavotlar o'yinga tushadilar va uch qator bo'lib
turib oladilar.*

Boshlovchi: – Bizning polizimizda,
Hosilimiz juda ko'p.
Ammo har kim kirolmas,
Qorovuldan o'tolmas.
U tartibni sevadi,
Har qatorni biladi.

*Ketmon ko'targan Vali qorovul qo'lini peshonasiga
g'o'yib, uzoqqa tikiladi «poliz» tomon keladi. O'z
ekinlarining tagini yumshatib, tekislab qarab qo'yadi.*

Vali: – Juda qiyin mening ishim,
Og'riyapti biqinim, belim,
Endi ozroq dam olay,
Mana bu yerga yotaqolay.

Bir oz mizg'igani yotadi.

Boshlovchi: – Hozir Vali banddir juda.

Ishlaydi u tun-u kunda,

Uxlab qoldi charchab juda,

Shu payt xo'roz paydo bo'lib, ekinzorning ichiga kirib ketadi.

Xo'roz: – Mana men xo'rozjon, xo'roz,

Ku-ku-ku.

Qorovul yaxshi polizda,

Ovqat bo'lsa yonida.

Xo'roz tarvuzni olib ketadi, so'ngra g'oz kirib keladi.

G'oz: – Mana men, g'oz-g'ozvoy,

Hech kim yo'qmi, hoy-hoy?

Qanday yaxshi polizda,

Ovqat bo'lsa yonimda.

G'oz piyozni olib ketadi, so'ngra echki kirib keladi.

Echki: – Mana men echkijon, echki,

Me, me, me.

Qanday yaxshi polizda,

Ovqat bo'lsa yonimda.

Echki sabzini olib ketadi. Shu payt sakrab-sakrab quyuncha kirib keladi.

1-quyon: – Kelib qoldi omadim,

Polizga tushib qoldim.

Keling shalpang quloqlar,

Sabzi, karam yeb qoling.

Yana bir quyuncha kirib keladi.

1-quyon: – O‘rtoqjon qaragin, polizda katta-katta, sersuv karamlar o‘sib yotibdi, kel mazza qilib yeymiz.

Ular bittadan karamni ushlab, raqsga tushadilar, shu payt Vali qorovul uyg‘onib qoladi.

Vali: – Ha, endi qo‘lga tushdinglarmi? Endi mendan qochib qutulolmaysizlar.

Quyvonlar tutqich bermay karamlarni olib qochib ketadilar. Vali jahli chiqib kelib to‘nkaga o‘tiradi.

Vali: – Qani karam, qani sabzilar? Piyozlar yo‘q, ko‘katlar ko‘rinmaydi. Sho‘rim quridi, endi nima qilaman? Polizda hech nima qolmabdi-ku?

Xo‘roz bilan echki kirib keladi.

Xo‘roz: – Qu-qu-qu! Xafa bo‘lma, azimim Vali. Sen hushyor bo‘la olmading. O‘z ishingga bo‘sh qarading. Endi bunday qilmagin. Biz sening oldingga bayramni birga o‘tkazgani keldik.

Echki: – Ammo sen bilib qo‘ygin,
Bunday uxlab qolmagin.
Qo‘riqlashmi istaging?
Postingda hushyor turgin.

Vali: – Ko‘p rahmat, unutmayman. Endi sizlar bilan o‘ynayman.

Boshlovchi: – Voy, qanday yaxshi bo‘ldi, kelganlaringiz. Biz bolalar bilan Mehrjon bayramini nishonlayotgan edik. Marhamat, mehmonimiz bo‘linglar!

She‘r: «Kuz keldi»

Kuz keldi bizlarga oltin kosada.
Sharbat ola keldi, bol ola keldi.
Savat-savat qilib shirin mevalar,

Omborlar liq to‘la don ola keldi.
Keng vodiylar bilan, dala bilan bir,
Paxta ola keldi, shon ola keldi.

«Oltin kuz» qo‘shig‘ini kuylaydilar.

Qanday mehnat biz qildik,
Hosilingni biz yig‘dik,
Bog‘laringda mevalar
Polizlarda qovunlar.

Naqorat:

Oltin kuz, oltin kuz,
Mevalaring hosil kuz.

Sariq barglar to‘kildi,
Xuddi oltin sochildi,
Quyosh tillo nurlarin
Dalalarga sochvordi.

Naqorat:

Olma-gilos daraxtda,
Asal-asal arida.
Keling-keling, mexmonlar,
Bor hosilga baraka.

Naqorat:

– Kuzimizning guzalligin,
Og‘aynilar ko‘rganmisiz?
Tokdan husayni, yerdan qirqma,
Shoxdan behi uzganmisiz?

Uzum uzib, sharbat siqib,
Shinniga o't yoqqanmisiz?
Gala, gala shoda-shoda,
Duv-duv yong'oq qoqqanmisiz?

She'r:

Bola: – Go'zal mening Vatanim,
Mening aql-u boyligim.
Paxtalarning komidir,
Jonim uning jonidur.

*«Oltin paxtam» qo'shig'ini kuylab, qizlar «Paxta»
raqsini ijro etadilar.*

Qiz: – Vatanimga boylikсан,
Ochilganda oydeksan,
Muncha ham chiroylisan,
Paxtajon, paxta!

Kuz: – Bolajonlar, siz she'rlarni, qo'shiqlarni yaxshi
aytar ekansizlar. Raqsga ham chiroyli tushar ekansiz.
Men miriqib tomosha qildim. Qani aytinglar-chi,
topishmoq aytsam topasizlarmi?

Boshlovchi: – Bizning bolalar, juda topag'on. Ayting
topishmog'ingizni.

Kuz: – Agar men sizga aytsam,
To'ni yashil beqasam.
To'ni ustida oq yo'l,
Hosili sersuv, mo'l-ko'l
Yulduzchadek guli bor,
Urug'i ichra qator
Chanqoqni bosar biling.

Bola: – Aytaymi, bu – bodring.

Kuz: – Voy, birpasda topdingiz.
Yana bitta topishmoq aytaman.
Rangidir to‘g‘ gunafsha,
Qovurilar hamisha.
Tani silliq, uzunchoq,
Ichi urug‘li oppoq.
Lazzati o‘ziga xos,
Bir dona edim paqqos.
Dedim, dehqonga jon-jon.

Bola: – Nomi esa, – baqlajon!

Kuz: – Bolajonlar, judayam topog‘on ekansizlar, meni xursand qildinglar.

Boshlovchi: – Oltin kuz, bizning bolalar raqs ijro etadilar. Marhamat tomosha qiling!

Kuz: – Voy, qanday yaxshi.

Katta guruh bolalari «Juftli polka» raqsini ijro etadilar.

Kuz: – Aziz bolajonlar, sizlar bilan bayramni juda maroqli o‘tkazdim. Men yana bog‘chalarga borib, jajji do‘stlarimni bayram bilan tabriklashim kerak. (Xayrlashib, chiqib ketadi).

1-boshlovchi: – Dilimday baxtiyor, O‘zbekistonim,
Yashnagan paxtazor, O‘zbekistonim,
Ming yasha, bo‘lma xor, O‘zbekistonim.
Qo‘lda baxtnomang bor, O‘zbekistonim,
Hosil bayraming muborak, O‘zbekistonim!

2-boshlovchi: – Ishsevar qo‘llaring paxta ekadi,
Dovrug‘ing cheki yo‘q, ko‘kka etadi.
Quvonchdan yuragim irg‘ib tepadi,

G'alaba kuyin chal, O'zbekistonim,
Mo'l hosilga to'l, O'zbekistonim!

*«Chamandagi gullarmiz» qo'shig'ini kuylaydilar.
(P.Mo'min, N.Norxo'jaev musiqasi).*

1-boshlovchi: – Aziz bolajonlar, hurmatli mehmonlar! Mehrjon bayramiga bag'ishlangan ertaligimiz ham o'z nihoyasiga yetdi. Hammangizni yana bir bor bayram bilan qutlaymiz! Sizlarga sihat-salomatlik, quvnoq kayfiyat, bir-biringizga nisbatan Mehr-oqibat tilaymiz.

Bolalar musiqa sadolari ostida zaldan chiqib ketadilar.

Navro'z – bahor bayrami

Zal bayramona bezatilgan. «Chamanda gul» (o'zbek xalq musiqasi) kuyi yangraydi. Zalga quvnab, o'rta guruh bolalari kirib keladilar.

Boshlovchi: – Maysa boshin ko'tardi yerdan,
Gulbahordan bermoqda darak.
Qushlar qo'shiq, soz kuyi bilan
Gulbahordan bermoqda darak.

(M.Abdusamatova)

Assalomu alaykum, shirin-shakar o'g'il-qizlarim!
Atrofga bir nazar tashlang. Qanday chiroyli! Tabiat yashil libosga o'rangan. Yilning eng chiroyli faslida qir-adirlarda chuchmoma, boychechak, lolaqizg'aldoqlar ochilgan.

O'lkamizda bahor kezmoqda. Bu faslda qanday bayramni nishonlaymiz.

Bolalar: – Navro'z bayramini nishonlaymiz.

Boshlovchi: – Juda to'qri, Navro'zni har yili zo'r quvonch, katta tayyorgarlik bilan kutib olish elimizning eng yaxshi odatlaridan biri bo'lib qolgan. Qo'shiqlar aytib, raqsga tushganlar. Xursandchilik qilganlar.

Karnay-surnay sadosi yangraydi. Beqasam chopon kiyib, beliga qiyikcha boqlagan, oyoqiga etikcha kiygan bola ot (butaforiya) minib zalga kiradi.

Bola: – Ho-oy, bolalar-u, bolalar!

Eshitmadim demanglar! Bugun boqchamizda Navro'z bayramiga baqishlangan katta sayl bo'ladi. Hammangizni saylga taklif etamiz. (Jarchi chiqib ketadi).

Boshlovchi: – Voy, qanday yaxshi bolalar. Mana, biz ham saylda qatnashadigan bo'ldik. Endi navbat, sizlarga. Marhamat bolalar!

Bola: – Biz bahorda chiqamiz,
Dalalarga, bog'larga.
Gullolalar ochilgan,
Ko'm-ko'k maysazorga.

Bola: – Bir tomondan qizchalar,
Gullar terib o'ynashar.
Bir tomonda qushchalar,
Bizni qutlab sa'valar.

Bola: – Dalalarda ochildi,
Gunafshalar, lolalar.
Bizga uchib kelishdi,
Mayna, bulbul, sa'valar.

Bola: – Qo‘llarida soz bilan,
Gul-g‘uncha pardozi bilan.
Uchib turna g‘oz bilan,
O‘lkamga bahor keldi.

Bahorni kuting bog‘da,
Boq emas dala joyda.
Qushlar sayragan chog‘da,
Sevimli bahor keldi.

*Bolalar «Gullar» qo‘shig‘ini kuylaydilar.
(J.Najmiddinov musiqasi). Qizlar qo‘lda gullar bilan
raqsga tushadilar.*

Boshlovchi: – Rahmat qizlar, juda chiroyli raqsga
tushdingiz.

Bola: – Bahor keldi, gulbahor,
Etagida gul tutib.
Bizga intiq lolazor,
Qirlar bag‘rida kutib.

Bola: – Atrof to‘la har xil gul,
Chuchmomayu, binafsha.
Bizning ko‘klamlar butkul,
Chiroylidir hamisha.

Bola: – Binafshaxon, binafsha,
Kulishlaring chiroyli.
Bog‘imizda ochilib,
Turishlaring chiroyli.

Bola: – Hamma chiqar dalaga,
Binafshalar terгани.
Men ham terdim guldasta,
Onamizga bergani.

*Bolalar tarafma-taraf bo‘lib, «Bizdan sizga kim kerak?»
aytim-o‘yinini aytishuv tarzida kuylaydilar. (Y.Qurbonov
she‘ri, M.Nasimov musiqasi).*

Shu payt momaqaldiraq gumburlaydi.

Boshlovchi: – Bolajonlar, eshitayapsizmi,
momaqaldiraq gumbirlayapti, hozir yomqir quyadi.
Tezroq panaga o‘tamiz.

*«Yomqir-yoqaloq» o‘zbek xalq bolalar qo‘shig‘ini
kuylaydilar.*

Boshlovchi: – Mana, bolalar yomg‘ir ham yog‘ib
o‘tdi. Qarang, quyosh charaqlab chiqdi. Voy, eshik
taqillayapti. qaray-chi, kim ekan?

(Kamalak qizchani boshlab kiradi). Bolajonlar,
Kamalakoy mehmon bo‘lib kelibdi. Kiraver, Kamalakoy!

Kamalak: – Assalomu alaykum, bolalar!

Hamma: – Vaalaykum assalom, Kamalakoy!

Boshlovchi: – Kelganing juda yaxshi bo‘ldi-da,
Kamalakoy. Bizning bog‘chamizda Navro‘z bayrami sayli
bo‘layapti. Bolalar, Kamalakning ko‘ylagiga qaranglar,
juda rang-barang ekan-a?

Bolalar: – Oq, qizil, sariq, yashil... Lentasi ham turli
rangda ekan.

Kamalak: – Sizlarni, Navro‘z – bahor bayrami bilan
tabriklayman! Sizlarga gulchambarlar, tol bargidan
sochbargaklar keltirdim, mana taqib olinglar.

*Bolalar boshlariga gulchambarlar, sochbargaklarni
taqadilar. Kamalak bilan birgalikda qo‘shiq kuylaydilar,*

o'rtada ikkita qiz raqsga tushadi.

*«Qo'shig'imiz avjida» aytim-o'yinini ijro etadilar.
(G'.Komilov she'ri, T.Azimov musiqasi).*

Qo'shig'imiz avjida,
Laylum-lalalum.
O'rtaga tush, Mavjuda,
Laylum-lalalum.
Bizlarga jo'r bo'linglar,
Laylum-lalalum.

She'r: – «Chuchmoma»

Bola: – Xipchabelli ey, ko'kat,
Qaysi bog'ning gulisan?
Ochig'ini bizga ayt,
Qay fasl sunbulisan?
Men o'tloqning qiziman,
Onam bahor-chuchmoma.
Men bahor yulduziman,
Men – chuchmoma, chuchmoma!

*«Baxti erkatoy» hazil qo'shig'ini kuylaydilar.
(T.Toshmatov musiqasi).*

Boshlovchi: – Bolalar, endi musobaqa o'ynaymiz.
Avval qizlar, so'ngra o'qil bolalar musiqaga mos raqsga
tushadilar. Marhamat qizlar!

*Qizlar «Asp bo'laman» o'zbek xalq musiqasiga, o'g'il
bolalar esa «Chertmak» o'zbek xalq musiqasiga raqsga
tushadilar.*

Boshlovchi: – Qani Kamalak, ayt-chi, kim yaxshi
raqsga tushdi? Qizlarmi yoki o'qil bolalar?

Kamalak: – Qizlar ham, o‘qil bolalar ham musiqaga mos raqsga tushdilar. Raqmat, do‘stlarim. Endi men boray.

Shu payt patnisda ko‘k somsalar ko‘tarib, «Cho‘pon bola» kiradi.

Cho‘pon bola: – Assalomu alaykum!

Hamma: – Assalomu alaykum!

Cho‘pon bola: – Meni tanimadingizlar-a? Men cho‘pon bola bo‘laman! Dadam, oyim va akalarim bilan anavi qirda yashaymiz, o‘sha yerda qo‘y boqamiz. Uzoqdan sizlarni saylga chiqqanligingizni ko‘rib qoldik. Oyimlar ko‘k somsalar yopib, sumalak pishirib, sizlarga berib yubordilar.

Boshlovchi: – Cho‘pon bola, sen juda vaqtida keldingda. Mana, Kamalak ham shu yerda.

Cho‘pon bola: – Juda yaxshi. Hammamiz birgalikda ko‘k somsa eymiz.

«Chamanda gul» kuyi yangraydi. Hammalari gilamchaga o‘tirib, ko‘k somsa va sumalakdan tanovul qiladilar.

Kamalak: – Bolalar, sizlarga katta raqmat. Sayl menga juda yoqdi. Endi qar yili Navro‘z bayramini sizlar bilan birga nishonlayman. Xayr, bolalar!

Cho‘pon bola ham xayrlashib, chiqib ketadi.

Hamma: – Xayr Kamalak, xayr Cho‘pon bola!



Bolalar uchtadan, to‘rttadan, to‘p-to‘p bo‘lib, qizlarning boshlarida gulchambar, sochbargak taqib, kuvnashib, sayl haqida gaplashib, chiqib ketadilar.

MUSTAQILLIK LOLALARIMIZ

N.Narzullayev she'ri

R.Abdullayev musiqasi

Allegretto



dan. Tinch-lik-ni o'y-lab

1. Do'st-lik-ni kuy-lab is-tiq-bol-ni ko'z-lar ko'-zi-

2. miz. Ha-ha-hey O-zodVa-tan o'-g'il qi-zi-

miz. he-he-hey hey.

Is-tiq - lol-ning qal-dir - g'o-chi - miz.

Iq-bo - li-miz tong-day ku-la - jak.

Xalqmeh - ri-dan qud-rat ku-chi - miz

Biz - ni - ki bu nur - li ke-la - jak!

Tinch-lik-ni o'y-lab Do'st-lik-ni kuy-lab



O'zbekiston – Vatanim, onam,
Nur taralar gulbog'laringdan.
Oltin beshik aziz ostonam,
Baxtim topdim quchoqlaringdan.

Istiqlolning qaldirg'ochimiz,
Iqbolimiz tongday kulajak.
Xalq mehridan qudrat-
kuchimiz,
Bizniki bu nurli kelajak!

Na q o r a t :

Ozod Vatan o'g'il-qizimiz,
Charaqlagan yer yulduzimiz.
Tinchlikni o'ylab,
Do'stlikni kuylab,
Istiqbolni ko'zlar ko'zimiz.


Mustaqillik bolalarimiz,
Boshimizni silaydi o'lkam.
Dil g'unchasi – lolalarimiz,
Go'zallikdan yashnagay olam!

YURTIM KAMOLI

Rauf Tolib she'ri

Nodim Norxo'jayev musiqasi

Allegro moderato



Qo'n - di bosh - ga iq - bo -

li...

Shamol tegdi ko'ksiga
 Buyuk ona xalqimning.
 Ko'zin ochdi istiqlol,
 Tanidi o'z haqini.

N a q a r o t:

Adolatning timsoli,
 Istiqlol – yurt kamoli.
 Humo qushi misoli
 Qo'ndi boshga iqbol.

Barcha udum, an'ana
 Qaytdi yana elimga,
 Navro'z qildi tantana,
 Hurmat ortdi tilimga.

N a q a r o t:

Elimning o'z yo'li bor,
 O'z fikri, o'z maqsadi.
 O'ziniki topgani,
 Yelga uchmas mehnati.

N a q a r o t

MUNAJJIM BOBOM

Po'lat Mo'min she'ri

Nodim Norxo'jayev musiqasi

Allegro moderato



Ey, mu - naj - jim, ey, mu - naj - jim

U - lug' - bek bobom.

CODA

U lug' - bek bo - bom.

Osmonlarda nur ko'zlaringiz,
Charaqlaydi yulduzlaringiz.
Amir Temur ruhi bo'lib yor,
Yashnamoqda bu ozod diyor.

N a q a r o t:

Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulug'bek bobom.

Fan ko'ksida yashaysiz hamon,
Ardoqlagay jahon-u zamon.
O'chmagaydur hech izlaringiz,
Biz yerdagi yulduzlaringiz.

N a q a r o t:

Samarqandda bordaysiz mudom,
Ey munajjim, Ulug'bek bobom.

ONA TILIM, O'ZBEK TILIM


Po'lat Mo'min she'ri

Farhod Alimov musiqasi

Moderato

mp

Ti - lim chiq-qan so'-zing bi - lan,
Di lim ravshan o' - zing bi - lan Fahr e-ta-dur
xal qim e lim fahr e - ta-dur xal qim e lim
O'z be kis ton o - na ti-lim.
O'z bekti-lim o-na ti-lim.
mf
Ya gonasan Va tan mi sol,
Sendan top dim baxt-u iq - bol
mak ta bing da ol-dim ta' - lim Mak ta bing da
ol-dim ta'lim o-na ti- lim - o-na ti-lim
O-na ti-lim, o - na ti-lim.



yaxshi-lar - ga ko'z dek - li-gim, berding o dob,
berding bi lim, o'zbek ti- lim -
-o-na ti-lim,
o'z - bek ti - lim o - na ti - lim

Tilim chiqqan so'zing bilan,
Dilim ravshan o'zing bilan,
Faxr etadur xalqim – elim
O'zbek tilim – ona tilim.

Yagonasan Vatan misol,
Sendan topdim baxt-u iqbol,
Maktabingda oldim ta'lim,
Ona tilim – ona tilim.

Juda qadim – sharqonasan,
Asli zoti turkonasan,
Sen tufayli to'ldi aqlim,
Ona tilim – ona tilim.

Navoiydan merosimsan,
 Jaranglagan ovozimsan.
 Yuragimda zavqim lim-lim,
 Ona tilim – o‘zbek tilim.

Yassaviyning xitobisan,
 Qodiriylar kitobisan,
 Ey, o‘zimning mustaqilim –
 Ona tilim – ona tilim.

Sendan ayon o‘zbekligim,
 Yaxshilarga ko‘zdekligim.
 Bering odob, bering bilim –
 Ona tilim – ona tilim.

CHAQQON BOLA

Po‘lat Mo‘min she‘ri

Farhod Alimov musiqasi

Allegretto

mf Solist

Ko‘-ri-ni - shi bardam e kan, qa dam-la-ri

il-dame kan Qo‘sh ni-la-ri yax shi bi-lar, she-rik-la-ri

yax shi bi-lar. A-nov chaqqon -

Xor:

chaqqob bo la A-nov chaqqon -chaqqon bo la,

Hamma: Xor:

qay-si uy dan chiqqan bo la? Qay-si uy - dan

Hamma:

chiqqan bo la? Barchaga teng yoqqan bo la

chaqqonbo la, chaqqonbo la.

chaqqon bo la, chaqqon bo la.

mf

Ju-da da-dil bo-ra - yo-tir, dey-siz go'yo

bo-la - bo-tir ib-rat o-ling chaq-qon - lar - dan,

E-lu yurt - ga yoq - qan - lar - dan.

f

A-nov chaq-qon chaq-qon bo-la

Xor:



A-nov chaq-qon-chaq-qon bo-la, Qay-si uy - dan



chiq-qan bo-la? Qay-si uy - dan chiq-qan bo-la?

Hamma:



Bar-cha-ga teng yoq-qan bo-la chaq-qon bo-la,



chaqqob bo la. chaqqon bo la,



chaqqon bo-la chaqqon bo-la,

a tempo



chaq - qon bo - la...



N a q a r o t:

Anov chaqqon-chaqqon bola,
Qaysi uydan chiqqan bola?
Barchaga teng yoqqan bola,
Chaqqon bola, chaqqon bola.

Ko'rinishi bardam ekan,
Qadamlari ildam ekan.
Qo'shnilari yaxshi bilar,
Sheriklari havas qilar.

N a q a r o t:

Anov chaqqon-chaqqon bola,
Qaysi uydan chiqqan bola?
Barchaga teng yoqqan bola
Chaqqon bola, chaqqon bola.

Ko'zi tiyrak mergan bola,
Ko'kragini kergan bola.
Kiyinvolgan ixchamgina,
Epchilgina, ishchangina.

N a q a r o t

Juda dadil borayotir,
Deysiz go'yo bolabotir.
Ibrat oling chaqqonlardan,
El-u yurtga yoqqanlardan.

N a q a r o t

BAHOR QO'SHIG'I

Shernazar Qushnazarov she'ri

Rustam Abdullayev musiqasi

Moderato

The musical score is written in 4/4 time with a key signature of one flat (B-flat). It consists of seven staves of music. The first staff begins with a *mf* dynamic marking. The second staff has a *f* dynamic marking. The lyrics are written below the notes, with hyphens indicating syllables that span across multiple notes. The lyrics are: Bul-bul-lar say-ray-di o'l-kam-da ba hor, yosh dil-lar yay-ray-di o'l-kam-da ba hor, ba hor, ba hor. Erk qut lug'yur tim. Ba hor, Ba hor, ko'rkut lug'yur tim. Ba hor, - Ba hor. - Erk qut lug'yur tim, - Ba hor, Ba hor, ko'rkut-lug'yur-tim. Ko'hna mad-ra-sa lar, pesh to - qi-da nur



Mumtoz kuy g'azal-lar. ja-ranglar mag'rur.

Xor:



Ko'hnamad-ra salar peshto - qi-da nur.

A...

A...



mumtoz kuy g'azallar ja-rang - larmag'rur Yakkaxon:

Ba

A...

A...



hor, Bahor Erk qut-lug' yur-tim. Ba-



hor, Bahor ko'rk qut lug'yur tim.


Xor: (yopiq ovozda)



M...


M...

1.



Yakkaxon:

Xor:



Bulbullar sayraydi –
O'lkamda bahor.
Yosh dillar yayraydi –
O'lkamda bahor.

N a q a r o t:
Bahor, bahor,
Erk qutlug', yurtim.
Bahor, bahor,
Ko'rk qutlug', yurtim.

Ko'hna madrasalar,
Peshtoqida nur.
Mumtoz kuy-g'azallar,
Jaranglar mag'rur.

N a q a r o t:
Bahor, bahor,
Erk qutlug', yurtim.
Bahor, bahor,
Ko'rk qutlug', yurtim.

Quvonchim bo'lasan –
Toki hayot bor.
Baxt bo'lib kulasan,
Ey, suluv bahor.

Erka farzandingmiz,
Vatan, onajon.
Baxtimiz, faxrimiz,
Hur O'zbekiston.

N a q a r o t:
Bahor, bahor,
Erk qutlug', yurtim.
Bahor, bahor,
Ko'rk qutlug', yurtim.

YEMAGANLAR ARMONDA

Sulton Jabbor she'ri

Habibullo Rahimov musiqasi

Allegro



Meno



Poco accel.



Ha - say - ni - mi Hu - say - ni - mi? Hu - say - ni - mi,

Tempo I



Hu - say - ni - mi, hey.

Rahmat kumush ko'zimga,
 Mazza kirdi uzumga.
 Har bir boshi bir quchoq,
 Boshda soyabon-yaproq.

So'rida qator-qator,
 Osilishib o'ynar dor.
 Donalari dumaloq,
 O'rta barmoq, bosh barmoq.

N a q a r o t:

Qizil, sariq, qora, oq,
 Donasi dur sara bog'.

Dilingiz ne tusaydi,
 Hasaynimi, husayni?

O'zga ta'mi, chiroyi,
 Kishmishmi yo Daroyi?
 Yetilib pishgan ayni,
 Hasayni-yu husayni.

Daroyidan emas kam,
 Kishmish, Qorajanjal ham.
 Qay birini sevasiz?
 Bari mehnat mevasi!

N a q a r o t

TOM BOSHIDA QIZG'ALDOQ

Normurod Narzullayev she'ri

Habibulla Rahimov musiqasi

Allegro

The musical score is written in 2/4 time on a single treble clef staff. It consists of eight lines of music with lyrics in Uzbek. The lyrics are: Tom bo - shi - da qiz - g'al-doq Tom bo - shi - da qiz - g'al-doq O'y - nar sha - mol sho'x quv - noq O'y - nar sha - mol sho'x quv - noq Hay - ron bo - qar qi - za - loq. Qu - lo - g'i - da oy - bal - doq Go' - yo ya - shil o - lam - ni o - lam - ni o - lam - ni Chin dil - dan qut lar e - mish qut - lar - mish qut - lar - mish Barg - la - ri - da shab - nam - ni.

Solist Xor

Solist

Xor Solist

Xor Solist

Xor Solist



Tom boshida qizg'aldoq,
O'nar shamol sho'x, quvnoq.
Hayron boqar qizaloq,
Qulog'ida oybaldoq.

Go'yo yashil olamni
Chin dildan qutlar edi.
Barglarida shabnamni
Oftobga tutar edi.

Shunchalarki yer mehri,
Siylab, ko'tarmish boshga.
Ziyosida bor sehri,
Intilar u quyoshga.

Bahordan berib darak,
Tomda yashnar qizg'aldoq,
Urar yonida yurak,
Ko'klam qizi qizaloq.

AZIZ USTOZLAR

To'liqin she'ri

Sobir Boboyev musiqasi

Allegretto

Do-im a - ziz hur-ma-tin-giz, U-nut-may
miz meh-na-tin - giz Dom la-jon-lar,
o-pa-jon-lar, a-ziz Usto-z - lar.
Dom la-jon-lar o-pa jon-lar,
a-ziz a-ziz
Us-toz - lar Bo-shi-miz-ni si-la-din
giz, biz-ga oq yo'l ti - la - din -giz,
Dom la-jon-lar o-pa-jon-lar, a-ziz Uz-toz-

Dom- la- jon- lar,

lar. o - pa - jon

lar. a - ziz, a - ziz, Us - toz - lar.

Doim aziz hurmatingiz,
 Unutmaymiz mehnatingiz.
 Domlajonlar, opajonlar,
 Aziz ustozlar.

Sizga izzat, sizga hurmat,
 Yosh qalblarda bo'lar har vaqt.
 Domlajonlar, opajonlar,
 Aziz ustozlar.

N a q a r o t :

Boshimizni siladingiz,
 Bizga oq yo'l tiladingiz.
 Domlajonlar, opajonlar,
 Aziz ustozlar.

Sizlar bizning baxtimizsiz,
 Dillardagi abdimizsiz.
 Domlajonlar, mehribonlar,
 Aziz ustozlar.




O'ZBEKISTON BAHORI

Normurod Narzullayev she'ri

Farhod Olimov musiqasi

Vals sur'atida

mf



ba - ho - ri ha - zon bil - mas

so'l - ma - gay mu - ruv - vat - li

e - lim - ning meh - ri dar - yo

so'n - ma - gay

mu - ruv - vat - li e - lim - ning

meh - ri dar - yo so'n - ma - gay

meh - ri dar - yo so'n - ma - gay

O - mon o - mon ti - la -

shar yax - shi - lar o'z - la - ri -

_ ga Dun-yo ya- sha - rib ke-tar
 ken-ga-yib ko'z - la-ri -
 _ga Mu- ruv - vat- li
 e- lim - ning meh-ri dar - yo
 so'n - ma - gay.

O'lkamga keldi bahor qaldirg'och qanotida,
 Yulduzli onin kutgay har inson hayotida.
 Ishq, go'zallik namoyon borliqning bayotida,
 O'zbekiston bahori xazon bilmas, so'lmagay,
 Muruvvatli elimning mehri daryo, so'nmagay.

Omon-omon tilashar yaxshilar o'zlariga,
 Boychechaklar unadi, har bosgan izlariga.
 Dunyo yasharib ketar kengayib ko'zlariga,
 O'zbekiston bahori xazon bilmas, so'lmagay,
 Muruvvatli elimning mehri daryo, so'nmagay.

MARSH

M.Blanter musiqasi

Marsh suratida

The first system of the musical score is in 2/4 time and B-flat major. It features a piano (*pp*) dynamic. The right hand plays a melodic line with eighth and sixteenth notes, while the left hand provides a rhythmic accompaniment with quarter notes and rests.

The second system continues the piece with a forte (*f*) dynamic. The right hand has a more active melodic line with sixteenth notes, and the left hand plays a steady accompaniment of quarter notes.

The third system shows the continuation of the march. The right hand features a melodic line with some rests, and the left hand maintains a consistent accompaniment pattern.

The fourth system concludes the piece. It includes a repeat sign at the end of the right-hand line. The left hand continues with its accompaniment until the final measure.

YUGURISH

S.Abramova musiqasi

Allegretto

p

1.

2.

f

rit.

p

1.

2.

DILXIROJ
O'zbek xalq kuyi

mf

p

BAHOR VALSI

M.Mirzayev musiqasi

First system of musical notation. The treble clef staff features a melodic line with eighth-note runs and a long slur. The bass clef staff provides harmonic support with chords and a few moving notes.

Second system of musical notation. The treble clef staff continues the melodic line with slurs. The bass clef staff has a rest in the first measure, followed by a series of eighth-note chords. A dynamic marking of *f* (forte) is present.

Third system of musical notation. Both staves show a consistent eighth-note rhythmic pattern. The treble clef staff has a melodic line with slurs, and the bass clef staff has a supporting line with slurs.

Fourth system of musical notation, ending with a double bar line. The treble clef staff has a melodic line with slurs and accents. The bass clef staff has a supporting line with slurs and accents.

ANDIJON POLKASI

O'zbek xalq kuyi

Habibulla Rahimov

fortepiano uchun moslashtirgan

Allegro

The first system of the musical score is in 2/4 time. The right hand (treble clef) begins with a quarter note G4, followed by a dotted quarter note A4, and then eighth notes B4, C5, D5, E5. The left hand (bass clef) starts with a fortissimo (*f*) dynamic, playing a steady eighth-note accompaniment of G2, A2, B2, C3, D3, E3.

The second system continues the piece and includes a first and second ending. The right hand plays a sequence of eighth notes: G4, A4, B4, C5, D5, E5, F5, G5. The first ending concludes with a quarter note G5, and the second ending concludes with a quarter note F5. The left hand continues with the eighth-note accompaniment.

The third system features a change in the right hand's texture. It begins with a series of chords: G4-B4, A4-C5, B4-D5, and C5-E5. The left hand continues with the eighth-note accompaniment.

The fourth system continues with a similar chordal texture in the right hand, including chords like G4-B4, A4-C5, B4-D5, and C5-E5. The left hand maintains the eighth-note accompaniment. The system concludes with a first ending.

2.

The first system of music features a second ending bracket labeled '2.' above the first measure. The treble clef contains a half note G4, a quarter rest, and a quarter note G4. The bass clef contains a half note G2, a quarter note G2, and a quarter note G2. The system continues with a series of eighth-note patterns in both hands, ending with a double bar line and repeat dots.

The second system continues the piece. The treble clef has a series of eighth-note patterns, including a measure with a quarter rest and a quarter note G4. The bass clef features a steady eighth-note accompaniment. The system concludes with a double bar line and repeat dots.

The third system shows the continuation of the eighth-note accompaniment in the bass clef and the melodic line in the treble clef. The system ends with a double bar line and repeat dots.

1. | 2.

The fourth system contains two endings. The first ending, labeled '1.', consists of two measures in the treble clef and two measures in the bass clef. The second ending, labeled '2.', consists of two measures in the treble clef and two measures in the bass clef. Both endings conclude with a double bar line and repeat dots.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori, Toshkent, 1997.

2. I.A.Karimov. «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch», Toshkent, 2008.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni», Toshkent, 1997.

4. S.I.Musabekova. «Musiqqa tarbiyasi», Toshkent, 1973.

5. A.Lugovskaya. «Ritmicheskiy uprajneniya igri i plyaski», Moskva, 1991.

6. R.Rahimova. «Tarbiyachiga 1001 maslahat», Toshkent, 2007.

7. A.Rahimov. «Uchinchi ming yillikning bolasi», Toshkent, 2002.

8. P.Yusupova. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi», Toshkent, 1993.

9. N.Rahimova. «Kuyla oftobim», Toshkent, 2006.

10. N.A.Vitlugina. «Metodika muzikalnogo vospetaniya v detsikomu sadu», Moskva, 1973.

11. G.Sharipova, Sh.Yakubova. «Maktabgacha ta’lim muassa-salarida musiqqa o‘qitish metodikasi». Toshkent, 2007.

12. No‘monjon Soliyev. «Musiqqa savodi alifbosi». Toshkent, 2003.

MUNDARIJA

Kirish	3
Maktabgacha ta'lim muassasasida va oilada musiqa savodini tarbiyalashning ahamiyati va vazifalari	5
Musiqaviy tovushlar va ularning xususiyati.	
Tovushqator registr va ularning vazifalari	8
Musiqaviy tovushlarning yozilishi. Kalitlar.	
Kalitlar haqida tushuncha	11
Notaning nota chizig'ida qanday yozilishi	13
Musiqaning ifoda vositalari	15
Musiqada dinamik iboralarning qo'llanilishi	16
Intervallar va intervallarning aylanishi	17
Intervallarning bosqichlari va ularning turlari	19
Notaga qarab nota bilan kuylash	20
Lad va tonliklar	22
Dirijorlik qoidalari	24
Major, minor, uchtovushliklar va ularning yozilishi	27
Akkordlar haqida tushuncha	28
Qo'shiqni yod olish. «Chamandagi gullarmiz»	29
Oilada va bolalar bog'chasida musiqa savodining ahamiyati	34
Oilada va bog'chada bolalarni ashula aytishga o'rgatish	37
Turli guruhlarda musiqa tinglashning nazariy uslubiyati	39
Musiqa asboblari ijro etish va uning vazifalari	43
Xalq musiqa ijodiyoti bilan	47
Notaga qarab kuylash. «Bahor keldi» qo'shig'i, I.Akbarov musiqasi	49
Bolalar bog'chasida «Navro'z bayrami» ni nishonlash	51
Bolalar bog'chasida musiqaviy ritmik harakatlarga o'rgatish metodikasi	56
Bolalar bog'chasida musiqa mashg'ulotining ish rejasi	67

Ashula aytganda nafas olish va nafas chiqarish usullari	69
Bolalar bog'chasida musiqa ta'lim-tarbiya berishda tarbiyachining o'rni	71
Oilada va MTM dagi bolalarning qo'shiq aytish uslubiyati	74
Musiqa mashg'ulotining shakllanish turlari	78
Bolalar bog'chasida musiqa va o'yinlar	80
Musiqa ostida jismoniy tarbiyaning roli	82
An'anaviy qo'shiq ijrochiligi	83
O'zbek bastakorlik san'ati. Yunus Rajabiyning hayoti va ijodi	90
Solfedjio. «Salomat», «Baxtli erkatoj», «Chittigul»	92
Musiqa – san'at turlaridan biri	94
Musiqa ostida harakat va o'yinlar	96
Musiqa nazariyasi asoslari va metodlari	102
Raqs, xorovodlar va musiqaviy ritmik harakatlarning vazifalari.....	103
Bolalar bog'chasida bayram ertaliklari	107
Kichik, o'rta, katta va tayyorlov guruhlarda bayram ertaliklari.....	112
Bolalarning MTM da musiqaviy faoliyatini tashkil etish va jihozlash	116
Oilada musiqaviy faoliyatni tashkil etish va jihozlash	119
Bolalar o'yinlarida musiqa	121
Foydalanish uchun qo'shimcha materiallar	123
Foydalanilgan adabiyotlar	177

Nafisa Yusupovna Yusupova

**MUSIQA SAVODI,
METODIKASI VA RITMIKA**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan pedagogika oliy o'quv yurtlari hamda
kollejlari uchun o'quv qo'llanma sifatida
tavsiya etilgan*

Muharrir *B.Ashurov*
Texnik muharrir *T.Greshnikova*
Musahhah *H.Yusupova*
Kompyuterda tayyorlovchi *B.Ashurov*

Nashriyot litsenziya raqami: AI № 126.2008.12-noyabr.
Bosishga 13.11.2017-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 ¹/₁₆.
Times garniturası. Ofset bosma. Shartli b.t. 11,25.
Jami 672 nusxa. Buyurtma №647.

«Musıqa» nashriyoti. Toshkent. B.Zokirov ko'chasi, 1.

«NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY
Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.